

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ishlab chiqarish
texnologiyalari
fakulteti**

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini
qayta ishlash texnologiyalari
kafedrasi**



**"QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH VA
AVTOMATLASHTIRISH"
FANIDAN**

Amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish uchun

U S L U B I Y K O' R S A T M A

GULISTON-2020

Bababekov U., Ermatov V. “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish” fani bo’yicha amaliy va laboratoriya mashg’ulotlar uchun uslubiy ko’rsatma. GulDU, Guliston, 2020 yil, bet.

Ushbu uslubiy ko’rsatma Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi, Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha), Agrokimyo va agrotaproqshunoslik, Dorivor o’simliklarni yetishtirish va qayta ishslash texnologiyasi, Mevachilik va uzumchilik, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxonalar xo’jaligini tashkil etish va yuritish ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo’ljallangan.

“Qishloq xo’jaligi mahsulotlarni qayta ishslash texnologiyasi” kafedrasining yig’ilishida muxokama etilgan va o’quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Guliston davlat universiteti o’quv-metodik kengashi tomonidan 22.01.21 yil № 06 sonli bayonnomaga binoan nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

GulDU “QXMQIT” kafedrasi professori

t.f.d. K.K.Nuriev va dots. O.Raxmatovlar



KIRISH

O‘zbekiston 2018 yilning birinchi yarmida qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun 5778 dona texnika sotib oladi. Davlat rahbari 4 yanvar kuni “Qishloq xo‘jaligini texnik jixozlashni yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorni imzoladi.

Xususan, “Jon Diir”, “Belarus”, T-7060, T-6070 traktorlarini CASE, Class, Daminator-130 G‘alla o‘rish kombaynlarini, pluglar, seyalkalar, purkagichlar, kultivatorlar va hokazolarni xarid qilish rejalashtirilgan.

Respublika fermer xo‘jaliklari hozirgi kunda “Jon-Diir”, “Belarus”, New Holland T-7060, T-6070, "Magnum-8940", TTZ-LS. PLUS-100, K-701K, TS-130, MX-140, Claas Arion-630C, AXOS-340C rusumli G‘ildirakli va T-4A-S4, VT-150, DT-75M rusumli zanjirli haydov traktorlari; MTZ-80, TTZ-LS-100NS, TTZ-80.10 universal va MTZ-80X, T-28X4M, TTZ-80.11 chopiq va xorijiy “Claas”, “Keys” va “New-Holland” firmasining traktorlari bilan ta’minlangan.

Mazkur texnika vositalari yordamida bajariladigan dalachilik tadbirlarining agrotexnik talablar darajasida ado etilishi ko‘p jihatdan dala agrofonlarini sifatli tayyorlash, mashina-traktor agregatlarini (MTA) agrofon holatiga qarab to‘g‘ri rostlash va ishlatishga bog‘liqdir. Bunga haydov agregatlari misolida ham yaqqol ishonch hosil qilish mumkin.

Universitet talabalari ushbu uslubiy qo‘llanmada “Taraktor va avtomobil” fanidan nazariy olgan bilmlarini amaliyot mashg‘ulotlarida puxta o‘rganishlariga imkoniyat yaratilgan.

Uslubiy qo‘llanmada traktor va avtomobillarni texnik tasnifi, mexanizm va qismlarini vazifasi, tuzulishi, ishlash jarayonlari va sozlanmalarini bayon etilgan.

Har bir amaliy ishni o‘tkazish uchun talabalar xonalardagi mavjud traktorlar dvigatellar ularni kesimlari, mexanizmlar majmuasi, stendlar, maketlar, plakatlar va video roliklardan foydalanadilar.

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan traktorlarni texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlari jurnal va internet ma’lumotlaridan foydalanadilar.

1-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlash prinsipi.

1. Ishning maqsadi: Ichki yonuv dvigatellarining umumiyligi tuzilishi va ishlash jarayoni bilan tanishish.


2. Kerakli jihozlar: Amaliyot xonasidagi karbyurator va dizel dvigatellari kesimlari.

3. Ishni bajarish tartibi:

Dvigatel – yoqilg‘i yonganda hosil bo‘lgan issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirib beradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida asosan zamonaviy traktor va avtomobillardan foydalilaniladi, ularda issiqlik energiyasini mexanik ishga aylantirib beradigan **ichki yonuv dvigatellari** qo‘llaniladi.

Traktor va avtomobillarda silindrлari bir va ikki qatorli dvigatellar qo‘llaniladi.




1-rasm. Dvigatel silindrлarining joylashish turlari:

a-bir qatorli tik; b-bir qatorli tik o‘qqa burchak ostida; c- “V”-simon; d-silindrлar qarama-qarshi joylashgan: 1-silindr; 2-blok kallagi; 3- silindr bloki; 4-karter tagi

Bir qatorli dvigatel silindrлari (1-rasm) vertikal (a) yoki vertikalga $20\dots 45^{\circ}$ burchak ostida (b) joylashgan bo‘lishi mumkin. Ikki qatorli dvigatellar silindrлar o‘qi orasidagi burchak 90° bo‘lganda “V”-simon (c), agarda bu burchak 180° ni tashkil etsa silindrлari karama-karshi yotuvchi (d) dvigatellar deyiladi.

Ichki yonuv dvigateli asosiy blokdan 1 (2-rasm) tashkil topgan bo‘lib, uning ichiga silindr gilzasi 2 o‘rnataladi. Silindrning yuqori qismi maxsus murakkab holatda tuzilgan silindr kallagi 7 bilan mustahkam berkitilgan. Unda yoqilg‘i aralashmasini kiritish 8 va yongan gazni tashqariga chiqarish 9 yo‘laklari yasalgan bo‘lib, bu yo‘laklarning teshiklari germetik usulda ochib yopadigan berkitgichlar (klapan) 10 hamda benzin yoki gaz aralashmasini yoqadigan uchqun chiqargich yoki dizel yoqilg‘ini purkaydigan purkagich (forsunka) 11 bilan jihozlangan.



2-rasm. Ichki yonuv dvigatelini umumiy (a) va sxematik (b) ko'rinishi:

1-blok; 2-silindr; 3-porshen; 4-shatun; 5-tirsakli val; 6-karter; 7-silindr kallagi; 8-kirish yo'lagi; 9-chiqish yo'lagi; 10-klapanlar; 11-forsunka; 12-halqalar; 13-moxovik


Silindr 2 ichiga porshen 3 kiritilgan bo'lib, u silindr ichida ilgarilanma-qaytma xarakat (porshen yo'li S) qiladi. Ularning orasidagi tirkishlardan siqilgan havoning o'tib ketmasligini ta'minlash maqsadida porshenga ketma-ket bir necha halqalar 12 o'rnatilgan. Porshen ostki tomonidan shatunga 4, u esa o'z navbatida tirsakli valga 5 birkirtirilgan. Tirsakli valning bir tekis aylanishini ta'minlash uchun unga maxovik 13 o'rnatilgan. Blok karterning ostki qismi moylash suyuqliklari quyiladigan ostki qopqoq 6 bilan germetik berkitilgan.

Dvigateli ishlashi mobaynida quyidagi jarayonlar (3-rasm), ya'ni, oldindan tayyorlangan yoqilg'i aralashmasini (benzin va gaz bilan ishlaydigan dvigatellarda) yoki alohida toza havo va dizel yoqilg'isini (dizel dvigatelida) silindr ichiga kiritish, uni siqish, yondirish va chiqarish jarayonlari ketma-ket amalga oshiriladi.

I. Kiritish jarayoni – tirsakli val aylanganda porshen pastga xarakatlanadi, shu bilan bir paytda kiritish klapani ochilib, silindr ichiga yoqilg'i aralashmasi yoki toza havo suriladi.

II. Siqish jarayoni – porshen yuqoriga xarakat qilganda kiritish va chiqarish klapanlari berkitiladi va yoqilg'i aralashmasi (benzinli dvigatelda 6-8, dizel dvigatelida 14-18 martagacha) siqiladi.

III. Yonish jarayoni – porshen yuqori chekka nuqtaga etganda benzinli dvegatelda siqilgan yoqilg'i aralashmasi elektr uchquni yordamida yondiriladi, dizel dvigatelida siqilgan va qizigan havoga yoqilg'i purkaladi va u o'z-o'zidan yonadi. Yoqilg'ini yonishi natijasida hosil bo'lgan yuqori bosimli gaz porshenni pastga harakatlantiradi, bu yonish jarayoni pastki chekka nuqtagacha davom etadi.



3-rasm: To‘rt taktli dizel dvigatelining ishlash jarayoni:

1-tirsakli val; 2-shatun; 3-porshen; 4-silindr; 5-havo kiritish yo'lagi; 6-kiritish klapani;
7-forsunka; 8-chiqarish klapani; 9-yongan gazni chiqarish yo'lagi

IV. Chiqarish jarayoni – porshen yuqoriga xarakatlanganda chiqarish klapani ochiladi va yonishdan hosil bo‘lgan gazlar tashqariga chiqariladi.

Dvigateli to‘xtovsiz bir maromda ishlashini ta’minlash uchun u o‘zaro nihoyatda yuqori aniqlikda ishlaydigan 2 ta mexanizm va 5 ta tizim bilan ta’minlangan.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, dvigatelning vazifasi, tuzilishi (2-4-rasmlar) va ishlash jarayoni hamda turlari ko‘rsatiladi.

Nazorat savollari

1. Ichki yonuv dvigateli deb nimaga aytildi va qanday turlarini bilasiz?
2. To‘rt taktli dvigatel deb nimaga aytildi va sanab bering?

2-Amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Traktor va avtomobilarning elektr jixozlari

1.Ishning maqsadi: Elektr jihozlarning vazifasi tarkibiy qismlari ishlashi va sozlamalarni o‘rganish.

2. Kerakli jihozlar: Elektr jihozlarini, akkumlator, generator, rele-regulator va elektr startyor asboblarini o‘rganish, o‘quv filmlari va adabiyotlar.

3. Ishni tashkil etish tartibi:

Traktor va avtomobilarning elektr jixozlari vositasida silindrлardagi ish aralashmasi yondiriladi, dvigatelni yurgizib yuborishda tirsakli vali aylantiriladi, yo‘l va ish qurollari yoritiladi, signal berish va nazorat qilish asboblari ham elektr toki yordamida ishlaydi.

Elektr jixozlariga tok manbalari, tok iste’molchilar hamda ularni bir-biriga birlashtiruvchi har xil simlar, saqlagichlar va nazorat asboblari kiradi.

Barcha avtomobillarda va ko‘pchilik traktorlarda tok manbai sifatida akkumlatorlar batareyasi va o‘zgarmas tok generatori qo‘llaniladi. Bazi traktorlarda tok manbai sifatida magneto va o‘zgaruvchan tok generatori o‘rnataladi.

Elektr jihozlar tizimida bir simli tizim qo‘llanilib, mashinalarning metal qismi – “massa” ikkinchi sim vazifasini o‘taydi. Tok manbalari va iste’molchilarning manfiy simlari massaga ulangan.

Elektrotexnika qoidalariga muvofiq, tok iste’molchilarga simdan borib, manbaga massadan qaytadi deb shartli qabul qilingan.

Traktor va avtomobilning to‘la quvvat berishi, tejamli ishlaydi, yurgizib yuborish va ishlatish uchun qulayligi elektr jixozlar tizimining bekam-u ko‘st ishlashiga ko‘p darajada bog‘liq.

Akkumulatorlar batareyasi -akkumulator batareyasi motorni yurgizib yuborishda startyorni va dvigatel ishlagagan vaqtida hamda u kichiq aylanishlarda ishlaganda barcha iste’molchilarni tok bilan ta’minlaydi. Iste’molchilar tok bilan ta’minlab zaryadsizlanganda kimyoviy energiya elektr energiyasiga aylanadi.

Generator - generator mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirib elektr toki ishlab chiqaradi. Generator tirsakli valdan tasma yoki shesterna orqali harakatga keltiriladi.


O‘zgarmas tok generatori elektr magnitning maydonida yakorning aylanishi natijasida, o‘zgaruvchan tok generatori esa, statoring qo‘zg‘almas chulG‘amiga nisbatan doimiy magnitning aylanishi natijasida hosil bo‘ladigan elektr magnit induksiyasi hodisasi asosida tok ishlab chiqaradi.

O‘zgaruvchan tok generatori akkumulatorlar batareyasi o‘rnatilmagan traktorlarda yoritish tizimini tok bilan ta’minlaydi.

O‘zgarmas tok generatori dvigatel stator bilan yurgizib yuboriladigan traktor va avtomobilarga o‘zgarmas tok generatori o‘rnataladi. Bu generator dvigatelning o‘rta va katta aylanish tezliklarida barcha iste’molchilarni tok bilan ta’minlaydi va akkumulatorlar batareyasini zaryadlaydi.

Elektr startyor barcha avtomobillar, ba’zi traktorlar va ko‘pchilik o‘ziyurar qishloq xo‘jalik mashinalarning dvigatelinii yurgizib yuborishda, ularning tirsakli vali elektr startyor bilan aylantiradi.

Elektr startyor akkumulyatorlar batareyasidan tok olib ishlaydigan o‘zgarmas tok elektr motori, harakatlantirish va qo‘sish mexanizmidan iborat.



11-rasm. Elektr jixozlari akkumulyator, generator va startyor.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, elektr jixozlarining vazifasi, tuzilishi (11-rasmlar) va ishslash jarayoni hamda turlari ko‘rsatiladi.

Nazorat savollari:

1. Traktor va avtomobilarda elektr jixozlaridan qanday maqsadlarda foydalaniadi?
2. Generatorning vazifasi va ishslash prinsipi?
3. Akkumulyator batareyasi vazifasi va tuzilishi?

3-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Avtotraktorlarning kuch uzatish qismi

1.Ishning maqsadi: Traktor tranmissiyasining vazifasi, tuzilishi va ishlash jarayoni bilan tanishish.

2.Kerakli jihozlar: Traktor yoki uning maketi, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari, adabiyotlar.

3.Ishni bajarish tartibi:

Трактор трансмиссиясининг вазифаси двигателнинг тирсакли валида ҳосил қилинган буровчи моментни тракторни етакчи ғилдиракларига (юлдузчаларига) ўзгартириб етказиб бериш учун хизмат килади.

Zamonaviy traktorlarning transmissiyalari quyidagicha tasniflanadi:

A) Uzatish sonini o‘zgartirish usuli bo‘yicha poG‘onali, poG‘onasiz va kombinatsiyalashgan turlarga bo‘linadi.

PoG‘onali transmissiyalar belgilangan uzatish sonlari intervaliga ega bo‘lib, ushbu cheklangan chegarada agregatning ishlashi nisbatan samarador va tejamkor bo‘ladi. Bunday turdagি transmissiyalar asosan mexanik transmissiya bo‘lib, bunda burovchi momentni o‘zgartirish shesternyali reduktorlarda tishli juftliklar orqali xaydovchi tomonidan o‘zgartiriladi.

PoG‘onasiz transmissiyalar berilgan uzatish soni intervalida istagan kiymatni olishga imkon beradi, buning natijasida mashina-traktor aggregatining (MTA) ishlatish ko‘rsatgichlari hamma vakt tejamkor va yuqori unumli bo‘ladi.


Kombinatsiyalangan transmissiyalar cheklangan uzatma intervalida uzatish sonlarini poG‘onasiz o‘zgartirishga imkon beradi.

B) Burovchi momentni o‘zgartirish usuli bo‘yicha transmissiyalar mexanik, gidravlik, elektrik va kombinatsiyalashgan bo‘lishi mumkin.

Ushbu xususiyat bo‘yicha poG‘onasiz transmissiyalar mexanik (friksion, pona tasmali), gidravlik (gidrodinamik va hidroxajmli), elektromexanik turlarga bo‘linadi.

G‘ildirakli va zanjirli traktorlar transmissiyasining umumiyo‘ ko‘rinishi 1.4-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, G‘ildirakli traktorlarda (1.4a-rasm) uning asosiy qismlariga quyidagilar: ilashish muftasi 2, uzatmalar qutisi 3 hamda bosh uzatma 4, o‘ng va chap oxirgi uzatmalardan 5 iborat orqa ko‘prik kiradi.

Zanjirli traktorlarda (1.4 b-rasm) esa ilashish muftasi 2, uzatmalar qutisi 3 hamda bosh uzatma 4, burilish mexanizmlari 5 va oxirgi uzatmalardan 6 iborat orqa ko‘prikdan tuzilgan.



1.4-rasm. G'ildirakli (a) va zanjirli (b) traktorlarning transmissiyalarini tuzilishi:

- a) 1- dvigatel; 2-ilashish muftasi; 3-uzatmalar qutisi; 4-bosh uzatma; 5-oxirgi uzatma; 6-etaklovchi G'ildiraklar; 7-diffrensial; 8-orqa quvvat olish vali; 9- yon quvvat olish vali. b) 1- dvigatel; 2-ilashish muftasi; 3-uzatmalar qutisi; 4- bosh uzatma; 5-burilish mexanizmlari; 6-oxirgi uzatma; 7-etaklovchi yulduzchalar; 8-orqa quvvat olish vali.

Ilashish muftasi - traktor dvigateli bilan uzatmalar qutisi orasida joylashgan bo‘lib, odatda dvigatel maxovigiga o‘rnataladi. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan traktorlarda asosan friksion ilashish muftalari qo‘llaniladi.

Ilashish muftasi quyidagi vazifalarni bajaradi. Mashina traktor agregatni ishlayotganda dvigatelning tirsakli valida hosil qilingan burovchi momentni transmissiya valiga ishonchli uzatilishini ta’minlaydi hamda yuklanishlar keskin oshib ketganda transmissiya detallarini shikastlanishdan saqlaydi. SHu bilan birga ehtiyoj bo‘lganda dvigatelning tirsakli valini transmissiya validan ajratish yoki ularni bir-biriga ravon qo‘sishni ta’minlaydi.

Ilashish muftalari asosan kuyidagicha tafsiflanadi:

1. Burovchi momentni uzatish usuliga qarab - friksion (ishqalanish kuchi), gidravlik (ishchi suyuqlikni dinamik yoki satatik bosimi) va elektromagnit (magnit maydoni kuchi) turlarga bo‘linadi.
2. Ishqalanish yuzalarni shakliga qarab – diskli, konussimon o‘qli va tasmali.
3. Etaklanuvchi disklar soni qarab - bir, ikki va ko‘p diskli.
4. Boshkarish mexanizmining konstruksiyasiga qarab - doimiy qo‘shilgan, hamma vakt qo‘silmagan
5. Ilashish muftasi detallari orqali uzatilayotgan quvvat kuchi okimlari soni bo‘yicha - kuvvatni bir okimli, ya’ni dvigateldan kelayotgan barcha kuvvat transmissiyaga uzatiladi hamda ikki okimli - dvigateldan keltirilayotgan kuvvatni bir

kismi transmissiyaga, kolgan kismi esa kuvvat olish vali yuritmasiga uzatiladigan turlarga bo‘linadi.

Traktorlarda asosan bir yoki ikki diskli, friksion, doimiy qo‘shilgan, ikki oqimli ilashish muftalari qo‘llaniladi

Uzatmalar qutisi transmissiyaning umumiy uzatmalar sonini o‘zgartirishga imkon beradigan agregat hisoblanib, u odatda traktorlarda tishlashish muftasi va markaziy uzatmalar orasida joylashadi.

Uzatmalar qutisining vazifasi uzatmalar sonini o‘zgartirish hisobiga traktorning tezligini o‘zgartirish, oldinga yoki orka tomonga yurishini ta’minalash hamda uni harakatga keltirish va to‘xtatishdan iborat.

Uzatmalar qutisi uzatish sonini o‘zgartirish usuli qarab poG‘onali, poG‘onasiz va kombinatsiyalangan ko‘rinishda bo‘ladi.

PoG‘onali. Berilgan uzatish soni diapozonida belgilangan, o‘zgarmas songa ega bo‘lib, bu sonlar o‘zaro bir uzatmada mashina-traktor aggregatini unumli va tejamkor ishslashini ta’minalaydi.

PoG‘onasiz. Belgilangan diapozonda istalgan kerakli uzatish sonini hosil kilib beradi, bu esa mashina traktor parkini eng kulay rejimda ishslashini ta’minalaydi.

Kombinatsiyalangan. Odatdagi pogonasiz uzatma qutisi diapozoni kam bo‘lib, uzatish sonini zarur kiymatlarga avtomatik ravishda o‘zgartira olmasa, shundagina bu usul qo‘llaniladi. Bu hollarda ikkita uzatmalar qutilari kombinatsiyasi o‘rnataladi.

Burovchi momentni o‘zgartirish usuli bo‘yicha poG‘onasiz uzatmalar qutisi mexanik, gidravlik, elektr va kombinatsiyalangan turlarga bo‘linadi. PoG‘onali uzatmalar qutilarida ushbu ko‘rsatkich fakat mexanik ravishda bajarilib, burovchi momentni o‘zgartirish chegaralangan va imkoniyati kam bo‘lgan tishli gildiraklar (shesternyalar) juftlari soni bilan o‘zgartiriladi.

Boshkarish usuli buyicha qo‘l bilan boshqariladigan, yarim avtomatik va avtomatik ravishda boshkariladigan turlarga bo‘linadi.

Traktor etakchi ko‘prigining vazifasi uzatmalar qutisi validan berilayotgan burovchi momentning xarakat yo‘nalishini 90 gradusga burjan holda etakchi G‘ildiraklarga etkazib berishdan iborat.

Etakchi ko‘priklarning asosiy mexanizmlariga kuyidagilar: bosh uzatma, differensial, tormozlar, oxirgi uzatmalar (G‘ildirakli traktorlarda) yoki burish mexanizmi (zanjirli traktorlarda) kiradi.

SHu bilan bir katorda G‘ildirakli traktorlarda oldi, orqa yoki ikkala ko‘prigi ham etakchi bo‘lishi mumkin.

Zanjirli traktorlarda asosan orqa ko‘prigi, tez yurar zanjirli traktorlarda esa aksincha oldingi ko‘prigi etakchi bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda traktorning orqa ko‘prigi G‘ildiraklar tomonidan tushadigan asosiy yuklamani va ko‘prik ichidagi tishli G‘ildiraklar tishlashishidan hosil bo‘ladigan kuchlanishlarni o‘ziga oladigan qism xisoblanadi. SHu sababli orqa ko‘prikka qo‘yiladigan asosiy talablardan biri korpus detallarining mustahkamligidir. Bunday talab traktorlarning oldingi etakchi G‘ildiraklariga ham tegishli xisoblanadi.

Bosh uzatma - uzatmalar qutisidan uzatilgan burovchi momentning xarakat yo‘nalishini 90 gradusga burib berish uchun xizmat qiladi.

Bosh uzatmalar tishli uzatmaning shakli bo‘yicha konussimon, silindrsimon, chuvalchangsimonturlarga bo‘linadi.

Konusli bosh uzatmalar eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, tishning ko‘rinishi to‘g‘ri, tangensial, spiralsimon (ko‘pchilik hollarda aylanasimon) bo‘lishi mumkin. Zamonaviy traktorlarda aylanasimon tishli konusli bosh uzatmalar keng tarqalgan.

Differensialning vazifasiberilgan burovchi momentni chiqish vallariga taqsimlash va ularni har xil tezlikda aylanishiga imkon berishdan iborat. Konstruksiyasi bo‘yicha shesternyali, kulachokli, chuvalchangsimon erkin yurish mexanizmlı differensialarga bo‘linadi. **Oxirgi uzatmalar** bosh uzatmadan traktorning etakchi gildiraklariga uzatiladigan burovchi momentni oshirish uchun xizmat qiladi.

Oxirgi uzatma muttasil tishlashgan silindrik shesternyali shesternyasimon reduktordan iborat bo‘lib, shesternya vallarining o‘qlari qo‘zg‘almas va qo‘zG‘aluvchan (planetar uzatmalar) ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Planetar oxirgi uzatmalar ixchamligi va mustaxkamligi bilan boshqa turdagilardan farq kiladi.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: Ishning maqsadi; kerakli jihozlar; traktor transmissiyasining vazifasi, turlari, tuzilishi (1.4-rasm chiziladi) va ularning ishslash jarayoni ko‘rsatiladi.

Nazorat savollari

1. Traktor transmissiyasining vazifasini ayting.
2. Uzatish sonini o‘zgartirish usuli bo‘yicha transmissiyalar qanday turlarga bo‘linadi?
3. Ilashish muftasining vazifasi nimadan iborat?
4. Ilashish muftasi burovchi momentni uzatish usuliga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
5. Traktorning uzatmalar qutisi qanday vazifani bajaradi.
6. Uzatmalar qutisida xarakat qanday usulda uzatilganda uing foydali ish koeffitsienti eng yuqori bo‘ladi.
7. Traktor etakchi ko‘prigining vazifasi va uning asosiy qismlari nimalardan iborat.
8. Bosh uzatmaning vazifasini ayting.

4-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Traktor va avtomobillarning yurish qismlari, boshqarish mexanizmlari va yordamchi ish jihozlari

1.Ishning maqsadi: Traktor yurish qismlarini tuproqqako‘rsatadigan salbiy ta’sirlarini va tuproqning zichlanishini kamaytirish yo‘llarini o‘rganish.


2.Kerakli jihozlar: Ko‘rgazmali quollar, o‘quv filmlari, adabiyotlar.

3.Ishni bajarish tartibi:

Traktor yurish qismi o‘zining oG‘irligini va ortilgan yuk, ya’ni o‘rnatilgan mashina yoki quroqning og‘irliklarini erga uzatadi hamda uning ilgarilanma xarakatini ta’minlaydi.

Qishloq xo‘jaligidagi qo‘llaniladigan traktorlarning yurish qismi asosan g‘ildirakli va zanjirli (lentali) turlarga bo‘linadi.

G‘ildirakli traktorlarning yurish qismi g‘ildiraklardan (**12-rasm**) iborat bo‘lib, u gupchaq 6, disk 5 va to‘G‘in 3 dan iborat. gubchak 6 shpilka va gaykalar bilan yarim o‘qqa 7 mahkamlanadi. To‘G‘in 3 ga pnevmatik shina o‘rnatilib, u pokrishka 1, kamera 2, ventil 4 to‘g‘in lentasidan iborat. g‘ildirak to‘g‘ini traktorlarda botiq (chuqur) ko‘rinishda bo‘ladi.




12-rasm. G‘ildirakli traktorning etakchi g‘ildiragi:

1- pokrishka; 2- kamera; 3- to ‘G‘in;
4-ventil; 5- disk; 6-gubchak;
7- yarim o‘q

Traktorlar uch G‘ildirakli yoki to‘rt g‘ildirakli bo‘lishi mumkin. Uch g‘ildirakli traktorlar kalta burila oladi, bu esa qayrilish uchun ensizroq joy qoldirishga imkon beradi, to‘rt g‘ildirakli traktorning burilish radiusi katta bo‘ladi.

Traktorning oldingi va ketindi g‘ildiraklari etakchi bo‘lsa, uning er bilan tishlashishi yaxshilanadi va yumshoq erda kamroq sirpanadi.

O‘rmalovchi zanjirli traktorning yurish qismi(13-rasm) asosan, ikkala tomoniga joylashtirilgan ikkita o‘rmalovchi zanjirli yuritgich va ularning osmalaridan iborat. Har bir yuritgich etakchi yulduzcha 8, taranglovchi g‘ildirak 1, tayanch g‘ildiraklar 7, tutqich rolik 5 lar va ularning barchasini o‘rab turadigan o‘rmalovchi zanjir 3 dan iborat. Taranglovchi g‘ildirakning taranglovchi va amortizatsiya qiluvchi moslamasi 2 bor.



13-rasm. O'rmalovchi zanjirli traktoring yurish qismi:


- 1-taranglovchi G'ildirak;
- 2- taranglash moslamasi;
- 3- o'rmalovchi zanjir;
- 4-traktor ramasi;
- 5- tutqichrolik; 6-karetka; 7-tayanch G'ildirak; 8-etakchi yulduzcha.

Etakchi yulduzcha dvigateldan kuch uzatish mexanizmlari orqali xarakatga kelib aylanganda, uning tishlari o'rmalovchi zanjirining bo'G'imlariga yoki tishlariga birin ketin ilinib, o'rmalovchi zanjirni aylanishga majbur etadi va u o'z navbatida traktorni ilgarilanma xarakatga keltiradi.

Traktor ramasi 4 tayanch G'ildiraklar 7 orqali o'rmalovchi zanjirning ichki sirtidagi izga tayanadi. Demak o'rmalovchi zanjirli traktor er ustida yurmasdan, balki metal iz-yo'1 ustida xarakat qilinganligi sababli o'zining yurishiga kam quvvat sarf etadi. O'rmalovchi zanjirning erga tayanib turadigan yuzasining satxi katta bo'lganligi uchun traktor oG'ir bo'lishiga qaramay, uning erga tushadigan solishtirma oG'irligi G'ildirakli traktorlarnikidan kam bo'ladi.

Ma'lumki, fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarini kengayishi natijasida ular tomonidan yuqori unumli G'ildirakli traktorlar, oG'irtexnikalar va kombaynlar sotib olinmoqda va ulardan foydalanish darajasi ortib bormoqda. Bu holat tuproqning zichlanish darajasini keskin oshishiga olib keladi.


Tuproqda namlik darajasi me'yordan ortiq bo'lsa (14-rasm), shinalar tuproq bilan etarlicha ilashmaydi va G'ildiraklar shataksiraydi.



14-rasm. Traktor G'ildiragining quriq (a) vanam (b) tuproqlarni zichlash diagrammasi

Shataksirash natijasida shina protektorlari tuproqning yuza qismini kesib oladi, G'ildiraklar tagida yo'lakcha hosil bo'ladi va tuproq zichlanadi. Agar shinalar edirilgan bo'lsa G'ildirak joyida aylanadi, tuproq qatlamlarini zichlanishi tezlashadi.

Erlarni kuzgi shudgorlashda tuproqning namlik darajasi, shina protektorlarining holati vashinalardagi havo bosimiga (15-rasm) e'tibor qaratish kerak.




15-rasm. Traktor G'ildiragi shinalaridagi havo bosimining tuproq zichlanishiga ta'siri

Tuproqning zichlanishini kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalarni qo'llash yuqori natijalar berishi mumkin:

1. Ekishdan oldin tuproqqa ishlov berish ishlarini to'liq zanjirli traktorlar yordamida bajarilishini ta'minlash;
2. Haydalgan erlarga ishlov berishda iloji boricha G'ildirakli traktorlarga qo'shimcha juft G'ildiraklar o'rnatish hamda nisbatan engil traktorlardan foydalanish yoki shinadagi havo bosimini kamaytirish.
3. G'ildirakli traktorning ketingi g'ildiraklari orqasiga maxsus IYU-2 rusumli iz yumshatgichlar o'rnatish va izlarni doimo yumshatib turish;
4. Haydov chuqurligini o'zgartirib turilishini (bir yil chuqurroq, ikkinchi yili sayozroq) qattiq nazorat ostiga olish;
5. Tuproqni doimiy ravishda chuqur yumshatish. Bu tadbirni 2-3 yilda bir marotaba, dala chetlarini esa har yili chuqur yumshatgichlar bilan 45-50 sm chuqurlikda yumshatib turish;
6. Erni obi-tobida haydash. Ekinlardan bo'shagan maydonlarni shudgorlashdan oldin tuproq qatlqidagi namlik darajasi 16-18 foiz atrofida bo'lishi lozim.

Rul boshqarmasi va tormozlar traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlari deb ataladi. Rul boshqarmasi harakat yo'naliшини o'zgartiradi. Haydovchining ozmi-ko'pmi charchashi, mashinaning xavfsiz ishlashi, shinalarning yeyilishi rul boshqarmasining tuzilishiga va bekam-u ko'stligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Rul boshqarmasi (16-rasm) rul mexanizmi va rul yuritmasidan iborat. Rul chambaragi (1), rul kolonkasi (2), rul vali (3), chervyak (19) va rolik (18) dan iborat *rul mexanizmi* rul chambaragining harakatini soshka (richag) vali (17) ga uzatadi. Chervyak va tishli sektor, chervyak va chervyak shesternali rul mexanizmi ham bo'ladi.




16-rasm. Rul boshqarmasining sxemasi:

1 – rul chambaragi; 2 – rul kolonkasi; 3 – rul vali; 4 va 13 – rul richagi; 5 va 12 – boshqariluvchi G‘ildirak; 6 va 11 – sapfa; 7 va 10 – shkvoren; 8 – burish richagi; 9 – oldingi o‘q; 14 – ko‘ndalang tortqi; 15 – bo‘ylama tortqi; 16 – rul soshkasi; 17 – soshka vali; 18 – rolik; 19 – chervyak

Rul yuritmasi rul mexanizmining harakatini boshqariluvchi G‘ildiraklar (5, 12) o‘rnatilgan oldingi ko‘prikka uzatadi. Rul yuritmasi rul soshkasi (16), bo‘ylama tortqi (15), burish richagi (8) va rul trapetsiyasidan iborat. *Rul trapetsiyasi* buriladigan tomondagi (ichki) G‘ildirakning ko‘proq, tashqi G‘ildirakning esa, kamroq burilishini ta’minlaydigan sharnir vositasida biriktirilgan to‘rt zvenoli mexanizmdir. Bu mexanizm oldingi o‘q (9) ko‘ndalang tortqi (14) va rul richaglari (4, 13) dan tuzilgan. Oldingi o‘qning uchlariga shkvorenlar (7, 10) vositasida burilish sapfalari (6, 11) biriktirilib, ular ko‘ndalang tortqi va rul richaglari orqali bir-biriga bog‘langan.

Traktor yoki avtomobil burilganda barcha G‘ildiraklari sirpanmay G‘ildirashi shart, aks holda oG‘ir buriladi va shinalar tez yeyiladi. G‘ildiraklarning sirpanmasdan burilishini ta’minlash uchun barcha G‘ildiraklar *burilish markazi* deb ataladigan O nuqta atrofida R – radiusi bilan burilishi lozim (17-rasm). Yuqorida aytilgandek, oldingi G‘ildiraklarning turli (α_1 va α_2) burchakka burilishlarini – rul trapetsiyasi, ketingi G‘ildiraklarning turli tezlikda aylanishlarini differentsial ta’minlaydi.



17-rasm. To‘rt (a) va uch (b) G‘ildirakli traktorning burilish sxemasi

Boshqariluvchisi G‘ildiraklarni qaysi tomoniga burish lozim bo‘lsa, rul chambaragi o‘sha tomoniga buriladi (16-rasm). Harakat rul vali, rul mexanizmi, rul soshkasi, bo‘ylama tortqi orqali burchakli richagga va unga bog‘langan chap sapfa (6) ga uzatiladi. Ko‘ndalang tortqi harakatni chap sapfadan o‘ng sapfa (1) ga o‘tkazib, mashinaning burilishi ta’minlanadi.

Rulning yengil buralishi uchun chambarak bilan burilish sapfasi orasida uzatma son oshiriladi va ba’zi traktor va avtomobillar rul mexanizmida gidravlik ba’zan pnevmatik kuchaytirgichlar o‘rnatiladi.


Gidravlik kuchaytirgich rul chambaragini burashni 5–6 baravar yengillashtiradi va tezroq burilishni ta’minlaydi hamda boshqariluvchi G‘ildiraklarga duch keladigan

turtkilarni so‘ndiradi. Gidravlik kuchaytirgich moy nasosi hosil qiladigan moy bosimi kuchi bilan yengillik tuG‘diradi. Uning moy nasosi va moy baki ko‘pincha traktorlarning alohida agregatli gidrotizimi bilan umumiy qilinadi.

Gidravlik kuchaytirgich (18-rasm) moy baki (10), shesternali nasos (8), zolotnik (4) li taqsimlagich (3) va kuch silindri (1) dan iborat. Moy nasosi traktor motoridan harakatga keltiriladi. Taqsimlagich rul mexanizmi chervyagi (11) ning valiga o‘rnatalib, ikkala tomonida siqilgan holda o‘rnatalgan prujinasi (5) bor. Kuch silindri porsheni (2) ning shtogi (16) reyka va sektor (13) orqali rul trapetsiyasiga biriktirilgan.

Boshqariluvchi G‘ildiraklarning o‘rnatalishi. G‘ildiraklar burilgandan so‘ng to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qiladigan holatga tezda qayta olishi, ya’ni G‘ildiraklarning turG‘unligini oshirish (stabillashtirish) va yengil boshqarilishi uchun shkvorenlar ko‘ndalangiga (orqa tomonga) va uzunasiga (ichki tomonga) qiyaroq qilib o‘rnataladi (18-rasm, a, b).

Ko‘ndalang qiyaligi β burchagi 6–8°, uzunasiga qiyaligi α burchagi 0–8° gacha qilinadi. Bu burchaklarning ortiq bo‘lishi avtomobilarning va traktorlarning katta tezliklarda turG‘unligini oshiradi, ammo boshqarilishi oG‘irlashadi.




18-rasm. Boshqariluvchi G‘ildiraklarning o‘rnatalishi:

a – G‘ildirakning oG‘ishi; b – shkvorenning uzunasiga qiya o‘rnatalishi;

d – G‘ildiraklarning yaqinlashuvi

Avtomobil va traktorni burishni yengillashtirish, G‘ildirak gupchaklaridagi podshipniklarga zo‘r kelmasligi uchun oldingi G‘ildiraklar tik o‘rnatilmasdan 2° gacha qiyaroq (α burchagi) o‘rnatalib, bu G‘ildiraklarning oG‘ishi deyiladi. G‘ildiraklarning oG‘ishi, shkvorenlarning ko‘ndalang va uzunasiga qiyaligi rostlanmaydi.

G‘ildiraklar oG‘ib turganligi, shkvoren, tortqi va podshipniklarda tirkish bo‘lganligi sababli ular to‘g‘ri (parallel) turishi va kerilib sirpanmasligi uchun G‘ildiraklar o‘rtasidagi oraliq (18-rasm, d) old tomonda (B) torroq, orqa tomonda (A) kengroq bo‘ladi. Bu oraliqlap ayirmasi 2–12 mm qilinib, G‘ildiraklarning yaqinlashuvi deyiladi. G‘ildiraklarning yaqinlashuvi rul ko‘ndalang tortqisining uzunligini o‘zgartirib rostlanadi.




19-rasm. Uch G'ildirakli traktorning oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi:

1 – rul chambaragi; 2 – rul stoykasi; 3 – rul vali; 4 – burish vali; 5 – rul kolonkasi; 6 – oldingi brus; 7 – G'ildirak vilkasi; 8 – G'ildirak o'qi; 9 – oldingi G'ildirak; 10 – vint; 11 – gayka; 12 – stakan; 13 – chervyak G'ildirak (sektor); 14 – chervyak

Rul boshqarmasining tuzilishini uch va to'rt G'ildirakli traktor hamda yuk avtomobili misolida ko'rib o'tamiz.

Uch G'ildirakli traktorining oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi (19- rasm).

Rul boshqarmasi oldingi G'ildirakning harakat yo'nalishini o'zgartiradi. Rul mexanizmi rul vali (3) ga o'rnatilgan ikki yo'lli chervyak (14) va burish vali (4) ga o'rnatilgan qiya tishli chervyak G'ildirak (sektor) (13) dan iborat. Rul vali burchak hosil qiladigan ikki qismidan iborat bo'lib, ular o'zaro kardan vositasida biriktirilgan. Rul chambaragi (1), rul stoykasi (2) ning ichidan o'tkazilgan valga o'rnatilgan. Burish valining uchiga G'ildirak vilkasi (7) mahkamlanib, vilkaga G'ildirak o'qi (8) o'rnatilgan. Oldingi G'ildirak (9) o'qdagi ikkita rolikli podshipnikda aylanadi. Rul mexanizmi yarim ramaning oldingi brusi (6) ga mahkamlangan rul kolonkasi (5) ning yuqori qismiga o'rnatilgan. Chervyak ikkita konus rolikli podshipnikda aylanadi. Bu podshipniklarning ichki halqasi yo'q, sirtqi halqasi stakan (12) ichida turadi. Stakan rostlash gaykasi (11) orqali burilib, chervyak bilan sektor tishlarining orasidagi tirqish rostlanadi. Konus podshipniklar tirqishi gayka (11) ga burab kirgizilgan vint (10) bilan rostlanadi. Vintning uchi stakan (12) ichiga joylashtirilgan shaybaga tiraladi.



20-rasm. To‘rt G‘ildirakli traktorning oldingi ko‘prigi va rul boshqarmasi:

1 – rul vali; 2 – uchlik; 3 – shlitsali vtulka; 4 – gidravlik kuchaytirgich korpusi; 5 – vertikal val; 6 – oldingi o‘q; 7 – barmoq; 8 – quvur; 9 – prujina; 10 – shkvoren; 11 – burish sapfasi; 12 – G‘ildirak gupchagi; 13 – burish richagi; 14 – ko‘ndalang tortqi; 15 – rul richagi; 16 – kardan sharnir; 17 – rul chambaragi

Traktor va avtomobilarning tormozi

Tormoz mashinaning harakat tezligini sekinlashtiradi, to‘xtatadi va to‘xtatilgan holatda saqlab turadi hamda keskin burishga imkon beradi (traktorlarda). Traktorni to‘xtatilgan holatda qo‘zG‘atmasdan turG‘izish undan statsionar ishda foydalanish uchun ham zarur.


Traktorlarda kuch uzatish qismi mexanizmlari (oxirgi uzatma va boshqarish mexanizmlarining vali, shkivi va barabanlari) tormozlanadi. Avtomobillarda, asosan, yetakchi va boshqariluvchi G‘ildiraklar, yuk avtomobillarida esa qo‘srimcha ravishda transmissiya mexanizmi (kardan val) ham tormozlanadi.

Traktor va avtomobilning tormozlash tizimi tormoz mexanizmi va tormoz yuritmasidan iborat.

Tasmali, diskli va kolodkali tormoz mexanizmlari bo‘ladi. Tasmali tormoz, asosan, traktorlarda, diskli tormoz traktor va avtomobilarning ba’zilarida, kolodkali tormozlar esa, deyarli barcha avtomobillarda va ba’zi traktorlarda qo‘llaniladi.

Tormozni harakatga keltirish uchun mexanik, gidravlik va pnevmatik yuritmalar qo‘llaniladi. Barcha traktorlarning tormozlari va avtomobilarning qo‘l tormozi mexanik yuritmali bo‘ladi. Gidravlik yuritma yengil avtomobillarda va yuk avtomobillarida, pnevmatik yuritma ba’zi yuk avtomobillarida qo‘llaniladi. Tormoz yuritmalarining gidravlik-vakuum kuchaytirgichlari gidravlik yuritmalarini yana ham takomillashtirishga imkon beradi, ular keyingi vaqlarda kengroq qo‘llanila boshlandi.

Tasmali tormoz (21-rasm) valda aylanuvchi shkiv (5) ni o‘rab turadigan tasma (6), bo‘shatuvchi prujina (3) va harakatga keltiradigan tepki (1) dan iborat. Ishqalanish kuchini oshirish uchun tasmaning shkivga tegadigan sirtiga friksion qoplama mahkamlangan. Oddiy va erkin tasmali tormozlar bo‘ladi.



21- rasm. Tasmali tormozlar sxemasi:


a – oddiy tasmali; b – erkin tasmali; 1 – tepki; 2 – rostlash tortqisi; 3 – prujina; 4 – rostlash bolti; 5 – shkiv; 6 – tasma; 7 – uch yelkali richag

Oddiy tasmali tormoz (20.8-rasm, a) tasmasi (6) ning bir uchi barmoq va rostlovchi tortqi (2) vositasida karterga, ikkinchi uchi richag va tortqilar orqali tormoz tepki (1) ga biriktirilgan. Tepki bosilmaganda tasma prujina (3) bilan tortilib, shkivga tegmaydi va salqimasligi uchun rostlash bolti (4) ga tegib turadi. Tepki bosilganda tasma (6) tortilib, shkivga ishqalanadi va uni to‘xtatadi. Oddiy tormoz tasmasining bir uchi qo‘zG‘almaydi, shuning uchun shkiv bir tomonga (strelka bilan ko‘rsatilgan tomonga) aylanganda yaxshi tormozlanadi, teskari tomonga aylanganda (masalan, traktor orqaga yurganda) kuchli tormozlanmay, tepkini qattiqroq bosish kerak bo‘ladi.

Erkin tasmali tormoz (21-rasm, b) tasmasi (6) ning ikkala uchi uch yelkali richag (7) va tortqi orqali tormoz tepki (1) ga bog‘langanligi uchun ikkala uchi ham tortilishi mumkin. Shkiv (5) qaysi tomonga aylansa, tasma (6) ning o‘scha tomondagi uchi qo‘zG‘almaydi, shuning uchun ikkala tomonga aylanganda ham baravar kuch bilan tormozlanaveradi.

Tasma bilan shkiv orasidagi tirkish tormoz tepkining yurish yo‘liga qarab rostlanadi, buning uchun tasmaning bir uchida rostlash gaykasi bor.

Diskli tormoz (22-rasm) aylanuvchi valga o‘rnatilgan tormoz diskini va unga ishqalanib tormozlovchi harakatlanmaydigan disk yoki kolodkalardan iborat. Dasta bilan boshqariladigan bir diskli tormoz (20.9- rasm, a) quyidagicha tuzilgan. Transmissiya vali (5) ga mahkamlangan tormoz diskini (5) ning ikki yoniga friksion qoplamali kolodkalar (3) o‘rnatilgan. Dasta (1) tortilganda kolodkalar disk (5) ga siqilib uni tormozlaydi, bunda siqilgan holda o‘rnatilgan prujina (2) yana siqiladi. Dasta bo‘shatilishi bilan kolodkalar prujina kuchi ta’sirida kerilib, diskdan uzoqlashadi, transmissiya vali (4) tormozlanmaydi.



22-rasm. Diskli tormozlar sxemasi:

a – bir diskli; b – ikki diskli; 1 – dasta; 2 – prujina; 3 – kolodka;
 4 – transmissiya vali; 5 – tormoz diskisi; 6 – tepki; 7 va 10 – qoplamlami disk;
 8 va 9 – siquvchi disk; 11 – aylanuvchi val; 12 – sharik

4.Ish bo'yicha hisobotda: Ishning maqsadi;tuproqni zichlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar (13 va 15- rasmlar chiziladi) va tuproqning zichlanishini kamaytirish usullari keltiriladi.

Nazorat savollari:

- 1.Qanday hollarda tuproqning zichligi ortadi?
- 2.Tuproq zichlanishing salbiy oqibatlariga nimalar kiradi?
- 3.Tuproq zichligini kamaytirish uchun qo'llaniladigan tadbirlarni ayting?
- 4.Traktor va avtomobil rul boshqarmasining vazifasi, tuzilishi va qanday ishlashini tushuntirib bering.
5. Traktor va avtomobil qanday buriladi? Mashina burilganda nima uchun G'ildiraklari sirpanmaydi?
6. Rul mexanizmining gidravlik kuchaytirgichi qanday yengillik tuG'diradi, uning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
- 7.Boshqariladigan G'ildiraklar va burilish sapfalari qanday o'rnatiladi? Noto'g'ri o'rnatilsa, qanday qiyinchiliklar tuG'iladi?
8. Traktor va avtomobil tormozlari nima uchun kerak? Tormozlash mexanizmlari va tormoz yuritmalarining turlarini so'zlab bering.
9. Tasmali, diskli va kolodkali tormozlarning tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.

5-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Tuproqqa asosiy va yuza ishlov berish mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari

1. Ishning maqsadi: Tuproqqaga asosiy ishlov berish usullari va agrotexnik talablar, pluglarning vazifasi, tuzilishi va ularni ishga tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2. Kerakli jihozlar: Tirkama yoki osma plug, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.


3. Ishni bajarish tartibi:

Tuproqqa asosiy ishlov berishdan maqsad—unga ko‘proq suvni singib ketishini yaxshilash, o‘simlik ildizi rivojlanadigan qatlama ko‘plab suv to‘planishi va namlikni uzoq muddat saqlanishini ta’minalash hamda ildiz sistemasini kuchli rivojlanishi uchun sharoit yaratish, mineral va mahalliy o‘G’itlarni tuproqqa aralashtirish, bundan tashqari, begona o‘t qoldiqlari va zararkunandalarni yo‘qotishdan iborat.

Er haydash tuproqqa ishlov berishning asosiy usuli bo‘lib, bunda tuproq qatlami pluglar yordamida aG‘darib va aG‘darmasdan haydaladi.

Агротехник талаблар: ҳайдов чуқурлигининг белгилангандан четланиши, кўпи билан ± 2 см; ўсимлик қолдиқларининг кўмилиш чуқурлиги, камида: икки ярусли плуглар учун 20 см ва умумий ишлар плуглари учун 10 см; шудгорда ўлчами 50 мм дан кичик фракциялар миқдори, камида 75%; шудгор юзасидаги нотекисларнинг ўртacha

Plugning umumiy tuzilishi va ishlash jarayoni. Pluglar (26-rasm) quyidagi asosiy qismlardan rama1, chimqirqar 2, disksimon pichoq 3, asosiy korpus 4 dan iborat.



26-rasm. Plugning asosiy qismlari: a) orqadan ko‘rinishi; b) yon tarafidan ko‘rinishi; 1-rama; 2- chimqirqar; 3- diskali pichoq; 4-asosiy korpus; 5-aG‘dargich; 6-lemex; 7-dala taxtasi;

Asosiy korpus aG‘dargich 5, lemex 6 va dala taxtasi 4 dan tashkil topgan bo‘lib, tuproq qatlamini to‘liq aG‘darish uchun xizmat qiladi.

Plug korpuslarini turlari. Er xaydash sifati plug korpusining konstruksiyasi, uning geometrik shakli va ish yuzasining egat devori hamda uning tubiga nisbatan joylashishiga bog‘liq.

Konstruksiyasiga ko‘ra korpuslar aG‘dargichli, aG‘dargichsiz, kesik, tuproqni chukurlatuvchi, chiqarilgan iskanali, diskli, kombinatsiyalashgan ko‘rinishda bo‘ladi.

Plug korpusini tanlashda kuyidagi ko‘rsatkichlari: kamrash kengligi, xaydash chuqurligi, egat tubi va egat devoriga nisbatan lemexni o‘rnatish burchagi hamda ish sirtining (yuzasining) shakliga qarab aniqlanadi.

Dala taxtasi yordamida plugging korpusi ariqning tubi va devorchasiga tayannib xarakatlanadi.

Pichoq tuproqni kesish va unda uchragan o‘simliklar qoldiG‘i, ildizlari, qatlamlarni ajratish va tekis egat olish uchun xizmat qiladi. Pichoqlar diskli va qalamchasimon bo‘lib, ular chimqirqar lemexining oldiga o‘rnatiladi. Qalamchasimon pichoqlar o‘rmon buta-botqoqli va plantajli pluglarda ishlatiladi.

CHimkirkar o‘simlik qoldiqlariga boy bo‘lgan tuproqning yuqori qatlamni egat tubiga aG‘darib tashlash uchun xizmat qiladi. CHimqirqarning ishchi shakli plugging asosiy korpusiga o‘xshaydi, ammo undan kichikroq o‘lchamda bo‘ladi. Ramada chimqirqar plug korpusidan 30-35 sm oldinga o‘rnatiladi. Bundan maqsad - tuproqningq qatlami ularning orasidan oson o‘tkazishidadir. CHimqirqar qatlamning yuqorigi qismini 6-12 sm chuqurlikda kesadi va erni haydashda uni egatning tubiga tashlaydi.

Plugging ishlash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: plug oldinga xarakatlanganda, pichoq 3 tuproqni 10-12 sm chuqurlikda kesib ketadi. Unga izma-iz kelayotgan chimqarqar 2 tuproqning yuqori qatlamini 6-12 sm chuqurlikda va 15-20 sm kenglikda kesib oladi, uni maydalaydi va oldingi korpus oolib ketgan egatning ostiga tashlaydi.


So‘ngra asosiy korpus 4 ning lemexi 6 tuproq qatlamining asosiy qismini kesadi va aG‘dargich 5 ga ko‘tarib beradi, aG‘dargich uni maydalaydi hamda bir vaqtning o‘zida egatning tubiga chimqirqar tashlagan tuproqni ustidan yopadi.

Lemex va aG‘dargichning yuzasi yaxlit holda korpusning umumiy ishchi yuzasini tashkil etadi.

Pluglarni ishga tayyorlash va sozlash. Dalalarini sifatli hamda kam harajat sarflab xaydash uchun har bir bir plug tekis maydonchaga o‘rnatilib, ko‘rikdan o‘tkaziladi. Bunda uning barcha ish organlarining mavjudligi, lemexlar tiG‘larining o‘tkirlanganligi va maydoncha yuziga paralelligini, ularning uchi maydoncha yuzasiga birdek tegib turishi, korpuslarning balandliklari, ular orasidagi masofalar bir xilligi hamda dala taxtalarining harakat yo‘nalishiga paralelligi tekshirib ko‘riladi.

Ikki yarusli pluglarda (PYA-3-35, PD-4-45, PNYA-4+1-45) ularning yuqorigi yarus korpuslari pastki yarus korpuslariga nisbatan 45-55sm oldinga va plug ramasi bo‘ylama bruslarining chap tomoniga joylashtirilishi darkor.

CHimqirqarli pluglarda (PN-4-35, PLN-5-35, LD-100) chimqirqar asosiy korpusdan 20-25 sm oldinda turishi hamda uning xaydash chuqurligi 10-12 sm oraliqda bo‘lishi kerak. YUqoridagi ishlar bajarilgandan keyin haydash chuqurligi sozlanadi. Tirkama pluglarda (PYA-3-35) haydash chuqurligi ularning dala mexanizmi shturvalini aylantirib, o‘rnatma pluglarda esa tayanch G‘ildiragini 6 (2.5-rasm) balandlik bo‘yicha siljitim sozlanadi. Agar o‘rnatma pluglar ramasi bo‘ylama yo‘nalish bo‘yicha oldinga oG‘gan bo‘lsa, traktor o‘rnatish qurilmasi markaziy tortqisi 3 (27-rasm) uzaytiriladi, aks xolda- qisqartiriladi. Ramaning 4 ko‘ndalang yo‘nalishi bo‘yicha oG‘ishi traktoring o‘rnatish qurilmasi pastki tortqilar 1 kashaklarini 2 qisqartirish yoki uzaytirish yo‘li bilan sozlanadi.



27-rasm. Osma plug ramasining dala yuzasiga parallelligini sozlash:

1-pastki tortqich; 2-pastki tortqich kashagi; 3-markaziy tortqi; 4-plug ramasi; 5- korpus; 6-rostlash mexanizmi

Tirkama pluglarda ramaning oldinga oG‘ishi uning tortqisini pasaytirgichda pastga tushirib, orqaga oG‘ishi esa ko‘tarib to‘g‘rilanadi. Rama ko‘ndalang yo‘nalish bo‘yicha o‘ngga oG‘sa plug egat G‘ildiragini pastga tushirish, chapga oqqanda esa ko‘tarish kerak bo‘ladi.

Plug birinchi korpusining qamrov kengligi boshqa korpuslarga nisbatan ko‘p bo‘lsa, plug traktorga nisbatan chap tomonga, kam bo‘lganda esa o‘ng tomonga suriladi.

Tirmalash - tuproqning yuza qismiga tirmalar bilan ishlov berilib, bunda tuproqdagi namlikni buG‘lanib ketmasligi uchun uning yuzasida bir tekis yumshatilgan qatlam hosil qilishdan iborat. SHu bilan birga tirmalash jarayonida mayda notejisliklar va begona o‘tlar yo‘qotiladi.

Тирмалашга қуйиладиган агротехник талаблар: ишлов бериш чуқурлиги, 4-6 см; юмшатилган қатламдаги тупроқнинг уваланиш сифати: ўлчами 25 мм дан кичик фракциялар миқдори, камидা 80%; ўлчами 50 мм дан катта фракциялар миқдори, кўпи билан 5%; униб чиқаётган бегона ўтларнинг йўқотилиш даражаси, камидা 95%; тишлилар қолдирган изларнинг чуқурлиги, кўпи билан 5 см ташкил этиши керак.

Tirmalar tuproqning yuza qismini yumshatish, tekislash, qatqaloq va begona o‘tlarni yo‘qotish, kesaklarni maydalash, urug‘ va o‘G‘itlarni ko‘mish uchun qo‘llaniladi. Ular ishchi qismlarining shakliga qarab tishli va diskli turlarga bo‘linadi.


Tishli tirmalarning ishchi qismlari tishlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘ndalang kesim yuzasi to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, aylana, oval shaklida (28 a-rasm) yasalgan bo‘ladi. Uning konsruksiyasi ikki burchakli ponasimon (2.8 v –rasm) ko‘rinishda bo‘lgan holda, oldingi burchagi bilan tuproq qatlamini yorib qirqadi, yon burchaklari bilan suradi, aralashtiradi, katta o‘lchamli kesaklarni maydalaydi. Tirma tishlari erning yuza qismiga 10 sm chuqurlikgacha ishlov berish mumkin.

Tishli BZTS-1,0 oG‘ir va BZSS-1,0 engil tirmalarning plankalari 2 kesimi to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lib, ularga ustki tomondan ko‘ndalang plankalar 1 ko‘yilgan. Plankalarni kesishgan joyiga turli kesimdagi tishlar 3 mahkamlangan. Tishning ish qismi uchi bir tomonlama qiya qilib ishlangan (28 b-rasm).

SHo‘rlanmagan hamda yaxob suvi berilmaydigan dalalarni tirmalashda ikki qator qilib o‘rnatilgan BZSS-1.0 rusumli o‘rta oG‘irlilikdagi tirmalardan, yuvilgan va yaxob suvi berilgan dalalarni boronalashda esa BZTX-1,0 va BZTS-1,0 rusumli oG‘ir tirmalardan foydalanish yuqori ish sifatini ta’minlaydi.

Pushta yoki jo‘yak olingan dalalarni tirmalashda chopiq traktorlari bilan qo‘llanilishga tayyorlanishi, chunki bunda pushta va jo‘yaklar traktor G‘ildiraklari tomonidan ezilmaydi. Ular traktorlarga uch nuqtali sxema bo‘yicha osiladi.

Bunda agregat bir xil tipdagi tirmalardan tashkil topgan hamda ularning tishlari to‘g‘ri, o‘tkirlangan, birday uzunlikda hamda o‘tkirlangan uchi bilan oldinga (harakat yo‘nalishi bo‘yicha) qarab o‘rnatilgan bo‘lishi kerak (28 v-rasm).



28-rasm. Tishli tirmalarning tuzilishi: a) - tirma tishlari: kvadrat (A),


dumalok (B), to‘rtburchak (V) kesimli va panjali (G) tishlar; D – to‘rsimon tirma tishlari; b) – tishli tirmaning umumiyo‘ ko‘rinishi: 1va 2 – rama plankalari, 3-tishlar; v – tishning o‘rnatish sxemasi;

Diskli tirmalar engil (BDS-3) va (BDT-3) oG‘ir turlarga bo‘linadi. Engil diskli tirmalar bilan 10 sm chuqurlikkagacha xaydalgan erlarga va bog‘dorchilik ishlarida bog‘ qator oralariga ishlov berish uchun ishlatiladi. OG‘ir diskli tirmalar esa 20 sm chuqurlikkacha tuproqqa ishlov beradi.

Diskli BDT-3 o‘rnatma tirmasi (29-rasm) rama 3, o‘rnatma mexanizm 1 va ikki qatorga o‘rnatilgan diskli to‘rtta batareyadan 2 tashkil topgan. Disklar 6 tayanch vtulkalar 7 va podshipnikli uzellar 11 yordamida o‘q 5 ga o‘rnatilgan. Chala joylar kolmasligi

uchun ketingi qator diskleri oldingi qator disklerini oraligiga o'rnatiladi. Borona 2 m li kamrash kengligiga sozlashda yon bruslar 4 yakinlashtiriladi, ketingi chap batareyaga ettita, kolganlariga esa oltitadan disk joylashtiriladi.

Diskli tirmalarning ishchi qismi sferik shakldagi maxsus po'latdan yasalgan diametri 450 yoki 510 mm li disklardan iborat. Tirmalarga qirqma sferik disk o'rnatilgan bo'lsa, ular tuproqka yaxshi chuqurlashadi (botadi), o'simlik qoldiklarini yaxshi maydalaydi. Ammo diskli tirmalarni ko'p yillik begona o'tlar (ajriq, G'umay, qamish) bosgan maydonlarga ishlov berish mumkin emas, chunki bu holatda o'tlarning ildizlari qirqilishi natijasida bu maydonlarda begona o'tlar ko'payib ketishi mumkin.



29-rasm. Diskli tirmalarning tuzilishi: a - umumiy ko'rinishi; b – disklar batareyasi; 1-o'rnatish mexanizmi; 2-batareya; 3-rama; 4-yon brus; 5-o'k; 6-disk; 7-tirak vtulka; 8-kronshteyn; 9-shtir; 10-tozalagich; 11-podshipnik

Tirmalarni ishga tayyorlash. Tuproq ortiqcha zichlanmasligi hamda ish unumdarligi yuqori bo'lishi uchun tirmalash agregatlari zanjirli traktorlar va keng qamrovli tirkamalar asosida tuziladi.

Ish jarayonida tirmalarning hamma tishlari tuproqqa bir xil chuqurlikda botishi, har bir tish mustaqil iz qoldirishi va ular orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak.

SHo'ri yuvilgan va yaxob suvi berilgan maydonlarda oldin dalaning etilgan qismlari oralatib, so'ngra esa butun dala tirmalanadi. SHunda tuproqning mayin bo'lishi va butun dalani birday etilishi ta'minlanadi. Agar dastlabki tirmalashdan keyin yoqqan yomG'irlar qalin qatqaloq bo'lishiga olib kelsa, mazkur tadbir takrorlanadi.

Qaytish joylarida va daladan chiqib ketilayotganda agregat to'xtatilib, yig'ilib qolgan o'simlik qoldiqlari va begona o'tlardan tozalanishi hamda ular dala chetiga chiqarib tashlanishi darkor.

4. Ish bo'yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, er haydash texnologiyasi va agrotexnik talablar, plug va uning asosiy ishchi qismlarini vazifasi, tuzilishi (27-28 rasm) va ish jarayoni ko'rsatiladi.

Nazorat savollari:

1. Pluglar vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
2. Pluglar traktorga agregatlanishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
3. Osma plugni xaydash chuqurligi qanday o‘rnatiladi?
4. Plugning bo‘ylama va ko‘ngdalang notekisligi qanday rostlanadi?
5. Yer haydash ishlariga qo‘yiladigan agrotexnik talablarni ayting.
6. Nima uchun sho‘ri yuvilgan maydonlar oG‘ir tirmalar bilan tarmalash mohiyatini izohlang.
7. Tirma tishining to‘g‘ri o‘rnatish qoidasini tushuntiring.
8. Tirmalash jarayonining maqsadi nimadan iborat?
9. Turmalarining turlarini va ularning asosiy afzalliklarini ayting.

6-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘G‘itlash mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari

1.Ishning maqsadi: Tuproqqa mineral o‘G‘itlarni solish usullari va agrotexnik talablar, o‘g‘it sochgichlarning tuzilishi va ularni ishga tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2.Kerakli jihozlar: NRU-0,5 yoki 1-RMG-4A mineral o‘g‘it sochgich, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.


3.Ishni tashkil etish tartibi:

Ekinlarhosildorligini oshirish maqsadida tuproqqa turli xil o‘G‘itlar solinadi. Yerga solingan o‘G‘itlar samarasini oshirish uchun belgilangan muddatlarda – ya’ni kuzgi shudgorlashdan oldin yoppasiga o‘G‘itlar solish - **asosiy o‘G‘itlash**, bevosita ekishdan oldin o‘g‘it solish –**ekish oldidan o‘G‘itlash** va o‘simliklar qator orasiga o‘g‘it solish – **parvarishlash davrida oziqlantirishusullari** qo‘llaniladi.

Qotib qolgan o‘G‘itlar tuproqqa solish oldidan maydalanadi va elanadi. Maydalangan zarralarning o‘lchami 5 mm dan, o‘lchami 1 mm dan kam zarrachalarning miqdori 6% dan oshmasligi kerak.

Agrotexnik talablar: sepilgan o‘G‘itning belgilangan me’yordan farqi, ko‘pi bilan $\pm 5\%$; agregat harakat yo‘nalishi va qamrash kengligi bo‘yicha o‘g‘it sepilishining notekisligi, ko‘pi bilan 25%; yonma-yon o‘tishlardagi bir-birini qoplash (agregat ish qarovi bo‘yicha), ko‘pi bilan 5%; mashina ish jarayonida kuzovdagagi o‘g‘it miqdorining kamayishi natijasida yuz beradigan o‘g‘it sepish notekisligi, ko‘pi bilan 10% oshmasligi kerak.

NRU-0,5 rusumli o‘g‘it sochgichning umumiyligi tuzilishi va texnologich ish jarayoni **6.1-rasmda** ko‘rsatilgan.



6.1-rasm. NRU-0,5 diskli o‘g‘it sochgich sxemasi:
1-disk; 2-dastak; 3-bunker;
4-sirpanG‘ich; 5-koromislo;
6-reduktor; 7-to‘kuvchi planka.

Uning o‘g‘it sepuvchi disk 1 traktorning quvvat olish vali orqali aylanma harakatga keltiriladi. Sepiladigan o‘g‘it miqdori dastak 2 yordamida sepish tirqishi

hamda sepish plankasi 7 amplitudasini o‘zgartirish yo‘li bilan sozlanadi. Diskka tushgan o‘g‘it uning kurakchalari va markazdan qochma kuch ta’sirida 10-12 m kenglikda yer betiga sochiladi.

Agrotexnik talablarni to‘liq bajarilishi hamda mashinalarning bir maromda ishlashi uchun dalalarda har xil baland-pastliklar uchramasligi, ular o‘simgilik qoldiqlaridan tozalangan bo‘lishi hamda chuqur suG‘orish ariqlari va suv yuvib ketgan joylar tekislangan bo‘lishi lozim.


Mashinani ishga tayyorlash. O‘g‘it sochuvchi mashinalarni ishga tayyorlash jarayoni ularning butligi, uzellarning to‘g’ri yig’ilganligi, o‘g‘it sochuvchi ishchiqismlari va harakat uzatuvchi qurilmalarning texnik holati ko‘rib chiqish, uni traktorning quvvat olish valiga ulash hamda texnologik sozlashlarni bajarishdan iborat.

Yerga solinadigan ma’danli o‘g‘itlar bir jinsli mayda zarrali, lekin kukunga aylanmagan, qumoqlashib qolmagan va sochiluvchan bo‘lmog‘i lozim. Shunga ko‘ra, nam tortib, mushtdek qotib qolgan o‘g‘itlarni mavjud ish uskunalari yordamida maydalash lozim. O‘g‘itlarni faqat sepish oldidan maydalash va aralashtirish tavsiya etiladi.

Sochiladigan o‘g‘it miqdori dastak orqali sochish tirqishi hamda sochish plankasi amplitudasini o‘zgartirish yo‘li bilan sozlanadi. Mashinaning ishchi qismini (disk) yer yuzasiga nisbatan 70-75 sm balandlikda o‘rnatilsa, yaxshi natijalarga erishiladi.

Bir o‘qli 1-RMG-4A mineral o‘g‘it sepgich barcha turdagি mineral o‘G‘itlarni sepishga mo‘ljallangan.

Mashina quyidagi asosiy qismlardan iborat: kuzov 1 (6.2-rasm), chiviqli transportyor 2, sepish regulyatori 4, sepuvchi disklar 5 xamda yuritma mexanizmlardan tashkil topgan.



6.2-rasm. 1-RMG-4A mineral o‘g‘it sepish mashinasи:

a – texnologik ish jarayoni; b – o‘g‘it bo‘lgichni ko‘rinishi;

1-kuzov; 2-transportyor; 3-gidrotsilindr; 4-sepish normasi regulyatori; 5-sepuvchi disk; 6-shamoldan himoyalash qurilmasi; 7-rezinali rolik; 8-yurish G'ildiragi; 9-tirkash qurilmasi; 10-o'g'it yo'naltirgich; 11-sharnirli devor bo'lgichlar; 12-kurakchalar.

Transportyor zanjirli uzatma va gidrotsilindr 3 bilan G'ildirakka siqilgan rezina rolik 7 vositasida chap yurish G'ildiragidan xarakatga keltiriladi. O'ngdagi disk traktor gidrosistemasiga ulangan shesternyali gidromotor, chapdagi disk ponasimon tasmasi uzatma yordamida ungdagi disk orqali aylanadi.

Kuzovning ketingi tomonida o'g'it bo'lgich o'rnatilgan bo'lib, u o'G'itlarni ikki okimga bo'ladi va disklargaga yo'naltiradi. O'g'it bo'lgichning ichki devorlari 11 sharnirli maxkamlangan va buriladigan bo'lib, u disklargaga o'g'it uzatish joyini o'zgartiradi. O'g'it yo'naltirgich 10 ni kuzov bo'ylab surib va devorlar 11 holatini o'zgartirib o'G'itlarni qamrash kengligi bo'yicha bir tekis taqsimlanishiga erishiladi.

1-RMG-4 mashinasini ishga tayyorlash. O'g'it bo'luvchi moslamani sozlash tartibi quyidagi usulda, ya'ni moslamani agregat harakat yo'nalishi bo'yicha yoki unga teskari tomonga surish hamda uning ichki devorlari holatini o'zgartirish bilan o'g'itlarni dala yuzasida bir tekis taqsimlanishiga erishiladi.

O'g'it sepish miqdori esa mashina transportyorining tezligi va tirkishning balandligini o'zgartirish orqali sozlanadi. Tirkishning balandligi 25 mm dan 250 mm gacha rostlanadi. O'g'itning turiga va belgilangan miqdoriga qarab mashinaning qarama-qarshi aylanuvchi disklari uni 11 - 14 metr kenglikda sepa oladi.

4. Ish bo'yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, o'g'it solish texnologiyasi va agrotexnik talablar, NRU-0,5 o'git sochgichni tuzilishi va ish jarayoni (6.1-rasm) ko'rsatilishi kerak..

Nazorat savollari

1. Nima uchun sho'rlanmagan maydonlarda ma'danli o'G'itlar yer haydashdan oldin solinadi?
2. O'g'it solish ishlariga qo'yiladigan agrotexnik talablarni ayting?
3. NRU-0,5 o'g'it solish aggregatini sepiladigan o'g'it miqdori qanday rostlanadi?
4. NRU-0,5 rusumli o'g'it sepish aggregatini tuzilishini ayting va ishlatilishini tushuntirib bering.
5. 1-RMG-4 uigit sepgichda sepiladigan o'g'it miqdori qanday rostlanadi?

7-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.

1. Ishning maqsadi: Chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish usullari va agrotexnik talablari , Chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish mashinalarining tuzilishi, ishslash jarayonlarii va ularni ishga tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2. Kerakli jihozlar: Chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish mashinalarining ko‘rgazmali qurollari, o‘quv filmlari.

3. Ishni bajarish tartibi:

Chigit ekish mashinalarining asosiy vazifasi urug‘larni belgilangan miqdorda va chuqurlikka sifatli qilib ekishdan iborat.

Ekinlar urug‘larini ekish ishlari seyalkalar yordamida amalga oshiriladi. Seyalkalar universal va maxsus turlarga bo‘linadi. Universal seyalkalar turli xil qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini (chigit, makka va oq jo‘xori urug‘lari) ekish uchun qo‘llaniladi. Maxsus seyalkalar esa bir, ba’zan fizik-mexanik xususiyatlari, ekish me’yori bir-biriga yakin ikki-uch xil ekinlar urug‘ini ekishda ishlatiladi.

Ekish usuliga ko‘ra chigit ekish seyalkalari qatorlab, uyalab, donalab, qo‘sh qatorlab, plenka ostiga ekuvchi turlarga bo‘linadi.


Tukli va tuksiz chigitlarni 90 va 60 sm qator oralariga uyalab, punktirlab va uzliksiz ekishda pnevmatik seyalkalardan foydalaniladi. Bu seyalkalar chigitni belgilangan mikdorda, ekish sxemasida va chuqurlikda urug‘larni teng taqsimlab, dalaga bir tekis ekishga mo‘ljallangan hamda sakkiz qatorli Keys-1200 pnevmatik seyalkalar bilan ekiladi.

SChX-4 chigit seyalkasi (7.1-rasm) rama 1, ekish apparati 4, iz ko‘rsatgich (markyor) 7 lar, sirpanuvchi ekkich 4 uyalovchi apparati bilan, ko‘mgich 5 va tuproq shabbalagich 6 dan iborat.

Agrotexnik talablar: tuksizlantirilgan yoki qobiqlangan paxta chigitini uyalab ekishda ekish aniqligi, kamida 90%; tuksizlantirilgan paxta chigitnidonalab ekishda 1 metrga tushadigan urug’ soni 11-14 dona; namlangan tukli chigitlarni qatorlab ekishda 1 metrga tushadigan chigit soni 30-50 dona; ekilayotgan urug’ turiga qarab urug‘larni ko‘milish chuqurligi 3-8 sm; ko‘milish chuqurligining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, ko‘pi bilan ± 1 sm; haqiqiy va belgilangan ekish me’yorlari orasidagi ruxsat etilgan farq: tuksizlantirilgan paxta chigiti uchun, ko‘pi bilan 10%; tukli paxta chigiti uchun, ko‘pi bilan 15%; asosiy qator oralarining bir-biridan farqlanishi, ko‘pi bilan ± 1 sm ni tashkil etishi kerak.

Tukli chigitni ekish texnologik jarayoni(7.1-rasm) quyidagicha amalga oshiriladi. Ekish agregati oldinga qarab xarakatlanganda seyalkaning yuruvchi G‘ildiragi 1 bilan


bog‘langan zanjirli uzatma 3 va yulduzchali uzatma 10 orqali xarakat G‘altaksimon miqdorlagich 6 va to‘dalagich 12 uzatiladi.



7.1-rasm. Chigit ekish seyalkasining umumiyl tuzilishi:

1-rama; 2-bunker; 3-urug‘ o‘tkazgich; 4-ekish apparati; 5- ko‘mgich; 6-shabbalagich; 7-iz ko‘rsatich

G‘altaksimon miqdorlagich o‘z navbatida bunkerdag‘i 4 chigitni talab etilgan miqdorda urug‘ o‘tkazgichga 8 tashlaydi. So‘ngra urug‘ o‘tkazgich urug‘ni to‘dalagichga 12 yetkazib beradi, to‘dalagich o‘z navbatida urug‘larni 3-4 dona qilib to‘dalaydi va sirpanG‘ichli ekkich 13 ochgan egat tubiga tashlaydi. Botiruvchi G‘ildirak 14 chigitni egat ostiga qadaydi va ko‘mgich 15 yordamida tuproq bilan ko‘madi hamda shabbaligich 16 bilan tuproq ustidan shabbalanadi.



7.2-rasm. Seyalkanining texnologikish jarayoni:

1-zanjirliharakat uzatmasi; 2-val, 3-zanjirli uzatma, 4-bunker, 5-to‘zitkich, 6-miqdorlagich, 8-urug‘ o‘tkazgich, 9-yurituvchi G‘ildirak,
10 - konussimon shesternya, 11-teleskopik val, 12-to‘dalagich, 13-sirpanG‘ichli ekkich,
14-botiruvchi G‘ildirakcha, 15-ko‘mgich,
16-shabbalagich.


Don ekish mashinasining asosiy vazifasi urug‘lik donni belgilangan miqdorda va chuqurlikka sifatlari qilib ekishdan iborat.

Mamlakatimizda boshoqli don asosan sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladi. Buusulda ekiladigan erga o‘g‘it sepilib, plug bilan shudgorlanadi, tishli tirma va mola bilan ishlov berilib, suG‘orish jo‘yaklari olinadi va don seyalkasi bilan jo‘yaklar ustiga urug‘ ekiladi.

Agrotexnik talablar: ekish chuqurligi (er sharoitiga qarab), 2-6 sm; urug'larni ko'mish chuqurligi notekisligi, ko'pi bilan ± 1 sm; ekilgan maydon bo'yicha urug'larni belgilangan me'yorga nisbatan notekisligi, ko'pi bilan $\pm 3\%$; ekkichlar orasidagi notekislik, ko'pi bilan 6%; bir gektarga g'alla ekish normasi 60-250 kgG'ga; ekish apparatlardagi urug'larning shikastlanish darjasи, ko'pi bilan 3% dan oshmasligi kerak.

Urug'larni pushta olingan dalalarga ekish ishlari diskli ekkichlar bilan jihozlangan DEM-3,6 rusumli don seyalkasi (7.3-rasm) yordamida bajariladi.

Bu seyalka donli ekinlarni qatorlab ekishga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy qismlari rama 1, don bunkeri 5, don o'tkazgich 2, ekkichlar 3, G'altaksimon me'yorlagich 4, zanjirli ko'mgichlar 6 dan iborat.



7.3-rasm. DEM-3,6 don seyalkasini tuzilishi:

1-rama; 2-urug' o'tkazgich;
3- diskli ekkich; 4-G'altaksimon
me'yorlagich; 5-bunker;
6-zanjirli ko'mgich.


Seyalka xarakatlanganda bunkerdagи 5 urug'lar o'z oqimi bilan ekish apparatlarining qabul kameralarini to'ldiradi. Ekish apparatlarining G'altaklari 4 urug'larni ilintirib, urug' o'tkazgichga 2 tashlab beradi va urug'lar diskli ekkichlarga 3 borib tushadi va yo'naltirgichlar orqali ekkich disklari xosil qilayotgan ariqchalar tubiga qadaladi va zanjirli ko'mgichlar 6 yordamida tuproq bilan ko'miladi.

Pushtalarga ekishda ekilgan urug'larni ko'mish pushta yuzasini qamrovchi maxsus zanjirli moslamadan foydalaniladi. Diskli ekkichlar egat o'rtasidan pushtaga qarab o'rnatilgan bois tuproq yuqoriga qaratib aG'dariladi va uning pastga qayta to'kilishi hisobiga urug'larni ko'milishi ta'minlanadi. Diskli ekkichlar 12 ta kalta va 12 ta uzun tortqichlarga bir-biridan 150 mm masofada shaxmat tartibida o'rnatiladi. Ularning tuproqqa botish chuqurligi tortqich prujinalari yordamida sozlanadi.

O'zbekiston sharoitida kartoshkaning urug'lik tunganaklari asosan qator orasi 60 yoki 70 sm qilib olingan suG'orish jo'yaklaridagi pushtaga 8-12 sm chuqurlikda ekiladi. Bir gektarga ekiladigan urug'lik tunganaklaring soni tuproq holatiga qarab 40...50 ming dona orasida belgilanadi.


Agrotexnik talablar: kartoshka tuganaklarini ekishda berilgan va haqiqiy miqdorlar farqi, ekish me'yori 10%, ekish chuqurligi ± 4 sm, chekka qatorlar oralig'i ± 5 sm, ekilmagan uyalar soni, ko'pi bilan 3% dan oshmasligi kerak. Undirilgan tuganaklarning o'sgan kurtagi 20 mm dan, zaxalangan tuganaklar, ko'pi bilan 2% oshmasligi va unuvchanligi 98% dan kam bo'lmasligi kerak..

Kartoshka urug'ini ekish uchun turli xil mashinalar ishlatalishi mumkin. Ulardan eng ko'p tarqalgani SN-4B disksimon ekkichdir (7.4-rasm).



7.4- rasm. SN-4B kartoshka ekkichning tuzilishi va ish jarayoni:
1-bunker; 2- yopqich; 3- rostlagich;
4-cho'michli apparat; 5- o'g'it apparati;
6-tuganak o'tkazgich; 7-egatko'mgich;
8-ekkich; 9-o'G'itko'mgich; 10- ekkich G'ildiragi; 11- tayanch G'ildiragi.

Mashina oldinga xarakatlanganda bunker 1 ga solingan kartoshka tuganaklari cho'michli ajratish apparati 4 ning pastki qismiga tushadi. Bunda urug'ning tushish miqdori yopqich 2 bilan rostlagich 3 yordamida cheklanadi. Xuddi shunday aylanayotgan cho'michli ajratish apparati 4 ning ta'minlovchi qoshiqlari bittadan urug'lik tugunakni qisib ajratib oladi va uni urug'o'tkazgich 6 ustiga keltirib tushiradi. Urug'o'tkazgich 6 tuganaklarni ekkich 8 ga yo'nltiradi. Ekkich 8 o'z navbatida tuproqni ikki tomonga surib ochgan ariqcha tubiga urug' kelib tushadi. Ekilgan tugunak ko'mivchi disk 7 va tirmachalar yordamida kerakli chuqurlikda ko'miladi. Bunker 5 dagi o'g'it esa ko'mgich 9 ga ma'lum me'yorda tushirilib turiladi va tugunakdan oldin unga nisbatan chuqurroq ko'mib ketiladi.



7.5- rasm. Cho'michsimon apparatning ish jarayoni:

a) –tuganakni qoshiq bilan olish; b) –tuganakni qisqich bilan ushslash; v)- tuganakni tashlash;1-qoshiqcha; 2-yon to‘siq;3-cho‘michli apparat disk; 4-qisqich barmoG‘i; 5-yo‘naltirgich;6-qisqich prujinasi; 7- qisqichning tekis dumi.

Cho‘michsimon apparat (7.5-rasm) disk ko‘rinishida bo‘lib, u o‘n ikkita tuganakni bosib turuvchi qoshiqchalardan iborat. Har bir qoshiqcha 1 bitta tuganakni qisqich bilan ushlab olish imkoniyatiga ega.

Cho‘michsimon apparat disk 3 xarakatlanganda yo‘naltirgichi 5 qoshiqcha 1 ning barmoG‘ini ochadi va u tuganaklar qatlidan bitta tuganakni(7.5a-rasm) ilib oladi. Qoshiqcha tuganaklar qatlami ichidan chiqqandan so‘ng uning dumi 7 yo‘naltirgich 5 dan chiqadi va barmoq 4 prujina 6 bilan qoshiqchadagi tuganakni qisib (7.5b-rasm) ushlab oladi. So‘ngra qoshiq-chaning dumi 7 yo‘naltirgich 5 ning yuzasiga qayta chiqqanda barmoq ochiladi va tuganakni ekkichga tashlaydi.

Mevazorlarni tashkil etishda va ko‘chatlarni tuproqqa o‘tqazish ishlariularni keng va tor qatorlab usuldamaxsus ko‘chat o‘tqazish mashinalari yordamida bajariladi.


Ushbu mashinalarning ishlash jarayoni quyidagi ishlarni o‘z ichiga oladi: egat olgich yordamida egat olinadi; olingan egatga qo‘lda yoki o‘tqazish apparatida (mexanik usulda) belgilangan vaqt oralig‘ida urug‘ko‘chat, ko‘chat yoki qalamchalar qadaladi; ekish apparatidan keyin o‘rnatilgan ko‘mgich-shabbalagich bilan ko‘chatlarni ildizi ko‘miladi va atrofidagi tuproq tekislanadi: egat ochishda ankerli, bir va ikki diskli, aG‘dargichli yoki boshqa turdag'i ekkichlardan foydalaniadi.

O‘tqazish apparatlari diskli, richakli, remenli, zanjirli turlarga bo‘linadi.

Ko‘chatlar egatga qadalgandan so‘ng uning ildizini tuproq bilan ko‘mishda maxsus G‘altaksimon ko‘mgichlar qo‘llaniladi. Ularning ishchi yuzalari sferik disk, konussimon, tsilindrsimon yoki aralash yuzali G‘altaklar iborat bo‘lib, ular ekilgan ko‘chatlar ildizini ikki tomonidan tuproqni zichlab ketadi.

Agrotexnik talablar: ko‘chatlarni ekish mexnizmi ularni egatga qadash jarayonida ildiziga zarar etkazmasligi; egatga qadalgan ko‘chatni tuproq bilan ko‘mish va shabbalash paytida uni tik holatda ushlab turilishini ta‘minlashi; o‘tqazish jarayonida ko‘chatlar tuproqqa nisbatan gorizontal va vertikal yo‘nalishda qo‘zg’almasligi; ekish apparati ko‘chatni belgilangan chuqurlikka o‘qazilishini ta‘minlashi kerak.

Mevazorlarni barpo etishda SSN-1rusumli ko‘chat ekish mashinasidan foydalanish mumkin. Ko‘chat ekuvchi mashina (7.6-rasm) quyidagi qismlardan iborat: rama 6, osma uskunasi va tayanch ildiragi 5 bilan ko‘chat ekuvchi mexanizm 2, zichlovchi G‘altak 3, ko‘mgich 4, ko‘chatlar uchun yashik 7 va markerlar. Dalaning mikrorelefini engib o‘tish uchun zichlovchi G‘altak 3 va ekadigan apparat 2 ramaga 6 sharnir yordamida birlashtiriladi. Ekkich o‘ng tomonga nishab qilib o‘rnatilgan.



7.6-rasm. SSN-1 ko‘chat o‘tqazish mashinasining tuzilishi:

1-egat olgich; 2-ekish apparati; 3-zichlovchi G‘altak; 4-tuproq ko‘mgich; 5-tayanch g‘ildirak; 6-rama; 7-ko‘chat yashigi; 8-o‘rindiq; 9-soyabon

4. Ish bo‘yicha hisobotda: ishning maqsadi, kerakli jihozlar, chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish usullari va agrotexnik talablari, chigit, don, kartoshka va ko‘chat ekish mashinalarining vazifalari, tuzilishi va ishslash jarayonlari hamda ularni ishga tayyorlash tartiblari ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Chigit ekish aggregatining tarkibini va uni ishga tayyorlashda bajariladigan tadbirlarni ayting.
2. Tuproq zichlagichning taranglovchi prujinasini vazifasi va mohiyatini tushuntiring.
3. Chigit ekishga qo‘yiladigan agrotexnik talablarning mohiyatini ayting.
4. Boshqoli don urug‘lari pushtaga ekilishining mohiyatini ayting.
5. Boshqoli don ekish aggregatining tarkibini ayting va uni ishga tayyorlashda nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Don ekish ishlariga qo‘yiladigan agrotexnik talablar nimalardan iborat va ularning bajarish sifati qanday baholanadi?
7. Donni pushtaga ekish ishlari qanday tashkil etiladi?
8. Kartoshka urug‘ining qanday xossalalarivaqaerde ‘tiborgaolinadi?
9. Bir gektarga ekiladigan urug‘ soni qanday omillarga bog‘lanib belgi-lanadi?
10. Bir qatordagi uyalar soni qanday aniqlanadi?
11. Urug‘ni ko‘mish chuqurligi qanday omillarga bog‘lanib belgilanadi?
12. Bir qatordagi uyalar oralig‘i qanday o‘zgartiriladi?
13. Ko‘chat o‘tqazish ishlarining o‘ziga xos hususiyatlarini ayting?
14. Ko‘chat o‘tqazishning qanday usullarini bilasiz?
15. Ko‘chat uchun chuqur qazgichlarning qanday turlarini bilasiz?
16. Chuqur kovlagich qanday turdagи ishchi qism bilan jihozlangan?

8-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Ekinlarni parvarishlash va himoyalash mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari.

1. Ishning maqsadi: Ekinlarni parvarishlash va himoyalash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va ekinlarni parvarishlash va himoyalash mashinalari bilan ishlov berish usullari va agrotexnik talablari, kultivator va himoyalash mashinalarining tuzilishi, ish jarayoni va ularni ishga tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish.


2. Kerakli jihozlar: KXM-4 kultivatori, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.

3. Ishni bajarish tartibi: Ekinlar qator orasiga ishlob berishda begona o‘tlarni yo‘kotish, tuproqni hamda qatkalokni yumshatish, suG‘orish uchun egat olish, o‘G‘itlar bilan oziqlantirish ishlari bajariladi.

Paxtachilikda qo‘llaniladigan kultivator–oziqlantirgichlar to‘rt qatorli 60 va 90 sm sxemada ekilgan go‘za va boshka chopiq talab etiladigan ekinlar qator oralarini ishslashga mo‘ljallangan.

Agrotexnik talablar: ishchi qismlarni ishlov berish chuqurligi bo‘yicha yurish notekisligi, ko‘pi bilan ± 1 sm; himoya zonasini kengligi bo‘yicha notekisligi, ko‘pi bilan ± 2 sm; g’o‘za ko‘chatlarining shikastlanishi, ko‘pi bilan: bir o’tishda 1% va butun mavsum davomida 5%; begona o‘tlarni yo‘qotish darajasi, kamida 98%; qator orasiga ishlov berishda tuproqni uvalanish sifati: o’lchami 25 mm dan kichik fraktsiyalar miqdori, kamida 55% va o’lchami 50 mm dan katta fraktsiyalar miqdori, ko‘pi bilan 20%; o‘g‘it sepish apparatlarining sepish notekisligi, ko‘pi bilan $\pm 8-10$ %; o‘g‘it solgichlari o‘g‘itlarni g’o‘zaning rivojlanishiga qarab 23-24 sm dan 14-16 sm gacha chuqurlikda va g’o‘za qatoridan 15-18 sm dan 28-30 sm gacha uzoqlikda tuproqqa ko‘mib ketishi lozim.

Kultivator (8.1-rasm) oldi 1 va orqa 2 ramali seksiyalardan iborat bo‘lib, uning har bir qatordagi tortqichlari 3 gaishchi qismlar 4 mahkamlanadi.




8.1-rasm. Kultivatorning tuzilishi: 1-oldingi rama; 2-keyingi rama; 3-tortqich; 4-ishchi qism; 5-gidrotsilindr; 6-o‘g‘it yashigi; 7- o‘g‘it o‘tkazgich

Tortqichlar 3 gidrotsilindrlar 5 yordamida ishchi va transport holatiga o'tkaziladi. Oldingi ramalar traktorning o'ng va chap tomonidagi bo'ylanma to'sinlariga mahkamlangan bo'lib, ularga har bir qator uchun ishchi qismlar bilan jihozlangan tortqichlar 3 o'rnatilgan.

Bundan tashqari kultivatorning orqa seksiyasiga to'rtta (KMX-65 rusumli) o'g'it miqdorlagich 6 o'rnatilgan bo'lib, o'simliklarni o'G'itlar bilan oziklantirish uchun xizmat qiladi.

Kultivatorning ishchi qismlarining turlari 8.2-rasmida ko'rsatilgan.



8.2- rasm.Kultivatorningishchiqismlari:

a-o'G'itlashsoshnigi; b-yulduzcha; v- birtomonlamakesuvchi pichok;

g- o'qoypanja; d-diskali pichok; e-yumshatkich panja;


j-kombinatsiyalashtirilgan o'g'it solgich; z- yumshatgich ishchi qismlar

Kultivatori ishga tayyorlash va sozlash. Kultivatori ishga tayyorlash, uni zarur turdag'i ishchi qismlari bilan butlash, ishchi qismlarni sektsiyalarga o'rnatish va joylashtirishdan iborat

Bunda G'o'za qator orasi 60 sm bo'lganda jami 68 dona, 90 sm bo'lsa 84 dona ishchi qismlari bo'lishi talab etiladi. Bajaradigan ish turiga qarab kultivatorlarga qator orasi 60 sm bo'lganda ko'pi bilan 29 ta, 90 sm bo'lganda 36 tagacha ishchi qismlar o'rnatish mumkin.

Kultivatorning ishchi qismlarini o'rnatish va sozlash ishlari ip tortilgan yoki sxema chizilgan maxsus tekis yuzasi qattiq maydonchada bajariladi Buning uchun birinchi navbatda barcha sektsiyalarning tortqichlari 1 gorizontal holga keltiriladi (8.3-rasm), ishchi qismlar ishlov berish chuqurligi va kengligi bo'yicha sozlanadi.

Ishchi qismlarni kerakli chuqurlikda yuradigan qilib sozlash uchun kultivator sektsiyalarining har bir tayanch G'ildiraki 4 tagiga taxtacha 5 lar qo'yiladi. Bu taxtachalarning qalinligi (**h**) kerakli ishlov berish chuqurligidan 1-2 sm ga, ya'ni, G'ildiraklarning tuproqqa botish chuqurligiga teng qiymatiga kam bo'lishi kerak.




8.3-rasm.Kultivator sektsiyasi tortqichini gorizontal holatga keltirish:

1-tortqich; 2-parallelogram sektsiya;
3-klyuch; 4-tayanch G‘ildiragi; 5-taxtacha;
h- ishlov berish chuqurligi

Shundan so‘ng ishchi qismlar kultivator sektsiyalariga o‘rnataladi va mahkamlanadi, bunda pichoq, o‘qyoysimon va chuqur yumshatkich panjalarning qirquvchi qirralari maydoncha yuzasiga to‘liq tegib turishi, yumshatkich panjalar esa tumshuG‘i bilan tayanib turishi lozim.

To‘g‘ri o‘rnatilgan pichoqlarning gorizontal qismi va o‘qyoysimon panjaning tumshuG‘i (8.4-rasm) maydon yuzasi bilan $12-18^{\circ}$, chuqur yumshatkich va yumshatkich panjalarning tumshuqlari esa $30-40^{\circ}$ burchak hosil qilishi lozim. O‘rnatiladigan barcha ish organlarining kesuvchi qirralari o‘tkir bo‘lishi kerak.




8.4-rasm. Ish organlarini erga botish burchagi o‘rnatish

Ish organlarini qator kengligi bo‘yicha sozlash uchun (8.5- rasm) ular ko‘ndalang kvadrat kesimli tutqich bo‘ylab ko‘ndalangiga va qulflar yordamida ustunlar bilan tik yo‘nalishda suriladi. Ustunlarning bukilganligi hisobiga ularni u yoki bu tomonga qaratib, tegishli joyga o‘rnatish mumkin.

Yumshatkich, chuqur yumshatkich va o‘qyoysimon panjalarning tuproqqa kirish burchagini o‘zgartirish uchun saqlovchi shplintlar soshnikdagi teshiklarning tegishlisiga o‘tkaziladi, pichoqlarda esa uning boltlari boshqa teshikka o‘tkazib mahkamlanadi.

Sektsiyalarni bosib turuvchi prujinalar yumshoq tuproqlarda ishlaganda bo'shatibroq, zich tuproqlarda esa qisib qo'yiladi. Ish organlarning yurish chuqurliklari va G'o'za tuplariga nisbatan joylashishlari uzil-kesil dalada sozlanadi.

Dalaga chiqishdan oldin kultivator sektsiyalarini ko'tarib-tushirish mexanizmining ishlashi, rul mexanizmi va tormozlarining holati tekshiriladi, kultivatorni o'zaro ishqalanadigan qismlarining yuzalarini moylash amalga oshiriladi.



8.5-rasm. Ishchi qismlarning ishlov berish chuqurligi (a), kengligi (b) va erga botish burchaklari (v) ni sozlash tartiblari.

Qator oralariga ishlov berishda kultivator seyalka yurgan izdan yurishi va uning xarakat sxemasini takrorlashi kerak. Kultivatorning chetki ishchi kismlari yondosh qator oralarida yurishi lozim.

O'simliklarga kimyoviy ishlov berishla zararkunanda, kasallik va begona o'tlar bilan zararlangan maydonlarga zaharli ximikatlar kiritiladi.

Kimyoviy ishlov berishda quyidagi: urug'larni zaharlash (quruq, yarim quruq, ho'l, mayda tomchilab, issiq ishlov berish usulida); purkash (suyuq aralashma holatida); changlash (kukunsimon holda); aerozollash (tuman ko'rinishida); fumigatsiyalash (tuproqqa solish); zaharlangan xo'raklar sochish (kemiruvchi va hashoratlarga tadbirlarqo'llaniladi).

O'simliklarni kimyoviy ximoya kilishda purkagichlar, changlagichlar, aerozolli generatorlar, fumigatorlar hamda ish suyukligini tayyorlash va uni purkagichlarga quyish uskunalaridan foydalaniladi.

Purkagichlar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi: vazifasiga qarab maxsus (bog', tokzor, dala ekinlariga ishlov berishda) va universal turlarga bo'linadi.

Purkagichlar texnologik jarayoniga ko'ra gidravlik (shtangali) va pnevmatik (ventilyatorli) turlarga bo'linadi.


Gidravlik purkagichlarda ishchi suyuklik to'zitgichlar orqali bosim ostida sepiladi. Ventilyatorli purkagichlarda to'zitilgan ish suyukligi ekinlar yoki daraxtlarga ventilyatorning shamoli yordamida purkaladi.

Purkagichlar o'simlik zararkunanda va kasalliklariga, begona o'tlarga karshi kimyoviy kurash, omborlarni dezinfektsiyalash, G'o'zalarni defoliatsiya va desikatsiya

kilish uchun zaharli dorilar eritmasi, suspenziyasi yoki emulsiyalarini sepish uchun ishlataladi.

Agrotexnik talablar: ishchi eritmaning agregat qamrov kengligi bo'yicha bir tekis taqsimlanishi; g'o'za tuplariga purkalayotgan eritma zarrachalarining maydalik darajasi yuqori bo'lishi; o'simlik barglari sirtining eritma bilan qoplanish darajasi 1sm² yuzaga to'g'ri keladigan tomchilar soni 25 donadan ortiq bo'lishi; mashina terimi oldidan g'o'zani defoliatsiya qilishda uning barglarini to'kilish darajasi 85-90% kam bo'lmasligi kerak.

Paxtachilikda keng qo'llaniladigan OVX-600 rusumli purkagichning asosiy qismlari (8.6-rasm) quyidagilardan: suyuqlik idishi 1, ta'minlash tizimi 2, harakat uzatish mexanizmi 3, ventilyator 4, soplo 5, sozlagich 6, reduktor 7, miqdorlagich 8 va uchliklar 9 dan iborat.




8.6-rasm.OVX-600

purkagichini umumiyl tuzilishi:

1-suyuqlik idishi; 2-ta'minlash tizimi;
3-xarakat uzatish mexanizmi;
4-ventilyator; 5- soplo; 6- sozlagich;
7- reduktor; 8-rostlagich; 9- uchliklar.

Purkagichning texnologik ishslash sxemasi 8.7-rasmida ko'rsatilgan. Rezervuarlarga 9 va 13 suv filtr 17 orqali so'riladi. Buning uchun so'rish 16 va taksimlash 15 jumraklari sxemada ko'rsatilganidek A vaziyatga kuyiladi. Kontsentratsiyali dori 18 shlang orkali suriladi. Suyuk dori purkashda jumraklar B vaziyatga kuyiladi. Rotorli nasos 2 suv yoki ish suyukligini rezervuarlar 9, 10 dan filtr 14 orkali so'radi va taksimlash jumragi 4, bosim rostlagich 6 orkali to'zituvchi uchlikka 19 bosim bilan xaydaydi.



8.7-rasm. Purkagichning texnologik ish jarayoni (belgililar matnda ko'rsatilgan)


Suyuklikning bir kismi jumrakdan 7 ventil 8 va gidravlik aralashtirgichlar 11 orkali rezervuarlarga kaytib, ish suyukligagini uzluksiz aralashtirib turadi. Saklash klapani 3 2,1 MPa bosimda ochiladigan kilib rostlanadi. Bosim manometr 6 bilan tekshiriladi. Uchlik 19 dan purkalgan suyuklik ventilyatorning 1 shamoli ta'sirida parchalanib, o'simlik yoki daraxtlarga sepiladi. Daraxatlarga dori brandspoytlar 13 bilan purkaladi. Bunda jumrak 4 A vaziyatga qo'yiladi.

Purkagich gektariga 50...600 litr suyuklik sarflaydi. Buning uchun bosim rostlagichi 7 manometr 6 bo'yicha tegishlichcha 0,2...2,5 MPa bosimda ochiladigan kilib rostlanadi. OVX-600 purkagichida rotorli nasos o'rnatilgan bo'lib, ventilyatorning o'zi tebranadi.

Ventilyatorli purkagichlarni ishga tayyorlash va sozlash. OVX-600 rusumli purkagichlar texnik jihatidan soz bo'lgan chopiq traktoriga osilgan holda ishlatiladi.

Bunda shinalardagi havo bosimlari: oldingi G'ildirakda -1,6 atm. va orqa G'ildiraklarda-1,1 atm. bo'lishi, hamma G'ildiraklarga himoya shitoklari o'rnatilishi, nasos, reduktor va monometrdagi moy sathi tekshirilishi, barcha birikmalar mahkamlangan bo'lishi, rezina shlanglardan eritma tomchilamasligi, havo so'rilmashigi, ventilyator parragini aylantiruvchi va kojuxini tebratuvchi mexanizmlar tekis ishlashi ta'minlanadi..

O'simliklarga sifatli ishlov berilishi uchun ventilyatordan chiqayotgan havo oqimining yo'nalishi gorizontga nisbatan shunday oG'ish burchagiga ($10-12^\circ$) o'rnatilishi kerakki, unda aralashma traktorning bo'ylama o'qidan hisoblaganda 12...14 qatordagi G'o'zalar uchiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.



8.8-rasm. Purkagich ventilyatori vertikal o'qini rostlash:
1-tik ushlagich; 2-ventilyator;
3-soplo; 4-markaziy tortqich;
5-rama; 6-reduktor.

Bu ko'rsatgich traktor osish mexanizmining markaziy tortqisi 4 (8.8-rasm) yordamida ventilyator 2 o'qining tik holatidan orqaga (traktor xarakatiga teskari tomonga) qiyalatish orqali bajariladi. Shu bilan birga ventilyatorning pastki qirrasi va er sathi orasidagi masofa 1,2-2,0 metr orasida (ishpaytida o'simlik balandligiga karab tanlanadi) rostlanadi.

4. Ish bo'yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, agrotexnik talablar, kultavator, purkagichlarning vazifasi, tuzilishi va ishchi qismlarini tuzilishi ko'rsatilishi kerak.

- 1.G‘o‘za qator orasiga ishlov beradigan aggregatning asosiy foydalanish ko‘rsatgichlarini ayting.
- 2.Kultivator ishining sifatli bo‘lishi uchun o‘rnatiladigan ishchi qismlarning to‘liq sonini bilasizmi?
- 3.Kultivator ishchi qismlarining turi nimaga asosan aniqlanadi?
- 4.G‘o‘za qator orasiga ishlov berish ishlariga qo‘yiladigan agrotexnik talablarning mohiyatini tushuntiring.
5. .G‘o‘zani defoliatsiya qilish ishlarini mohiyatini tushuntiring.
6. Purkagich vertikal (tik) o‘qiga nisbatan 10-12 gradus qiya o‘rnatilishini izohlang.
7. G‘o‘zani defoliatsiya qilishga qo‘yiladigan agrotexnik talablar nimalardan iborat?
8. G‘o‘zani defoliatsiya qilish aggregatining tarkibini ayting va uni ishlatish qoidalarini tushuntiring.

9-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Paxta yig‘ishtirish mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari.

1. Ishning maqsadi: Paxta hosilini mashinada terib olish usullari va agrotexnik talablar, mashinalarining vazifasi, tuzilishi, ishlash jarayoni va ularni ishga tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2. Kerakli jihozlar: MX-1,8 rusumli paxta terish mashinasи, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.

3.Ishni bajarish tartibi:Paxta terimi ko‘saklar ochilishi 85% va undan ortiqroq bo‘lganda gorizontal shpindelli mashina bilan bir marta, vertikal shpindelli mashina bilan ketma-ket ikki marta o‘tishida terib olinadi, bunda ikkinchi o‘tish birinchi o‘tishga nisbatan qarama-qarshi yo‘nalishda amalga oshiriladi. Shunday qilib paxta terish mashinasining ketma-ket ikki o‘tishida 88...93% hosil terib olinadi.

Bunday usul terim davrini qisqartiribgina qolmay mashinaning ikkinchi o‘tishida chanoqlardan paxtani to‘laroq terib olishi hisobiga paxtani erga to‘kilishini kamaytirishga imkon beradi.

Paxta terish mashinalari ishlash printsipiga ko‘ra mexanik, pnevmatik, pnevmomexanik va elektrostatik turlarga bo‘linadi.


Mexanik usulda paxtani terib olish mashinalari keng tarqalgan bo‘lib, ular o‘z navbatida vertikal va gorizontal shpindelli mashinalarga bo‘linadi.

Mamlakatimizda paxta hosilining ochilgan qismini terib olish uchun asosan vertikal (tik) shpindelli paxta terish mashinalari ishlatilmoqda.

Agrotexnik talablar: Mashinaning terim to’liqligi, kamida 90%; erga to‘kilgan paxta miqdori, ko‘pi bilan 4%; 10 m yurganda erga to‘kilgan ko‘saklar soni, ko‘pi bilan 3 dona; bunkerdagи paxtaning iflosligi, ko‘pi bilan 8%; chigitning mexanik jarohatlanishi, ko‘pi bilan 1%; terim paytida chigitdan tolani ajralishi, ko‘pi bilan 0,3% tashkil etishi kerak.

Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan MX-1,8 vertikal shpindelli paxta terish mashinasи (9.1-rasm) traktor1 ga yarim osma holatda o‘rnatilgan bo‘lib, uning asosiy qismlari terish apparati 6, so‘ruvchi 2, haydovchi 4 havo kanallari va ventilyatoridan 4 iborat paxtani pnevmatik yuklash tizimi hamda bunker 8 dan iborat.

Mashina bilan terish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Traktor oldinga qarab xarakatlanganda G‘o‘zapoya ko‘targichlar 5 yotib qolgan G‘o‘zani ko‘tarib terish apparatining 6 shpindelli barabanlari 7 orasiga yo‘naltiradi. Bunda shpindellar o‘rnatilgan barabanlar 7 traktor xarakati bo‘ylab, undagi shpindellar esa traktor xarakatiga qarama-qarshi tomonga aylanadi. Aylanayotgan shpindellar paxtani o‘ziga o‘rab oladi, so‘ngra baraban ularni paxtani shpindeldan ajratib olish kamerasiga yo‘naltiradi.



9.1-rasm. MX-1,8 rusumli paxta terish mashinasining tuzilishi (a) va terish apparatining (b) texnologik sxemasi:

1- traktor; 2- so‘rvuchi kanal; 3- ventilyator; 4- haydovchi kanal;

5- G‘o‘zapoya ko‘targich; 6-vertikal shpindelli terish apparati;

7- vertikal shpindelli barabonlar; 8-bunker.

Bu yerda shpindellar teskari tomonga aylantiradi va maxsus ajratgichlar yordamida shpindeldan paxta ajratib olib, so‘ngra uni so‘rish kanaliga 2 yo‘naltiradi. So‘rish kanaliga tushgan paxta ventilyator 3 hosil qilgan havo yordamida paxtani so‘rvuchi 2 va haydovchi 4 kanallar orqali bunkerga 5 yo‘naltiradi.

Paxta terish mashinasini ishga tayyorlash. Paxtani isrof qilmasdan terib olishda quyidagi rostlash ishlari amalga oshiriladi.

Dastlab terim apparatini mashinaning bo‘ylama o‘qiga nisbatan to‘g‘ri joylashishi tekshiriladi. Shundan so‘ng ventilyator tasmalarining tarangligi, shpindelli barabonlarning bir-biriga nisbatan holati (past-balandligi) va ish tirqishining parallelligi, qarama qarshi barabonlardagi shpindellarning shaxmatsimon joylashishi, paxtani shpindellardan to‘la ajratib olish va shpindellar yuzasini yaxshi tozalash uchun ajratgichlar, texnologik qaytargichlar va apparat eshikchalarining holati ko‘rsatmalarda berilgan o‘lchamlardaaniq sozlanishi talab etiladi.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: ishning maqsadi, paxtani terib olish texnologiyasi va agrotexnik tadbirlar, MX-1,8 mashinaning vazifasi, tuzilishi va ishslash jarayoni (9.1-rasm) va uni ishga tayyorlash tartiblari ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat savollari:

1.Paxtani mashinada terib olishda qanday turdagи mashinalardan foydalilanadi? Ularning asosiy afzalliklarini ayting.

2.Tik shpindelli paxta terish mashinasining vazifasini ayting va uning ishslashini tushuntiring.

3.Mashina terimiga qo‘yiladigan agrotexnik talablarni ayting.

10-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: G‘alla kombayinlariva don saralash mashinalarining tuzilishi va texnologik ish jarayoni

1.Ishning maqsadi: G‘alla o‘rish va don saralash usullari va agrotexnik talablar, kombaynlar va don saralash mashinalarining tuzilishi, ishlash jarayonlari va ularni ishga tayyorlash tartiblari bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2.Kerakli jihozlar: Dominator-130 g‘alla o‘rish kombayni va don saralash mashinasining, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.

3.Ishni tashkil etish tartibi:

Boshqoli don hosilini yig‘ishtirib olishda bir, ikki va uch fazali o‘rib-yig‘ib olish usullari mavjud.

Bir fazali yig‘ishda poyalarni qirqish, yanchish va donni ajratish jarayonlari bir paytda amalga oshiriladi.

Ikki fazali yig‘ishda esa don poyasi bilan o‘rib olish va dala yuzasiga qator uyumlar ko‘rinishida tashlab ketish, bu massa qurigandan so‘ng qator uyumini yerdan ko‘tarib olish, yanchish va donni ajratish ishlari bajariladi.

Uch fazali o‘rib-yig‘ib olish usulida poyalarni qirqish, qirqilgan poyalarni maxsus quritish maydonchalariga tashish, ularni quritish, yanchish va donni ajratib olish jarayonlari amalga oshiriladi.

Respublikamizning turoq-iqlim sharoiti etishtirilgan boshqoli don hosilini qisqa muddatlarda g‘alla kombaynlari bilan bir fazali usulda, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yig‘ishtirib olish imkonini beradi.

Agrotexnik talablar: Kombayn jatkasidagi don nobudgarchiligi, ko‘pi bilan 0,5%, kombayn orqasidagi yerga to‘kilgan don miqdori, ko‘pi bilan 1,5%, bunkerdagagi donning shikastlanganlik darajasi, ko‘pi bilan 2%, bunkerdagagi donning tozaligi, eng kamida 95% ni tashkil etishi kerak.

Kombaynlar asosiy ishchi qismlarining tasniflanishi. Kombaynlar yanchish apparatlarini tuzilishiga qarab baraban-taglikli, barabanli va rotorli turlarga bo‘linadi.


Baraban-taglikli apparatlar aylanuvchi baraban va qo‘zg‘almas taglikdan iborat. Barabanlar shtiftli va savagichli turlarga bo‘linadi.

Shtiftli baraban o‘rnatilgan yanchish apparati aylanuvchan barabanga shaxmat tartibida joylashtirilgan shtiftlar va qo‘zg‘almas panjarasimon taglikdan tashkil topgan. Savagichli baraban o‘rnatilgan yanchish apparati baraban sirti bo‘ylab, uning o‘kiga parallel kertikli savagichlar o‘rnatilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda asosan “Klass” firmasining “Dominator-130” g‘alla o‘rish kombaynlari ishlatilmoqda.

“Dominator-130” G‘alla kombayni (10.1-rasm) qamrash kengligi katta bo‘lмаган S 420 rusumli jatka (qamrash kengligi 4,27 m) va klassik ko‘rinishdagi ko‘ndalang baraban-dekali yanchish qurilmasi bilan jihozlangan.

Kombaynning ish tezligi o‘rib olinayotgan g‘allaning hosildorligi va uning yotib qolganligi, maydonning tekis-notekisligi hamda boshqa omillarga qarab tanlanadi. Dala o‘t bosmagan, hosildorlik 40-50 ts/ga va poyalar yotib qolmagan tekis dalalarda 4,6-5 km/soat ish tezligi “Klaas-Dominator-130” kombaynlari uchun ham maqbul hisoblanadi.



10.1-rasm. “Dominator-130” kombaynining sxemasi.


1-motovilo; 2-qiya transporter; 3-kabina; 4-bunker; 5-shnek; 6-yanchish apparati; 7-biter qaytargich; 8-dvigatel; 9-orqa fartuk; 10-somon silkitgich; 11-yuqori G‘alvir; 12-pastki G‘alvir; 13-don irG‘ituvchi doska; 14-ventilyator; 15-gidrotsilindr; 16-shnek; 17-yon shitok.

Kombaynni ishga tayyorlash. Jatkani kombaynga taqishda uning to‘g‘ri o‘rnatalishini ta‘minlash va ish vaqtida dala relefiga bir tekis tushishini ta‘minlash maqsadida gidrotsilindrning prujinalarini sozlash kerak bo‘ladi. O‘rish apparati va shnek orasidagi masofa esa 580 mm qilib o‘rnataladi.

Kombaynning yanchish apparati klassik ko‘rinishdagi ko‘ndalang baraban-dekali yanchgichdan iborat bo‘lib, barabanga yuqori yanchish qobiliyatiga ega 6 ta savaG‘ich o‘rnatalgan.

Ular donli massani dekaning 117^0 qamrash kengligida 12 ta ko‘ndalang plankalar ustidan olib o‘tib yanchadi. Boshoqli don ekinlarini o‘rib-yig‘ib olishda ekinning holatiga qarab yanchish barabanining aylanishlar chastotasi $1150 \div 1250$ ayl/min oralig‘ida bo‘lishi kerak. Yanchish apparatida donli massaga yumshoq ta’sir berilishi poyalarning kamroq maydalanishi va somonning yaxshi uyumlanishini ta‘minlaydi. Bu esa yerga tushgan somonni qiyinchiliksiz sifatli yig‘ishtirib olishga imkon beradi.

Baraban va deka orasidagi tirkish kengligi ham ekin turiga qarab tortqi yordamida mos ravishda rostlanadi (10.2-rasm). Bug'doy va shunga o'xshash boshoqli don ekinlarini yanchishda tortqi N asosan 2-3 xolatga qo'yiladi va yanchish apparatining kirish qismidagi tirkish 13-15 mm, chiqish qismidagi esa 3-4 mm kattalikga qo'yiladi. Beda va boshqa mayda urug'li ekinlarni yanchishda esa kichikroq tirkishlar, makkajo'xori so'tasi, kungaboqar kabi yirik donli ekinlarni yanchishda birmuncha kattaroq tirkishlar tanlanadi.



10.2-rasm. Baraban va deka orasidagi tirkish kengligini sozlash:

K – yanchish apparati kirish qismidagi tirkish;

Ch – yanchish apparati chiqish qismidagi tirkish.

Mamlakatimizda boshoqli don ekinlarining asosiy qismi sug'oriladigan maydonlarda etishtirilishi va bu maydonlarning katta qismi 10 gettardan kam bo'lganligi hamda ko'pchilik maydonlarda boshoqli donlar pishib etilgandan so'ng qisqa vaqt ichida bir yillik begona o'tlarni tez rivojlanishini hisobga olgan holda "Klass" firmasining "Dominator-130" rusumli kombaynlardan foydalanish yuqori samara berishi tajribalarda aniqlangan.

Donni birlamchi ishlov berishda donni tozalash usullaridan foydalanilanib, bu jarayonni amalga oshiradigan ishchi qismlarga ega bo'lgan don tozalash mashinalarida amalga oshiriladi. Bu ishchi qismlarning ishlash tarzi esa donli aralashma zarralarining ayrim fizik-mexanik xossalari farqiga asoslangan.

Ushbu xossalarga ularning kattaligi (o'lchami), aerodinamik xossalari, yuzasining holati, shakli, zichligi, qayishqoqligi, mexanik qattikdigi, rangi, elektrofizik xossasi va boshqalar kiradi.

Donga dastlabki ishlov berishda g'alla kombaynida yanchilgan donlar dala xirmonlarida don tozalash mashinalari yordamida donni tozalash paytida undagi barcha begona qo'shilmalar, jumladan, poya bo'laklari, begona o't urug'lari, tosh, kesak va chala yanchilgan boshoq qismlari ajratib olinadi va chiqitga chiqariladi.


Bunda don o'lchamlari va aerodinamik xossalariiga asosan havo va G'alvirlar yordamida chiqindilardan tozalanadi.

Agrotexnik talablar. Donning tozalanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatgichlar: don maxsulotining tozaligi 90-95%, donning unib chiqish qobiliyati 85-90%; absolyut yoki solishtirma og'irligi; o'lchamlarining bir xilligini ta'minlanishi kerak.

Bugungi kunda donni dastlabki tozalash ishlarida asosan OS-4,5 rusumli don tozalash mashinasidan (10.3-rasm) foydalaniladi.

Mashina rostlash tortkisi 1, tutqi 2, bunker 3, me'yorlagich 4, ta'minlagich jo'va 5, ikkita vertikal kanal 6, so'rish va bo'shatish kamerasi 7 va 8, ventilyator 9, quvur 10, klapan 11, jalyuzalar 12, tsiklon 13, klapan tortqisi 14, kopqoq 15 va chiqish tuynugi 16, har xil o'lchamdagи B B₂, V va G g'alvirlar hamda trierlar 17, 18 va 19 dan iborat.

Mashinada don tozalash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Yuklash transporteri donni kabul qilish kamerasiga 3 uzatadi. So'ngra donni ta'minlagich jo'va 5 engil aralashmalar va puch donlardan tozalash uchun havo tozalagichli qismga uzatib beradi. Bu qismda inertsion chang ajratkich bilan asosiy massadan engil aralashmalar va chang ajratiladi. Havo okimi bilan ishlov berilgan don B₁ g'alvirga kelib tushadi va teng ikki qismga ajraladi. B₁ g'alvirdan yirik qo'shilmalar o'tadi. B₂ g'alvirdan donlar yirik yumaloq ko'zli oraliq g'alvir V ga, undan esa yumaloq ko'zli G G' alvirga kelib tushadi. Donlar G g'alvirdan o'tib B₂ g'alvirda elangan donlar bilan qo'shilib trierlarga yo'naltiriladi.



10.3-rasm. OS-4,5 don tozalashmashinasi

(belgilar matnda ko'rsatilgan)

Mashinaga donni kerakli mikdorda uzatish klapan 4 ni dasta 1 orqali burish bilan amalga oshiriladi. Havo kanalidagi oqim tezligi esa drossel klapani 11 bilan rostlanadi. Agar chiqitga asosiy ekin doni chiqib keta boshlasa, havo oqimi tezligi pasaytiriladi.

G‘alvirli tozalash mexanizmi to‘rtta elakdan iborat. Mashina yana ikkita trier bilan ham jihozlangan.

4. Ish bo‘yicha hisobotda:ishning maqsadi, donni o‘rib olish va yig‘ib olingan donlarni tozalash texnologiyasi va agrotexnik talablari, kombaynning va don tozalash mashinalarining tuzilishi , ishlashi va ularni ishga tayyorlash tartiblari ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Boshqoli don hosilini yig‘ib-terib olishda qanday turdagи g‘alla kombaynlari qo‘llaniladi? Ularning afzalliklarini ayting.
2. G‘alla o‘rimiga qo‘yiladigan agrotexnik talablarni ayting va ularning asosiy mohiyatini tushuntirib bering.
3. Keys-2166 g‘alla o‘rish kombaynida qanday turdagи yanchish barabani o‘rnatilgan?
4. Barabanli yanchish qo‘rilmasi bilan jihozlangan kombaynlar qanday dalalardagi g‘allani o‘rishda yaxshi natija beradi?
5. Donlarni dastlabki (birlamchi) tozalashdan maqsad nima?
6. Donning qaysi ko‘rsatgichlari bo‘yicha tozalash teshikli g‘alvirlarda amalga oshiriladi?
7. Donni havo yordamida tozalashda uning qaysi ko‘rsatgichi asosiy qilib olinadi?
8. Donni shakliga qarab tozalash ishlari qaysi turdagи g‘alvir bilan bajariladi?

11-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Kartoshka kovlash va meva hosilini yig‘ib olish mashinalarining turlari vazifasi, tuzilishi va texnologik jarayonlari.

1. Ishning maqsadi: Kartoshka va meva yig‘ishtirish usullari va agrotexnik talablar, mashinalarni tuzilishi, ishslash jarayoni va uni ishga tayyorlash tartiblari bo‘yicha ko‘nikmalar berish.

2. Kerakli jihozlar: kartoshka va meva yig‘ish mashinasi, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv filmlari.

3. Ishni tashkil etish tartibi:

Kartoshka hosilini yig‘ishtirib olishda quyidagi: bir fazali (kombayn bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri), ikki fazali (alohida-alohida mashinalar bilan) va qurama (aralash) usullardan foydalaniladi.

Bir fazali usul ikki variantda:

- 1) tuganaklar va poyalarni bir vaqtida yig‘ishtirib olish;
- 2) vaqt bo‘yicha navbatma-navbat bajarilishi mumkin.

Birinchi variantda kombayn kartoshka va tuproqni kovlab oladi, ildiz va tuganaklarni poyasidan ajratadi, tozalaydi va ularni alohida bunkerlarga yiG‘adi.

Ikkinci variantda kartoshkani kovlab olishdan oldin uning poyalari mexnik (kesish, maydalash) va kimyoviy usulda yig‘ishtirib olinadi. So‘ngra 2-15 kun o‘tgach tuganaklar kovlab olinadi.

Ikki fazali usulda kartoshka poyasi bilan birlgilikda kovlab olinadi va tuproq yuzasiga tashlab ketiladi. Kartoshka poyasi qurib tuganaklardan ajragandan so‘ng ular yig‘ib olinadi, tozalanadi va saqlash joylariga yuboriladi..

Qurama (aralash) usulda 2 va 4 qatordagi kartoshka tuganaklari kovlab olinadi, tozalanadi va tuproq ustiga qator qilib to‘sab ketiladi, so‘ngra ketma-ket kombayn bilan yig‘ishtirib olinadi.

Kartoshkani yig‘ishtirib olish ishlarini tashkil etishda quyidagi usullardan
- to‘xtovsiz oqim, dalada bir joyga to‘plash, so‘ngra saqlash joylariga jo‘natish hamda aralash ko‘rinishdagi usullardan foydalanish mumkin.

To‘xtovsiz oqim usulida quyidagi ishlar ketma-ketligi – mashinada hosilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yig‘ishtirish, tozalash va saralash, transport vositasiga ortish, qayta ishslash zavodlari yoki qabul qilish punktlariga tashish ishlari bajariladi. Bu usulda xarajatlar kam bo‘ladi, hosilning isrofgarchiligi kamayadi, yig‘ishtirib olish ishlari tezlashadi.

To‘plab so‘ngra saqlash joylariga jo‘natish usuli quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi. Hosil yig‘ishtiriladi, dalada vaqtinchalik saqlash uchun uyumlanadi, tozalanib transport vositalariga yuklanadi va xo‘jalikdagi saqlash joylariga yoki qayta ishslash zavodlariga jo‘natiladi. Bu usul mahsulotlar yuqori darajada

ifloslangan yoki transport vositalari etishmagan hollarda qo'llaniladi.


Aralash usulida mashinalar bilan yig'ishtirib olingan hosilning bir qismi bevosita qayta ishlash zavodiga yoki xo'jalik omborxonalariga, qolgan qismi esa toplash maydonchalariga vaqtinchalik saqlash uchun jo'natiladi. Buning natijasida transport vositalaridan unumli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Agrotexnik talablar. Tuganaklar isrofgarchiligi ko'pi bilan 5%, yig'ilgan kartoshkaning tozaligi kamida 80%, tuganaklarni zaxalanishi er yuzasidan terishda ko'pi bilan 5% va kovlashda 10% oshmasligi kerak.

O'zbekiston sharoitida kartoshka hosili asosan KST-1,4 rusumlielagichli kovlagich (11.1-rasm) yordamida yig'ishtirib olinadi.

Kovlagichlar bir-ikki katorli egatlarni kartoshka tuganaklari joylashgan chuqurlikda kovlaydi, tuganakli qatlamni silkitish, tebratish, cho'zish, siqish hisobiga uni maydalaydi, tuproqning mayda zarrachalarini elaydi va tuganaklarni dala yuzasiga qator qilib to'shab ketadi.

Kovlagich lemex 3, tezkor 4, asosiy 6 va zinali 8 elevatorlar, tayanch 1 va xarakat g'ildiraklar 7 bilan jihozlangan



11.1- rasm. KST-1,4 kartoshka kovlagichning tuzilishi va ish jarayoni:

1-tayanch G'ildiragi; 2-vintli mexanizm; 3-tebranuvchi lemex; 4- tezkor elevator;

5- ellipssimon silkituvchilar; 6-asosiy elevator; 7-yurish G'ildiragi; 8-zinasimon elevator; 9-qaytargich;

Lemex 3 tuganakli qatlamni kovlaydi, poyalarni ajratadi, tuproqni tebranuvchi-silkituvchi ishchi qismlar bilan elaydi. Elagichlar 4, 6, 8 va silkituvchilar 5 orqali tuganaklar elanib dala yuzasiga tashlab ketiladi.

Tebranuvchi lemex qirqib oligan qatlamni aralashtiradi va tezkor elevator 4 ga, u esa o'z navbatida asosiy 6 va zinali 8 elevatorlarga uzatadi. Elevatorlarning xarakat tezligi va tebranishi turlicha bo'lganligi sababli tuproqli qatlamni silkitilishi, tebranishi, cho'zilishi, siqilishi hisobiga uni maydalaydi, tuproqning mayda zarrachalarini elaydi va tuganaklarni dala yuzasiga qator qilib to'shab ketadi.

Elevatorning tezligi agregat tezligi V_m dan 20...30% ga ko'proq bo'lganligi

sababli, yaxlit tuproq qatlami bo‘laklarga ajraladi, ularni keyinchalik tuganaklardan ajratish yengillashadi. Tugunaklarga aralashgan tuproq ketma –ket o‘rnatilgan bir nechta chiviqli elevatorlarda elanib yerga to‘kiladi. Tugunaklar esa oxirgi elevatordan yer yuzasiga tashlanadi. Ularni ishchilar qo‘lda terib olishadi.

Kartoshka yetishtiriladigan mintaqalarning tuproq-iqlim sharoiti, dalaning o‘lchami va shakli va boshqa omillarni hisobga olgan holda turli kombaynlardan ham foydalaniladi.

Kartoshka yig‘gich kombaynlarikartoshkali qatorlarni kovlaydi, tuganaklarni tuproq va chiqindilardan ajratadi, kesaklarni maydalaydi, tuganaklarni poyasidan, begona o‘t qoldiqlari, toshlardan va kesaklardan ajratadi, tuganaklarni bunkerga yiG‘adi yoki transport vositasiga yuklaydi.

Kombaynlar bir-to‘rt qatorli, tirkama, yarim tirkami va o‘ziyurar turlarga bo‘lingan bo‘lib, yarim tirkama turi ko‘p tarqalgan.

Kartoshkalarni yig‘ishtirib olishda rotorli (KTN-1A), elevatorli (KST-1,4 va KTN-2V) va o‘ziyurar KSK-4-1 kartoshka kovlagichlar hamda KKU-2A va KPK-3 kombaynlaridan foydalaniladi.

Kartoshka kovlagichni ishga tayyorlash. Kovlagich lemexining eni va yerga botish chuqurligi tuproqda tugaliklarining joylashgan tartibga qarab tanlanadi. Lemex tugunaklar joylashgan tuproq qatlamini yerdan ajratib, birmuncha ko‘tarib, elevatorga o‘rnatiladi. Tugunaklarni chiviqlar elevator bo‘ylab uzlusiz yuqori tomonga ilashtirib surishini ta’minalash uchun, elevatoring gorizontga engashish burchagi chiviqlar bilan kartoshka orasidagi ishqalanish burchagidan kamroq qo‘yiladi. Shu sababli, elevator bir nechta poG‘onasimon o‘rnatilgan bo‘laklarga ajratiladi.

Mevalar asosan ikki usulda: uzoq muddatga saqlanadigan mevalar qo‘lda maxsus jihozlar yoki meva yiG‘adigan platformalardan foydalanilgan holda hamda texnik qayta ishlov berishga mo‘ljallangan yoki tezda iste’mol qilinadigan mevalar esa maxsus yig‘ish mashinalari bilan yig‘ib olinadi.


KPU-2 meva yig‘ish mashinasiqator oralari kengligi 6 m gacha va shoxlarining diametri 7 m gacha bo‘lgan bog‘zorlardagi danakli va urug‘li mevalarni yig‘ib olish uchun mo‘ljallangan.

Mashina chap 4 va o‘ng 2 agregatlardan (11.2-rasm) tashkil topgan bo‘lib, ular o‘ziyurar shassilarga o‘rnatilgan. Chap agregat 4 markaziy rama, ilgich 3, bo‘ylama 6 va ko‘ndalalang 7 transporterlar, konteyner uchun maydoncha 5 va tebratgich 8 dan iborat. Tebratgich 8 gidromotor orqali ishga tushiriladi.

O‘ng agregat shassi 2 elastik materialdan yasalgan roliklarda o‘rnatilgan ilgich 1 bo‘lib, uni gidrotsilindr yordamida daraxt tanasi tomon surish mumkin.

Mashina quyidagicha ishlaydi. Agregatlar chap va o‘ng tarafdan meva daraxtiga yaqinlashib, ilgich 1 va 3 larni bir-biriga yaqinlashtiradi va tebratgich 8 ishga tushirilib daraxt tanasi silkitiladi. Tebranish natijasida uzilgan mevalar

ilgichlarga to‘kiladi. So‘ngra ular qiya o‘rnatilgan ko‘ndalang transporter 7 lar orqali bo‘ylama transporter 6 ga uzatiladi.




11.2-rasm. KPU-2 meva yig‘ish mashinasining tuzilishi va ish jarayoni:

1va 3- ilgichlar; 2 va 4-o‘ng va chap agregatlar; 5-kontayner; 6 va 7-bo‘ylama va ko‘ndalang transporterlar; 8-tebratgich.

Bunda to‘kilgan barglar va mayda chiqindilar tebranish hisobiga mevalardan ajraladi va qarama-qarshi tomonga xarakatlanib, pastga – yer yuzasiga to‘kiladi. Bo‘ylama transporter 6 chiqindilardan tozalangan mevalarni konteyner 5 ga uzatadi.

VUM-15A rusumli o‘ziyurar shassiga o‘rnatilgan meva yig‘ish mashinasi qator orasi 3-4 m va diametri 3,5 m gacha bo‘lgan olcha, olxo‘ri va olma kabi yarim butali daraxtlarning mevasini yig‘ib olishda foydalaniladi.

Mashinaning asosiy qismlariga tebratgich 2 (11.3-rasm), transporter 3, osma 4 va ko‘chirma 1 brizentdan yasalgan ilgichlar, ventilyator va transporterga xarakat uzatish mexanizmi kiradi.



11.3-rasm. Meva yig‘ish mashinasining (VUM-15A) tuzilishi va ish jarayoni:

1,4- ilgichlar; 2-tebratgich; 3-transporter; 5-ekran; 6-shassi; 7-konteyner; 8-ventilyator.

Mevalarni yig‘ish uchun aggregat qator orasida yurib daraxtning tanasiga tebratgichning qisqichi to‘g‘ri kelguncha xarakatlanadi. So‘ngra gidrotsilindr yordamida transporter 3 daraxt tanasigacha suriladi. Shu bilan birga osma ilgich 4 ish holatiga qo‘yiladi.

Yordamchi ishchilar qo‘sishma ilgich 1 ni daraxtning yoniga o‘rnatadi. Natijada daraxt atrofida bir tekis qabul qilish yuzasi tashkil etiladi.

Vibrator 2 ishga tushiriladi va daraxt tanasiga amplitudasi 24 mm bo‘lgan va minutiga 1200 tebranish beriladi. Uzilgan mevalar ilgichlarga tushib yig‘iladi va transporter 3 ga tushib konteyner 7 ga uzatiladi. Mevalar konteynerga tushish paytida ventilyator 8 hosil qilgan havo oqimi yordamida engil chiqindilardan tozalanadi. Konteyner mevalarga to‘lgach shassining yuklash joyiga qo‘yiladi.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: ishning maqsadi, kartoshka va mevalarni yig‘ishtirib olish usullari va agrotexnik talablari, kartoshka va mevalarni yig‘ishtirish mashinalarining tuzilishi ishlashi va ularni ishga tayyorlash tartiblari ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat savollari:

- 1.Kartoshka kovlashning o‘ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi
- 2.Kartoshka kovlab olishning qanday usullarini bilasiz?
- 3.Kartoshkani yig‘ishtirib olish qanday tashkil etiladi?
- 4.Kartoshka kovlagichning turlari va uning asosiy qismlarini ayting.
- 5.Kartoshkani yig‘ishtirishga qo‘yilgan agrotexnik talablarni ayting.
- 6.Meva va uzumlarni yig‘ishtirib olish usullarini ayting.
- 7.Qanday mevalarni mashinalar yordamida yig‘ishtirib olish samarali hisoblanadi?
8. Meva yig‘gich mashinalarining asosiy qismlarini ayting.

12-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Agregat tuzish. Mashina-traktor agregatlarining ish unumini aniqlash.

Traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasini tanlash. Bunda berilgan ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun agregatdan foydalanish shartlari to‘g‘risida ma’lumotlar umumlashtirilib, ularga asosan traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasi 6-ilovaga asosan tanlanadi.

Buning uchun kerak bo‘ladigan birlamchi ma’lumotlarga quyidagi agrotexnik ko‘rsatgichlar: jarayonning sifat ko‘rsatgichlari, ishlov beriladigan material va ishchi paykalning xususiyatlari, tuproqning turi va holati, tavsiya etilgan texnologik tezlik chegarasi, mashinaning nisbiy qarshiligi va traktorning foydalanish ko‘rsatgichlari kiradi.

Agregat tarkibiga traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasini tanlashda birinchi navbatda xo‘jalikning alohida joylashish xususiyatlari, ya’ni yer relefi, tuproq-iqlim sharoiti, dalaning yuzasi va uzunligi hamda bajariladigan asosiy va yordamchi ishlarning turi hamda uning xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Ko‘p energiya talab etiladigan (yer haydash, chizellash, chuqur yumshatish va boshqalar) hamda yuzasi va uzunligi katta dalalardagi ishlarni bajarishda hozirgi zamon yuqori quvvatli umumiylar ishlarni bajaradigan Axion-850, MX-250, Arion-640S, Magnum, K-701, T-150K rusumli traktorlar keng qamrovli mashinalar bilan, xuddi shu ishlar, lekin kichik va o‘rtacha maydonlarda T-4A, VT-150, TS-6070, Axsos-320S traktorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ekishdan oldin yerlarni tayyorlashda (tirmalash, disklash, chizellash, molalash, yer tekislash va boshqalar) asosan T-4A, VT-100, VT-150, XTZ-181 rusumli zanjirli traktorlardan, ekinlar qator oralariga ishlov berishda (ekish, kultivatsiya qilish, begona o‘tlar va zararkunandalarga qarshi kurashish, G‘o‘zani defoliatsiya qilish, G‘o‘zapoyani yig‘ish va hokazolar) TTZ-60.11, TTZ-80.11, MTZ-80X rusumli chopiq traktorlaridan va etishtirilgan ekinlarning hosilini tashish ishlarida TTZ-60.10, TTZ-80.10, MTZ-80,82, TTZ-100.10 rusumli transport traktorlaridan (3 va 4-ilovalar) foydalanish yuqori samara beradi.

Asosiy agregat tanlangandan so‘ng (kerak bo‘lsa) yordamchi (yuk tashish va ortish) agregatlari (7-ilova) tanlanadi. Bunda quyidagilarga: asosiy va yordamchi agregatlarning to‘xtovsiz bir maromda ishlashi va ularni bir-biriga moslashuvini hamda xizmat ko‘rsatuvchi ishchilar, texnikalar va materiallarni iloji boricha kam xarakatini ta’minlash talab etiladi.

Birlamchi ma’lumotlar. Bunga topshiriqda berilgan jarayonning sharoitlarga ko‘ra qabul qilingan traktor, ishchi mashina va ularni bog‘lovchi tirkagichning quyidagi ko‘rsatgichlari: traktorning oG‘irligi (G_{mpak} ,kN), qishloq xo‘jaligi mashinasining oG‘irligi (G_M ,kN) va qamrash kengligi (V_M ,m), tirkagichning oG‘irligi (G_{mup} ,kN) va

qamrash kengligi (V_{mup} , m) hamda agregatning texnologik ish tezligi chegarasi (Vi.ch, kmG[‘]soat) va boshqalar kiradi hamda bu ko[‘]rsatgichlar 5-9- ilovalarga asosan olinadi.

Traktorning ilgakdagi tortish kuchi: ishning bajarilishi uchun tavsiya etilgan tezliklar chegarasiga mos keladigan agregatning tezligi (Vi.ch, km/soat) qabul qilingandan so[‘]ng (8-ilova) ushbu tezlikka mos holda traktorning ilgakdagi tortish kuchi (Pmk, kN) aniqlanadi:

$$P_{mk} = \frac{3,6N_{e.u}\eta_{mpak}}{V_{u.u}}, \text{ kN} \quad (1)$$

bu yerda: $N_{e.u}$ - traktor dvigatelining nominal quvvati, kVt (5-ilova);

η_{mpak} - traktorning foydali ish koeffitsienti, G[‘]ildirakli traktorlar uchun $\eta_{mpak} = 0,26-0,73$ va zanjirli traktorlar uchun $\eta_{mpak} = 0,39-0,80$.

So[‘]ngra traktorning ishchi tezligi topiladi

$$V_{ish} = Vi.ch(1-\delta), \text{ km/soat} \quad (2)$$

bu yerda: δ - traktor g[‘]ildiraklarining toyish koeffitsienti, zanjirli traktorlar uchun $\delta = 0,05-0,15$ va G[‘]ildirakli traktorlar uchun $\delta = 0,15-0,35$;

Agregatning maksimal qamrash kengligi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_a^{\max} = \frac{P_{mk} - G_{mpak}i - R_{kob}}{K_M}, \text{ m} \quad (3)$$

bu yerda: K_M - bitta ishchi mashinaning nisbiy qarshiligi, kN/m; R_{kob} - ishchi mashinasining traktorni quvvat olish validan (QOV) oladigan qarshilik kuchi, kN;

Agar mashinaning ishchi qismlari traktorni quvvat olish validan harakat (o[‘]g[‘]it sepish, o[‘]t o[‘]rish, G[‘]alla o[‘]rish mashinalari va hakoza[‘]lar) olsa, uning qarshilik kuchi quyidagicha topiladi:

$$R_{kob} = \frac{3,6N_{kob}\eta_{mp}}{V_u\eta_{kob}}, \text{ kN} \quad (4)$$

bu yerda: N_{kob} - mashinaning ishchi qismlarini traktorning QOVdan yuritish uchun zarur bo[‘]lgan quvvat, kVt (9-ilova); η_{mp} - traktor transmissiyasining foydalishi ish koeffitsienti, $\eta_{mp} = 0,90-0,92$; η_{kob} - traktor QOVning foydali ish koeffitsienti, g[‘]ildirakli traktorlar uchun $\eta_{kob} = 0,80-0,92$ va zanjirli traktorlar uchun $\eta_{kob} = 0,86-0,88$.

Ish mashinasining nisbiy qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

- tirkama mashina uchun

$$K_M = k_M + (G_M i + G_{mup} (f_{mup} \pm i)) / B_M, \text{ kN/m} \quad (5)$$

- osma mashina uchun

$$K_M = k_M + G_M (\lambda_m f_M \pm i) / B_M, \text{ kN/m} \quad (6)$$

bu erda: k_M – mashinaning solishtirma qarshiligi, kN/m (4-ilova);

f_m , f_{mup} - mashina va tirkagichning G‘ildirashga qarshilik koeffitsientlari, anG‘izda f_M , $f_{mup} = 0,07-0,11$ va haydalgan yerda $f_M, f_{mup} = 0,12-0,18$; λ_m - o‘rnatma mashinalar bilan ishlaganda traktorga tushadigan qo‘sishimcha yukni hisobga oluvchi koeffitsient, kultivatsiyada $\lambda_m q1,0-1,5$ va chuqur yumshatishda $\lambda_m = 1,6-2,0$.

Agregatdagi mashinalar sonini aniqlash.

$$\text{Mashinalar soni: } nM = V_a^{\max} / VM, \text{ dona} \quad (7)$$

Plug korpusining soni:

$$- \text{tirkalma pluglar uchun } ntp = \frac{P_{mk.h}}{k_n h b \pm g_n i}, \text{ dona} \quad (8)$$

$$- \text{osma pluglar uchun } nop = \frac{P_{mk.h}}{k_n h b \pm g_n (\lambda_n \pm i)}, \text{ dona} \quad (9)$$

bu yerda: k_n - plugning solishtirma qarshiligi, kN/m² (4-ilova); h – haydash chuqurligi, m; b – bitta korpusning qamrash kengligi, m; g_n - bir korpusning oG‘irligi, kN, $g_n = 2,7-3,1$ kN; λ p-osma plug bilan ishlaganda traktorga tushadigan qo‘sishimcha yukni hisobga oluvchi koeffitsient, λ pq 0,5-1,0;

Mashinalar sonining aniqlangan qiymati eng kichik butun songa yaxlitlanadi. Masalan, $nM = 2,6 \approx 2$ dona qabul qilinadi.

Agregatning qamrash kengligi topiladi:

$$- \text{pluglar uchun } Vp = b np \quad (10)$$

$$- \text{boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari uchun } Va = VMnm; \quad (11)$$

Agregatning bir soatdagi ish unumi

$$Wm = 0,1 Va Vish \beta \tau, \text{ ga/soat} \quad (12)$$

bu yerda: τ - smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti(8-ilova) Tsm- smena vaqt, soat; $Tsm = 7$ soat; β - agregatni qamrash kengligidan foydalanish koeffitsienti, $\beta = 0,9-1,0$.

Agregatning smenadagi ish unumi

$$Wsm = Wm Tsm, \text{ ga} \quad (13)$$

Bir gektar bajarilgan ish uchun ketgan yoqilg‘i sarfi

$$Qs = g_e N_{e.h} \eta d / Wm, \text{ kg/ga} \quad (14)$$

bu yerda: g_e - yoqilg‘ining solishtirma sarfi, $g_e = 0,246-0,265 \text{ kg/kVt-soat}$;


$N_{e,n}$ - dvigatelning nominal quvvati, kVt (5-ilova); η_d - dvigatelning foydali ish koeffitsienti; $\eta_d = 0,95$.

Bajarilgan ish uchun mehnat sarfi

$$H = (\text{mm Q mi}) / W_m, \text{ odam-soat/ga} \quad (15)$$

bu yerda: mm va mi – traktorchilar va yordamchi ishchilar soni.

Olingan ma’lumotlarga asosanagregatning umumiyo ko‘rinishi chiziladi (12.1-rasm).



**12.1-rasm. Tirmalash
agregatining umumiyo ko‘rinishi:**
1-traktor; 2-tirkagich; 3-tirma

Agregatni ishga tayyorlash maxsus maydonchalarda o‘tkaziladi va quyidagilarga alohida e’tibor beriladi: a) agregatni holati va uning ishchi qismlar bilan to‘liq jihozlanganligini ko‘rib chiqish; b) mashinaning ishchi qismlarini to‘g‘ri o‘rnatilganligini tekshirish; v) berilgan sharoitni hisobga olgan holda kerakli rostlash ishlarini bajarish; g) qo‘sishma jihozlarni o‘rnatish (marker, iz ko‘rsatgich) va ularni rostlash; d) agregatni salt va ishchi holatida ishlashini tekshirish.

Nazorat savollari

1. Traktorning ilgakdag‘i tortish kuchi nima?
2. Agregatning maksimal qamrash kengligi qanday aniqlanadi.
3. Ish mashinasining nisbiy qarshiligi qanday aniqlanadi.
4. Agregatdag‘i mashinalar soni G‘aqida tushuncha bering
5. Bir gektar bajarilgan ish uchun ketgan yoqilg‘i sarfi qanday aniqlanadi.
6. Bajarilgan ish uchun mehnat sarfi qanday aniqlanadi.

13-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Mashina-traktor parki ishini rejalashtirish va yoqilg‘i moylash materiallari sarfini aniqlash.

Mashina-traktor parki ishini rejalashtirish. Agrar soha ishlab chiqarishiga yangidan-yangi yuqori ish unumiga ega bo‘lgan zamонавиу трактор, qishloq xo‘jalik mashinalari, kombaynlar va ko‘plab yordamchi mexanizmlar jalb qilindi. Jahonda etakchilar qatorida turgan chet el firmalari bilan aloqalar yanada takomillashdi va natijada “Keys” g‘alla kombaynlari, “Klaas”, “Magnum” haydov traktorlari, “Maral” ozuqa yig‘ish mashinalaridan bugungi kunda samarali foydalanish va ularga texnik servis-xizmat ko‘rsatish tizimi yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizning mashina-traktor parklarida 1,7 mln. dan ko‘proq “Magnum”, “Altay”, “Belarus”, “TTZ” rusumli traktorlardan, 500 mingdan ortiq kombaynlardan hamda AJ “O‘zbekqishloqmash”, “Chirchiqqishloqmash”, “Tashqishloqmash” kabi zavodlarda chet el firmalari bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan ko‘plab ishchi mashinalardan foydalanib kelinmoqda.

Muqobil MTP bozor iqtisodiyoti qonunlaridan kelib chiqqan holda tuzilishi kerak Marketing esa talabnomha va reklama xizmati, iste’molchilar talabini o‘rganish shu asosda servis-xizmati turlari, ularni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan texnika vositalari tizimini belgilash, xizmat miqdori va uning narxini aniqlash bilan shug‘ullanadi. SHuningdek, iste’molchilar va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari orasida MTP tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan servis-xizmat turlarini reklama qilish bilan hamda kerakli texnika vositalarini, ehtiyyot qismlar, yoqilg‘i, moylash materiallarini sotib olish joylari va narxlari bilan shug‘ullanadi.

Har qanday yangi tuzilayotgan muqobil MTP o‘z faoliyatini shu bo‘g‘indan boshlashi zarur, chunki MTP tuzishdan avval kimga xizmat ko‘rsatishi, xizmatga bo‘lgan talabni, xizmat turlarini aniq belgilab olishi hamda shu xizmat turlarini, miqdorini bajarish uchun qaysi turdag‘i texnika vositalari va qancha kerakligi aniq bo‘lishi zarur.

Yoqilg‘i moylash materiallari sarfini aniqlash. Texnologik jarayonni bajarayotgan agregat dvigatelda yonayotgan yoqilg‘ining potensial energiyasi sarfi hisobiga harakat qiladi. SHunday ekan, energiya sarfini aniqlashda yoqilg‘i sarfini unga proporsional ekanidan kelib chiqqan holda hisoblaymiz. Ishlov berilayotgan material (yer)ning bir xil bo‘lmasligi, agregatga ko‘rsatiladigan qarshilikning o‘zgaruvchan xarakterda bo‘lishiga, bu esa, o‘z navbatida, yoqilg‘ining vaqt birligida turlicha sarflanishiga olib keladi. Agar agregatning bir smenadagi ish unumini W_{sm} son qiymatiga shu vaqt ichida sarf bo‘lgan yoqilg‘i miqdorini bo‘lsak, unda bajarilgan ish birligiga to‘g‘ri keladigan yoqilg‘i sarfi I (kg/ga; kg/t, ...) quyidagicha ifodalanadi:

$$\Theta = \frac{G_{cm}}{W_{cm}} = \frac{G_p \cdot T_p + G_c \cdot T_c + G_t \cdot T_t}{0,1B_k \beta V_H \cdot \varepsilon \cdot T_{cm} \cdot \tau}, \quad (1)$$

bunda, G_p , G_c , G_t – mos ravishda agregat foydali ish bajarganda, salt yurganda va dvigateli ishlab o‘zi to‘xtab turganda bir soatdagi yoqilg‘i sarfi, kg/soat;

T_r , T_s , T_t –mos holda smena davomida foydali ish bajarishga, salt yurishga va ishlayotgan dvigatel bilan to‘xtab turishga sarf bo‘lgan vaqt, soat.

Ish birligiga sarf bo‘lgan yoqilg‘i miqdori va aggregatning ish unumini dvigatelning effektiv quvvati orqali hisoblasak, u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\Theta = \frac{G \cdot K}{0,36 N_e \tau \eta} = \frac{g_e K}{0,36 \tau \cdot \eta}, \quad (2)$$

bunda, G – agregat tomonidan o‘rtacha bir soatda sarf bo‘lgan yoqilg‘i miqdori, kg/soat; g_e – dvigatel quvvati birligiga sarf bo‘lgan yoqilg‘i miqdori, kg/kVt.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki, bajarilgan ish birligiga sarf bo‘lgan yoqilg‘i miqdori g_e , dvigatelning iqtisodiy takomillashgan darajasi va ishchi mashinaning solishtirma qarshiligiga to‘g‘ri proporsional, ya’ni bu ikki ko‘rsatkichning qiymatlari oshgani sari yoqilg‘i sarfi ham oshib boradi va aksincha, smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti hamda traktoring FIK ga teskari proporsionaldir. Yonilg‘i sarfini kamaytirish uchun albatta smena vaqtidan samarali foydalanib ko‘proq ish bajarishga harakat qilish lozim. Iloji boricha texnologik jarayonni bajarishda yuqori FIK ega bo‘lgan traktordan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim ilmiy izlanishlar natijasidan ma’lum bo‘lishicha, agregat bir smena davomida taxminan 8... 30 % vaqtini to‘xtashga va salt yurishga sarflar ekan. Kichik qiymati oddiy va katta qiymati murakkab aggregatlarning ish bajarishlariga to‘g‘ri keladi. Bir gektarga yoqilg‘ining haqiqiy sarfi I_h quyidagicha hisoblanadi:

$$\Theta_x = \Theta \cdot \lambda_t, \quad (7)$$

bunda, λ_t – yoqilg‘ining saqlashda, quyishda, tashishda qo‘srimcha isrofni hisobga oladigan tuzatish koeffitsienti.

Moylash materiallari va dvigateli yurgizib yuborishga benzin sarfi asosiy yoqilg‘iga nisbatan foiz hisobiga olinadi. Dizel dvigatellari uchun moyning o‘rtacha ekspluatatsion sarfi, yoqilg‘iga nisbatan 4-6 % ni tashkil etadi, bunda moyning kuyishi 1% dan ortmasligi lozim. Moyning kuyishi yoqilg‘i sarfiga nisbatan 4-5 % dan ortsa, dvigatel ta’mirlashga

yuboriladi.

Moylash materiallarining sarf me’yorini belgilash uchun, masalan, karter moyining sarfi ularning xizmat muddati va moylash tizimining hajmiga qarab hisoblanadi. Dvigatelga moyni qo‘srimcha quyib turishni ham nazarda tutish lozim.

Bir gektarga yoqilg‘i sarfi tajriba yo‘li bilan aniqlanadi. Bunda texnologik jarayonni bajarganda Q_i , agregat salt harakatlanganda $Q_{s,y}$, traktor to‘xtab, dvigateli ishlab turgandagi Q_t yonilg‘i sarflari maxsus o‘lchov asbobi yordamida o‘lchanadi. Bularga

mos holda almashish (smena) davomida t_i ish vaqtiga, $t_{s,y}$ salt yo'llar vaqtiga va t_t to'xtashlar vaqtiga hamda agregatning ish unumi W_a xronometraj qilish yordamida aniqlanadi, so'ngra 1 gektarga yoqilg'i sarfi hisoblanadi, kg/ga:

$$q = \frac{Q_u t_u + Q_{c,u} t_{c,u} + Q_T t_T}{W_a} .$$

Yoqilg'i sarfi namunaviy texnologik kartalardan ham olinishi mumkin. Moylarning sarfi yoqilg'i sarfining asosiy turiga nisbatan foizlarda hisoblanadi: motor moyi 3...4%, konsistent moylar (solidol, tsiatim, litol 24, fiol 1) va transmissiya moylari 1...2% olinada, o'rtacha umumiy moy sarfi 5% tashkil etadi.

Mashina-traktor agregati ishlaganda yoqilg'inining ortiqcha sarflanishiga quyidagilar: dvigatel yoqilg'i tizimining noto'g'ri sozlanishi; yoqilg'i quyishda, tashishda va saqlashda to'kilishi; agregatning tezlik rejimining noto'g'ri tanlanishi sabab bo'ladi.

Yoqilg'i sarfini kamaytirish uchun bu sabablarni bartaraf etish bilan bir qatorda: MTA ning ish unumini oshirish; dvigateli maqbul tezlik rejimida ishlatish va barcha rejimli rostlagichdan foydalanish zarur.

14-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Avtomatika vositalari va elementlarining grafik va raqam xarf ifodalanishlarini o‘rganish.

Tajriba ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi qoidalarini o‘rganish va o‘qituvchining so‘rovidan keyin texnika xavfsizligi daftariga imzo qo‘yish.


2. Prinsipial elektrik sxemalarida elementlarning belgilanishi va sxemani o‘qish qoidasini o‘rganish.

Avtomatik boshqaruvi va avtomatlashdirilgan jarayonlar prinsipial elektrik sxemalarida avtomatika elementlari GOST 2.701...2.1188-78 asosida xarfiy belgilanadi va grafik tasvirlanadi. Ushbu shartli belgililar 1 - jadvalda keltirilgan.

Prinsipial sxemalarda ayrim elementlarning grafik shartli belgilanishi

Elementning nomlarishi	SHartli grafik belgilanish	Elementning nomlanishi	SHartli grafik belgilanishi
Sim, tarmoq, kabel	_____	O‘zgaruvchan tokli elektromagnit	
Simlarning kesishuvi	— —	Generator	
Simlarning elektrik ulanishi	— • —	Transformator a) o‘zakli b) o‘zaksiz	
Elektr energiya manbai	— + —	Kuch transformatori	
Kuchlanishni o‘zgartiruvchi transformator		Tokni o‘zgartiruvchi transformator	
Vilka, shteker		O‘chirgich, rubilnik kontakt, kalit, ajratkich	
Razetka, uya		Avtomatik o‘chirgich	
Ajratkich		Boshqarish tugmasi	
Klemma		Vaqt davomida ishlovchi kalitlar a) qo‘sishga b) ajratishga	
Gerkon (germetik kalit)		Tranzistor	
Klemmalar to‘plami		Fototranzistor	

Transformator yoki drossel cho‘lg‘ali		Tiristor	
Stabilitron		Logik (mantiqiy) element	
Tunelli diod		Fotodiod, foterezistor	
Saqlagich (predoxranitel)		Diodli optron	
Doimiy rezistor		Ajratuvchi kalit	
O‘zgaruvchan rezistor		Qo‘shuvchi kalit	
Doimiy sig‘imli kondensator		YUklanishda avtomatik qaytish kontakti	
Elektrolidli kondensator		Elektromagnit ustunasining g‘altagi	
O‘zgaruvchan sig‘imli kondensator		Issiqlik relesining g‘altagi	
Diód		Issiqlik relesining kontakti	 KK2
Mikrosxemadagi kuchaytirgich		Ishga tushirish kontakti	 SB1
Bosh kurilmalar Teleboshkarish		Raqamli hisoblovchi voltmetr	
Uzlusiz registratsiyali voltmetr		Elektr o‘lchash asboblari	

Elektromagnitli mufta		Razryadlovchi	
Nazorat lampasi		Qo'ngiroq	

Prinsipial sxemalarda elementlar va vositalarning shartli harf-raqam belgilanishlari

Bir harfli kodi	Elementlar va vositalar turining guruhi	Element va vositalar turlari	Ikki harfli kodi
1	2	3	4
A	Qurilma (umumiylar belgilanishi)	Tok rostlagichi	AA
V	Birlamchi o'zgartgichlar	Blok rele	AK
		Qattiq gapirgich	VA
		Magnitostriksion element	VV
		Detektor	VD
		Selsin – qabul qilgich	VE
		Selsin – datchik	BG
		Telefon	BF
		Termopara, issiqlik datchigi	BK
		Fotoelement	BL
		Mikrofon	BM
		Bosim datchigi	BP
		P'ezoelement	BQ
		Tezlik datchigi	BV
		Aylanish chastotasi datchigi	BR
S	Kondensatorlar	Kondensatorning kuch batareyasi	CB
D	Mantiqiy elementlar, mikrosxemalar	Kondensatorlar bloki	CG
		Ma'lumotlarni saqlash qurilmasi	DS
		Integral – analogli sxema	DA
		Integral – raqamli sxema	DD
E	Har xil elektrik elementlar (yoritish va qizdirish elementlari)	Yoritish lampasi	HL
F	Razryadniklar, saqlagich (predoxranitel) va himoya vositalari	Qizdirish elementi	EK
		Ortiqcha yuklanishdan himoya elementlari	FV

		Birdan ta'sir qilish tokidan himoya elementi	FA
		Inersion ta'sirli tokdan himoya elementi	FP
		Saqlagich (Predoxranitel)	FV
		Razryadli element	FR
G	Generatorlar va energiya ta'minot manbalari	Batareyalar	GB
H	Indukatorli va signal elementlari	Ovoz signali asbobi	HA
		Simvolli indikator	HG
		Yorug'lik signali asbobi	HL
K	Rele, kontaktorlar va puskatellar	Ko'rsatish relesi	KH
		Tok relesi	KA
		Elektr issiqlik relesi	KK
		Kontaktor, magnitli ishga tushirgich	KM
		Vaqt relesi	KT
		Kuchlanish relesi	KV
R	Asboblar	Ampermetr	PA
		Impulсли schetchik	PC
		CHastota o'lchagich	PF
		Ommetr	PR
		Reaktiv energiya schetchiki	PK
		Aktiv energiya schetchiki	PJ
		YOzish instrumenti	PS
		Soat, vaqt o'lchagich	PT
		Volmetr	PV
		Vattmetr	PW
Q	Vыklyuchatel va raz'edinitellar	Avtomatik vыklyuchatel	QF
		Raz'edinitel	QK
		Korotkozamikatel	QS
R	Rezistorlar	Termorezistor	RK
		Potensiometr	RP
		O'lchov shunti	RS
S	Kommutatsion uskunalar, signalizatsiya va o'lchovlar	Viklyuchatel	SA
		Knopkali vыklyuchatel	SB
		Avtomatik vыklyuchatel	SF
		Sath vыklyuchateli	SL

		Bosim viklyuchateli	SP
		Holat viklyuchateli	SQ
		Burlak tezligi viklyuchateli	SR
		Harorat viklyuchateli	SK
T	Transformatorlar, avtotransformatorlar	Tok transformatori	TA
		Kuchlanish transformatori	TV
U	Aloqa uskunaları	Modulyator	UB
		Demodulyator	UR
		Diskriminatör	UJ
V	Elektrovakuumli va yarim o'tkazgichli asboblar	Diod, stabilitron	VD
		Elektrovakuumli asbob	VL
		Tranzistor	VT
W	Liniyalar va YU4 (SV4) elementlari	Antenna	WA
X	Kontaktli bog'lanishlar	Sirpanish kontakti	XA
		SHtirli rezyum bog'lanishi	XP
		Gnezdoli rezyum bog'lanishi	XS
		Sinov gnezdosи	XSG
Y	Elektromagnit yuritmali mexanik qurimalar	Elektromagnit	YA
		Elektromagnit yuritmali tormoz	YB
		Elektromagnit yuritmali mufta	YC
		Elektromagnit patron yoki plita	YH

Nazorat savollari:

1. Elektr energiya manbalarining xarfiy va tasviriy belgilanishini ko'rsatib bering (chizmada).
2. Elektr mashinalarni xarfiy va tasviriy belgilanishini ko'rsatib bering (chizmada).
3. Elektr qarshiliklar xarfiy va tasviriy belgililarini ko'rsatib bering (chizmada).
4. Elektr o'lichash asboblarini chizmada tasvirlab bering.

15-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Potensiometrik va generator datchiklar


Rezistiv datchiklar

Rezistiv datchiklar chiziq va burchak xarakatlarni kuch va momentlar, tebranish va vibratsiyalar, xarakat va yoruglik kabi noelektrik kattaliklarni nazorat qilish va o'lchash jarayonlarida qo'llaniladi.

Rezistiv datchiklar guruxiga **potensiometrik**, **ko'mir (kontaktli)**, **tenzometrik** kabi datchiklar (fotorezistiv, termorezistiv) kiradi. Bunday turdag'i datchiklarning ish prinsipi nazorat qilinayotgan kattalikning ta'sirida uning aktiv qarshiligi o'zgarilishiga asoslangan bo'ladi.

Potensiometrik datchiklar. Potensiometrik datchiklarda nazorat qilinayotgan xarakat sezgir elementga uzatilib uning qarshiligi hisobiga o'zgaruvchan yoki o'zgarmaskuchlanishga aylantiriladi (15.1- rasm).

Potensiometrning xarakatlanuvchi kontakti nazorat qilinayotgan xarakatga bog'langan bo'lib, ob'ektning holati o'zgarilganda uning qarshiligi ham va ikkilamchi asbobjagi ko'rsatgich o'zgariladi. Ikkilamchi asbob esa nazorat qilinayotgan parametrlar birligida darajalangan. Kuchlanishning tebranishlarini ta'sirini yo'qotish maqsadida stabillashgan manbalardan foydalanish tavsiflanadi.



15.1-rasm. Potensiometrik datchiklar va ularning tavsifnomalari.

Tenzometrik datchiklar. Tenzometrik datchiklarning ish prinsipi tenzoeffekt xodisasiga asoslangan bo'ladi, ya'ni elastik deformatsiya ta'sirida uning qarshiligi o'zgaradi. Tenzodatchik ma'lum usulda o'ralgan va ikkala tomonidan maxsus plenka yopishtirilgan yupqa simdan iborat. Tenzodatchik deformatsiyasi nazorat qitlinayotgan detalga maxsus elim bilan puxta yopishtiriladi. Detalning deformatsiyasi natijasida simning geometrik o'lchamlari o'zgarilib qarshiligi o'zgaradi. Tenzometrik

datchiklarning tavsifnomasi chiziqli bo‘ladi va shu sababli ularning sezgirligi deyarli o‘zgarmaydi.

Tenzometrik datchiklarning asosiy ko‘rsatkichi tenzosezgirlik hisoblanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$K_c = \frac{\Delta R / R}{\varepsilon} \quad (1)$$

Bu yerda $\Delta R/R$ - materialning deformatsiya paytida solishtirma qarshiligi; ε - elastiklik moduli.

Tenzodatchiklarning afzalliklari: ular juda sodda, ixcham va arzon. Kamchiliklari: kichik sezgirlik, o‘lchov natijalari xaroratga bog‘liq. Sanoatda 3 xil tenzometrik datchiklar chiqariladi: simli, qoG‘oz (2PKB turida) va pylonka (2 PKB turida) asosida: folgali. (2FPKP turi) va yarim o‘tkazgichli (KTD, KTDM, KTE turlari). Simli tenzorezistorlar uchun nominal ish toki In q 0,5 A tashkil etadi.

Elektromagnitli va sig‘im datchiklari

Induktiv va transformator datchiklari. Elektromagnitli datchiklar sodda tuzilishi va puxtaligi bilan avtomatika tizimlarida keng miqyosda qo‘llanib kelinmoqda. Elektromagnitli datchiklar kirish kattaligini o‘zgarishi bo‘yicha induktiv, transformator va magnitoelastik turlariga bo‘linadi.

Induktiv va transformator datchiklarning (15.2 - rasm) ish prinsipi po‘lat yakorning holati o‘zgarilganda po‘lat o‘zakli cho‘lg‘amning induktivligi o‘zgarishiga asoslangan.

Induktiv va transformator datchiklari o‘zgaruvchan tok zanjirlarida ishlab, mikronning undan bir qismidan to bir necha santimetrgacha bo‘lgan xarakatlarni o‘lchaydi va ularni nazorat qiladi.

Oddiy induktiv datchikning sxemasi va uning statik tavsifnomasi - rasmda ko‘rsatilgan. Datchikning kirish kattaligi havo bo‘shlig‘i bo‘lib, chiqish kattaligi I_a . ikkilamchi asbobdagi tok bo‘ladi. I_a qiymati cho‘lg‘amning induktiv qarshiligi hamda o‘lchov asbobining aktiv qarshiligiga bog‘liq. CHo‘lg‘amning induktivligi ikkita havo bo‘shlig‘ni hisobga olgan holda quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$L=2\pi\omega^2S10^{-7}/\delta \quad (2)$$

$$\text{chiqishdagi tok esa: } I_{o\cdot zg}=U/Z=\overline{U/\sqrt{R^2+(\omega L)^2}} \quad (3)$$

bu erda: $R=R_{ch}+R_{o\cdot zg}$ - cho‘lg‘amning va o‘lchov asbobi qarshiliklarining yig‘indisi, Om;

ωL - cho‘lg‘amning induktiv qarshiligi, Om;

ω - cho‘lg‘amning o‘ramlar soni;

S - magnit o‘tkazgichning kesim yuzasi, m^2 ;


δ - havo bo‘shlig‘i, m.

Datchikning sezgirligi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$K_d = d I_{o \cdot zg} / d \delta = U \cdot 10^7 / 2\pi \omega^2 \omega S \quad (4)$$

Differensial datchiklarda kirish signalining belgisi o'zgarilganda chiqish signalining belgisi ham unga ravishda o'zgaradi.

SiG'im datchiklari va ularning qo'llanish sohalari. SiG'im datchiklarida xilmayxil kirish kattaliklarni (chiziqli va burchak xarakatlarni, mexanik kuchlanish, satx va kabilar) sig'im o'zgarilishiga aylantiriladi. Amalda sig'im datchiklari kondensatorlardan yasaladi. O'lchaydigan kattaliklariga qarab sig'im datchiklari (15.2-rasm) yuzasi o'zgaruvchan, oraliq masofasi o'zgaruvchan va dielektrik singdiruvchanligi o'zgaruvchan turlariga bo'linadi.



15.2- rasm. SiG'im datchiklarining turlari.

Tekis kondensatorning siG'imi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

Generator datchiklari

Generator datchiklarida bevosita sezgir elementlar kirish signali (x) chiqish signaliga (u) o'zgartiriladi. Ushbu o'zgartirish kirish signali energiyasi hisobiga bo'ladi va chiqish signali elektr yurituvchi kuch ko'rinishida hosil bo'ladi. Bu turdagи datchiklar juda sodda tuzilgan bo'ladi va qo'shimcha energiya manbaisiga ega bo'lishi shart emas.

Generator datchiklari induksion, fotoelektrik, p'ezoelektrik va termoelektrik datchiklari (termoparalar) guruxiga bo'linadi.


Induksion datchiklar. Induksion datchiklarning ish prinsipi elektromagnit induksiya qonuniga asoslangan bo'ladi, ya'ni magnit oqimi o'zgartirilayotgan konturda EYUK hosil bo'ladi:

$$E = - W_2 \frac{d\Phi}{dt} \quad (5)$$

Induksion datchiklar 3 hil ko'rinishga ega: 1. CHo'lG'amli 2. Ferromagnit detali xarakatlanuvchi 3. Taxogeneratorli

Fotoelektrik datchiklar. Fotoelektrik datchiklar guruxiga kiruvchi fotodioldlar va ventilli fotoelementlarning ish prinsipi ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan bo'ladi. Ichki fotoelektrik effekt urug'lik oqimi ta'sirida erkin elektronlar o'zining energetik holatini o'zgartirib, moddaning o'zida qolishi xodisasi bilan

xarakterlanadi. Bunda modda ichida ko‘cha oladigan erkin zaryadlar hosil bo‘ladi. Erkin zaryadlar modda ichida ko‘chganda fotoelektr yurituvchi kuchlarni hosil qiladi (ichki fotoeffektli fotoelementlar shu prinsipda qurilgan) yoki elektr o‘tkazuvchanlikni o‘zgartiradi (fotoqarshiliklar shu prinsipda qurilgan).



15.3-rasm. Fotoelement va uning tavsifnomasi.

Nazorat savollari

1. Datchiklarni ish vazifasi.
2. Datchiklar trlari va ularning vazifalari.
3. Potensiometrik va generator datchiklarni farki.

1-LABORATORIYA mashg‘uloti

Mavzu: Traktor g‘ildiraklarini oralig‘ini ekin qator oralariga moslash.

Ishning maqsadi: G‘ildirakli traktorlarning g‘ildiraklari oralig‘ini (koleyasi) ekinlar qator orasiga moslash tartibini o‘rganish.


Kerakli jihozlar: G‘ildirakli traktor, ruletka, lineyka.

Ma’lumki, sug‘oriladigan mintaqalarda qishloq xo‘jaligi ekinlari (paxta, makkajo‘xori, kartoshka va boshqalar) qatorlab ekiladi va parvarishlash davrida ularning qator orasiga bir necha marotaba ishlov beriladi.

O‘simliklar qator oralariga ishlov berishda 3X2, 4X2 va 4X4 sxemali g‘ildirakli traktorlardan foydalaniladi.

Unib chiqqan nihollarni parvarishlash davrida ularni traktor g‘ildiraklari tomonidan zararlanishini kamaytirish maqsadida o‘simliklarning o‘sish balandligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda traktoring g‘ildiraklari oralig‘ini (V) agrotexnik talablarga ko‘ra rostlash (1-rasm) kerak bo‘ladi.

3X2 sxemali g‘ildirakli traktorlarda orqa yetaklovchi g‘ildiraklar, 4X2 va 4X4 sxemali traktorlarda esa old va orqa g‘ildiraklar oralig‘i rostlanadi.



1-rasm. G‘ildirakli traktoring o‘tuvchanlik ko‘rsatgichlari:

X – tashqi himoya yo‘lagi; Y – ichki himoya yo‘lagi; S – qator orasi;

b – traktor shinasining kengligi; V – traktor g‘ildiraklarining oralig‘i; h_a – agrotexnik masofa

Bunda traktor pnevmatik shinalarining kengligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tuproq zichlanishini kamaytirish uchun iloji boricha keng shinalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo keng shinalar o‘simliklarni himoya qilish yo‘lagi kengligini kisqartirishi natajasida ularning shikastlanish darajasini oshishiga olib keladi.

Agrotexnik talablarga ko‘ra agregatlar har o‘tganda o‘simliklarni shikastlash va nobud qilish darajasi bir foizdan oshmasligini ta’minlash talab etiladi.

Traktor shinalari o‘simliklarning himoya yo‘lagini bosmasdan xarakatlanishi uchun quyidagi tengsizlik bajarilishi kerak.

$$S - b \geq X + Y$$

Bu erda: X – tashqi himoya yo‘lagini kengligi, mm; Y – ichki himoya yo‘lagini kengligi, mm; S – o‘simlik qator orasining kengligi, mm; b – traktor orqa g‘ildirak shinasining kengligi, mm.

Agar ushbu tengsizlik qanoatlantirilmasa, traktorga boshqa shina tanlanadi va uning kengligiga asosan tengsizlik qayta aniqlanadi.

G‘ildirakli traktorlarda ularning orqa G‘ildiraklarining oraliq masofasi quyidagicha aniqlanadi.

$$V_{or} = S_n$$

bu erda: n – traktor orqa G‘ildiraklarining oralig‘idagi o‘simlik qatorlari soni.

4X2 yoki 4X4 sxemali traktorlarda old g‘ildiraklar oralig‘i orqa g‘ildiraklar oralig‘iga nisbatan ruxsat etiladigan kenglik chegarasi topiladi:

$$V_{old} = V_{or} \pm (b_{or} Q b_{old}) / 2$$

bu erda: b_{or} – orqa g‘ildiraklar shinasini kengligi, mm;

oldingi g‘ildiraklar shinasining kengligi, mm.

G‘ildiraklar oralig‘i rostlangandan keyin tanlangan sxema bo‘yicha himoya yo‘lagining kengligi aniqlanadi.

$$H_{xy} = X + Y = \frac{S(n+1) - (B+b)}{2} = \frac{(B-b) - S(n-1)}{2}$$

Himoya yo‘lagining aniqlangan miqdorlari agrotexnik talabga mos kelishi taxlil qilinadi va unga asosan xulosa beriladi.

Ishning bajarish tatibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga quyidagi birlamchi ma’lumotlarga: ekin turi _____, qatorlar orasini kengligi _____ mm, himoya yo‘lagini kengligi _____ mm, traktor rusumi _____, g‘ildiraklar sxemasi _____ ga ko‘ra alohida variantlar (1-jadval) bo‘yicha ishni bajarish topshiriladi.

2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan g‘ildirakli traktor oldida o‘tkaziladi.

Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: rusumi _____, oldingi va orqa g‘ildiraklar oralig‘i _____ mm, shinalarining kengligi _____ mm, agrotexnika masofasi _____ mm o‘lchab olinadi.

1-jadval

Qator oralariga ishlov berishning agrotexnik ko‘rsatgichlari

Variant-lar	Ekinlar turi	Qator orasi, mm	O‘sish balandligi, mm	Himoya yo‘lagini kengligi, mm
1	Paxta	600	900-1200	200
2	Paxta	900	900-1200	300
3	Makkajo‘xori	700	600-800	300
4	Kartoshka	700	400-500	400

3. Toshiriqqa asosan qabul qilingan traktor shinasi himoya yo‘lagini bosmasdan xarakatlanish sharti ($S - b \geq X + Y$) aniqlanadi.

4. Traktorning orqa G‘ildiraklari oraliq masofasi B_{or} aniqlanadi.

5. 4X2 yoki 4X4 sxemali traktorlar uchun oldingi G‘ildiraklar oralig‘i B_{old} ni orqa G‘ildiraklar oralig‘iga B_{or} nisbatan o‘zgarish miqdorlari topiladi.

6. G‘ildiraklar oralig‘i rostlangandan keyin tanlangan sxema bo‘yicha himoya yo‘lagining kengligi H_{hy} hisoblanadi.

7. Aniqlangan ko‘rsatgichlar agrotexnik talabda ko‘rsatilgan himoya yo‘lagi kengligiga solishtiriladi va xulosa qilinadi.

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo'yicha hisob-kitoblar va olingan ma'lumotlarga asosan traktorning ko'rinishi 1-rasmda ko'rsatilgan holda chiziladi va uning o'lchamlari ko'rsatiladi.

Nazorat savollari:

1. O'simliklar himoya yo'lagining mohiyati nimadan iborat?
2. Nima sababdan to'rt g'ildirakli traktorlarda old g'ildiraklar oralig'ini ham rostlash talab etiladi?
3. Nima uchun o'simliklar rivojlanib borgan sari himoya yo'lagini keng olish talab etiladi?

2-LABORATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Pnevmatik shinalar holatini tuproqilgichning yeyilish darajasi bo‘yicha baholash


Ishning maqsadi: Pnevmatik shinalar tuproqilgichining yeyilish darajasini aniqlash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: G‘ildirakli traktor, ruletka, lineyka, shtangentsirkul-chuqur o‘lchagich ($\pm 0,1$ аниқликда), maxsus moslamalar.

Ma’lumki, traktoring yetaklovchi G‘ildiraklari shinalarining tuproqilgichini texnik holati, ya’ni yeyilishi uning shataksirashiga qatta ta’sir ko‘rsatadi.

Agar ularning yoyilish daraja 80 foizdan yuqori bo‘lsa, bunday shinalar traktordan yechib olinib, ta’mirlashga yuborish talab etiladi. Chunki bunday holatda yetaklovchi G‘ildiraklarning shataksirashi 20...28 foizga oshishi natijasida agregatning ish unumi 10...12 foizga kamayishi, yoqilg‘i sarfi esa 6...8 foizga ko‘payishi mumkin.

Pnevmatik shinalarning texnik holatini aniqlash uchun protektori chang va loydan tozalanadi. Shundan so‘ng shinaning yugurish yo‘lakchasi (tuproqqa tegib turadigan qismi) ko‘zdan kechiriladi va eng ko‘p yeyilgan qismi aniqlanib, o‘lchashlar o‘tkaziladigan maydoncha (2 - rasm) mel bilan chizib chiqiladi.



2-rasm. Tuproqilgichning yeyilish darajasini aniqlash:

a va g - o‘lchash joylari; b-shtangen-chuqur o‘lchagich bilan o‘lchash;

v – moslama yordamida o‘lchash;

1-shtangen-chuqur o‘lchagich;

2- tuproqilgich; 3- moslama.

Maydonchaning eni V yugirish yo‘lakchasi enining yarmidan ko‘p bo‘lmasligi, uzunligi A esa G‘ildirak radiusidan oshmasligi kerak. Shtangen-chuqur o‘lchagich 1 yoki moslama 3 yordamida protektor asosi yoki yarim ko‘prikchalar o‘rnatalgan joylardan tashqari eng ko‘p yeyilgan joylar o‘lchanadi. Tuproqilgich 2 ning balandligi yugirish yo‘lakchasing markaziga yaqin joyidan o‘lchanishi kerak.

Tuproqilgichning yeyilish darjasini quyidagi formula bilan topiladi:

$$\delta = 100 - \frac{h}{H} \cdot 100, \%$$

Bu erda: δ – tuproqilgichning yeyilish darjası, %; h - tuproqilgichning o‘lchangan balandligi, mm; H – yangi shina tuproqilgichining balandligi, mm.

Tuproqilgichning yeyilish darjası o‘ng va chap G‘ildiraklar shinalari uchun aniqlanib, ularning farqi **F** aniqlanadi:

$$\Phi = \delta_{\text{ънг}} - \delta_{\text{чап}}, \%$$

Uning yeyilish darajasi 80% dan, o'ng va chap shinalar bo'yicha farqi 6% dan oshmasligi kerak.

Aniqlangan ko'rsatgichlar yangi shina ko'rsatgichlariga (1-ilova) solishtiriladi va xulosa qilinadi.

Ishning bajarish tatibi:

1. Talabalar guruhlarga bo'linib, ularga _____ rusumli G'ildirakli traktorda ishni bajarish topshiriladi.

2. Laboratoriya ishi topshiriqda ko'rsatilgan traktor oldida o'tkaziladi. Uning quyidagi ko'rsatgichlari: rusumi _____, oldingi va orqa G'ildiraklar shinalarining eni _____ mm, tuproqilgichning balandligi _____ mm o'lchab olinadi.

3. Pnevmatik shinalarning texnik holatini aniqlash uchun uning protektori chang va loydan tozalanadi.

4. Shinaning yugurish yo'lakchasi ko'zdan kechiriladi va eng ko'p yeyilgan qismi aniqlanib, o'lhashlar o'tkaziladigan joyi mel bilan chizib chiqiladi.

5. Tuproqilgichning yeyilish darajasi δ o'ng va chap g'ildiraklar shinalari uchun alohida aniqlanib, ularning farqi F topiladi.

6. Aniqlangan ko'rsatgichlar yangi shina ko'rsatgichlariga solishtiriladi va xulosa qilinadi.

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi va olingan ma'lumotlarga asosan shina tuproqilgichining o'lhash joylari 2-rasmda ko'rsatilgan holda chiziladi va aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etilganligi to'g'risida xulosa keltiriladi.

Nazorat savollari:

1. Shina tuproqilgichining vazifasi nimadan iborat?

2. O'ng va chap g'ildiraklar shinalari tuproqilgichlarining yeyilish darajasini farqi 6 % oshsa qanday xulosa qilinishi kerak?

3. Nima uchun shina tuproqilgichining yeyilish darajasi 80 % dan yuqori bo'lsa uni almashtirish tavsiya etiladi?

3-LABORATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:G‘ildirakli traktorlar rul va tormoz mexanizmlari holatini tekshirish va sozlash

Ishning maqsadi: G‘ildirakli traktorlarning boshqarish mexnizmlari holatini tekshirish va sozlash tartibini o‘rganish.


Kerakli jihozlar: G‘ildirakli traktor, ruletka, lineyka, dinomametr-burchak o‘lchagich.

G‘ildirakli traktorlarning asosiy boshqarish mexanizmlariga rul mexanizmi va diskli tormozlar kiradi. Bu mexanizmlarning xarakatini o‘zgarishi traktorchining ish faoliyatiga va hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

G‘ildirakli traktor rul mexanizmining holati quyidagicha tekshiriladi.

Gidrokuchaytirgichi bor bo‘lgan g‘ildirakli traktorlarda uning dvegateli yurgazilib, oldingi g‘ildiraklari traktorning to‘g‘ri chiziqli xarakatlanish holatiga qo‘yiladi. Gidrokuchaytirgichi yo‘q traktorlarda dvegatelni yurgizish shart emas.

Dinamometr-burchak o‘lchagich qisqichlari 3 (3-rasm) yordamida rul chambaragiga, ko‘rsatgich nayza 2 esa qo‘zg‘almas qismiga shunday mahkamlanadiki, bunda ko‘rsatgich nayzaning uchi dinomametr shkalasidagi “0”raqami qarshisiga to‘g‘ri holatda mahkamlanadi.



3-rasm. Rul chambaragini salt burilishini tekshirish:

- 1 va 5 – shkalalar;
- 2-nayza-ko‘rsatgich;
- 3- qisqich; 4-dastak.


So‘ngra dinamometrning dastagi 4 dan ushlab unga 10 N kuch qo‘ygan xolda rul chambaragi oldin bir tarafga, so‘ngra ikkinchi tarafga buriladi.

Rul chambaragiga qo‘yiladigan kuchning miqdori shkala 5, salt xarakati esa shkala 1 bilan nazorat qilinadi va uning miqdorlari o‘lchanadi. Masalan, agar rul chambaragi 10 N kuch bilan o‘ng tarafga burilganda ko‘rsatgich nayza 10^0 ga

burchakka burilsa, chap tarafga burilganda 15° ni ko'rsatsa, u holda salt burilish $10^{\circ}+15^{\circ}=25^{\circ}$ ni tashkil etadi.

Texnik shartga ko'ra rul chambaragining salt burilishi 15° dan va burish kuchi 50 N dan yuqori bo'lmasligi kerak. Agar rul chambaragining salt burilishi texnik shartdan kam yoki ko'p bo'lsa rul mexanizmini sozlash lozim.

Rul mexanizmini sozlash (MTZ-80 traktori misolida) quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun korpus 10 (4-rasm) va qopqoq 11 dan moy quyish naychalari yechib olinadi va qopqoq 11 ochiladi.



4-rasm. MTZ-80 traktori

rul mexanizmini rostlash:

1-sektor; 2-chervyak; 3-rostlash vtulkasi; 4-boltlar; 5 - chervyak oxiri; 6-reyka; 7-qistirgich; 8-vintlar; 9- kolonka; 10- korpus; 11- qopqoq; 12-bolt; 13-burish vali,


So'ngra gayka 13 qotiriladi va sektor 1 bilan reyka 6 tishlari orasidagi tirqish tekshiriladi. Agar tirqish me'yordan ($0,1\dots0,3$ mm) keng bo'lsa, uni kichraytirish uchun vintlar 8 bo'shatiladi va qopqoq orasiga qo'yilgan qistirgichlar 7 dan (prokladka) 1-2 tasi olinadi, tirqish kengligi kam bo'lsa qo'yiladi va boltlar qayta qotiriladi.

Yechib olingen barcha detallar joyiga o'rnatib mahkamlanadi. Sozlash oxirida bolt 12 burish vali 13 ga tekkuncha qotiriladi, so'ngra aylananing $\frac{1}{8}\dots\frac{1}{10}$ miqdorida orqaga buraladi va mahkamlagich gayka bilan qattiq mahkamlanadi.

Diskli tormozlarning holatini tekshirish va sozlash (MTZ-80 traktori misolida) quyidagicha bajariladi. Tormozlarning xarakat uzatish mexanizmini to'g'ri ishlashini tekshirish uchun o'ng va chap pedallarni navbatma- navbat 120 N kuch bilan bosiladi va ularning to'liq bosilish masofasi lineyka yordamida o'lchanadi. Bunda ikkala pedalning yurish masofasi bir xil bo'lib, 70...90 mm ni tashkil etishi kerak.

Agar pedallarning yurish masofasi bir-biriga mos kelmasa tortqichning mahkamlagich gaykasi 1 (5-rasm) bo'shatiladi va rostlash bolti 2 ni kerakli tomonga

burab uning uzunligini uzaytirish yoki qisqartirish bilan pedalning to‘liq bosilish yo‘lining uzunligi rostlanadi. So‘ngra mahkamlagich gayka yordamida tortqich qattiq mahkamlanadi.



5-rasm. MTZ-80 traktori tormoz mexanizmini rostlash:

1-mahkamlagich gayka;
2-rostlash bolti; 3-tormoz pedali;
4- fiksator

Sozlash ishlari tugallangandan keyin tormozlarning ishlashi traktorni xarakatlantirib tekshiriladi. Traktor 20 km/soat tezlik bilan quruq, tekis asfalt yoki beton yo‘lda xarakatlanganda uning tormozlanish yo‘li 6 metrdan oshmasligi kerak.

Transport traktorlari bir necha tirkamalar (traktor poezdlari) bilan ishlatilganda uning quriq beton yo‘ldagi xarakatlnishi tezligi 20 km/soat bo‘lgan paytdagi tormozlanish yo‘lining texnik shartlari 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval

Tormozlanish yo‘lining traktor va tirkama massasiga bog‘liqligi

Traktor massasi, t	Tormozlanish yo‘li, m		
	tirkamasiz	bir tirkamali	ikki tirkamali
4 tonnagacha	6,0	6,5	7,5
4 tonnadan yuqori	6,5	7,5	9,0

Ishning bajarish tatibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga _____ rusumli G‘ildirakli traktorda ishni bajarish topshiriladi.
2. Laboratoriya ishi topshiriqda ko‘rsatilgan traktor oldida o‘tkaziladi.
3. Traktor quriq, tekis (gorizontal) qattiq maydonchaga qo‘yiladi.
4. Rul chambaragini salt burilish burchagi aniqlanadi.

5. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi.
6. Traktorning to‘liq tormozlanish yo‘li aniqlanadi.
7. Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etilganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozdar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi hamda olingan ma’lumotlarga asosan rul va tormoz mexanizmlarining o‘lchash joylari 5 va 7-rasmlarda ko‘rsatilgan holda chiziladi va aniqlangan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etilganligi to‘g‘risida xulosa keltiriladi.

Nazorat savollari:

- 1.Rul chambaragining salt burilishini mohiyatini tushintiring.
- 2.Rul chambaragining salt burilishi 15 gradusdan ko‘p yoki kam bo‘lsa qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- 3.Traktorning tormozlanish yo‘li qaysi tezlikda aniqlanadi?
- 4.Transport vositasining yuk tashishda tormozlanish yo‘li uzun bo‘lishi nimalarga bog‘liq ekanligini ayting.


4-LABORATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Mineral o‘g‘it sochgich miqdorlagichini o‘g‘it solish me’yoriga rostlash.

Ishning maqsadi: Mineral o‘g‘it sochgich miqdorlagichini rostlash va ishini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: Traktorga agregatlangan NRU-0,5 disksimon o‘g‘it sochgich; 20...30 kg donador mineral o‘G‘it; ruletka; o‘g‘it solish uchun idish; tarozi; sekundomer.

Mineral o‘g‘itni sepishda asosan NRU-0,5 rusumli disksimon sochgichlardan foydalaniladi. Bu mashina o‘g‘it sochuvchi disk 1 (6-rasm), dastak 2, bunker 3, koromislo 4, krivoship-shatun mexanizmi 5 va reduktor 6 dan tashkil topgan.



6-rasm. NRU-0,5 mineral o‘g‘it sochgichning texnologik ish jarayoni:

1-sochuvchi disk; 2-dastak;
3-bunker; 4-koromislo;
5-krivoship shatun mexanizmi;
6-reduktor; 7- sochish plankasi

O‘g‘it sochuvchi disk traktorning quvvat olish vali yordamida aylanma harakatga keltiriladi. Sochiladigan o‘g‘it miqdori dastak (2) orqali sochish tirqishi hamda sochish plankasi (7) amplitudasini o‘zgartirish yo‘li bilan sozlanadi. Diskka tushgan o‘g‘it uning kurakchalari va markazdan qochma kuch ta’sirida 10-12 m kenglikda er betiga sochiladi.

Dalaga chiqarishdan oldin o‘g‘it sochgich birlamchi sozlanib, keyin dalada sinalganidan so‘ng, aniqlik kiritiladi. Sochuvchi diskni gorizontal holatga keltirib qo‘yishga e’tibor berish lozim. Bu holat traktor o‘rnatish qurilmasi yordamida bajariladi. Disk er yuzasiga nisbatan 70 – 75 sm balandlikda o‘rnatilsa, yaxshi natijalarga erishiladi.

Topshirig‘ida berilgan bir getktarga sepish rejalarshirilgan Q_a miqdordagi o‘G‘itni ta’minlash uchun o‘g‘it sochgichning diskiga bunkerdan bir minutda tushishi lozim bo‘lgan o‘g‘it miqdori aniqlanadi.

$$q_t = \frac{Q_a B_a V_a}{600}, \text{ kg/min}$$

bu erda: Q_a - topshiriqda berilgan o‘g‘it sepish me’yori, kg/ga;

B_a – mashinining qamrash kengligi, m;

V_a - mashinaning xarakat tezligi, km/soat (ilova).

Keyin esa, tajriba o‘tkazilib, o‘g‘it sochgichning ushbu sozlanishida bir minutda bunkerdan to‘kiladigan o‘g‘it miqdori q topiladi va q_t bilan solishtiriladi. Keyin esa, tajriba o‘tkazilib, o‘g‘it sochgichning ushbu sozlanishida bir minutda bunkerdan to‘kiladigan o‘g‘it miqdori q topiladi va q_t bilan solishtiriladi.

q ni aniqlash uchun o‘g‘it sochuvchi disklar yoki ularni harakatga keltiradigan zanjir echib qo‘yiladi. Traktorning quvvat olish vali (QOV) normal tezlikda bir minut davomida aylantirilib, to‘xtatiladi. Disklar tagiga qo‘yilgan idishga tushgan o‘g‘it miqdori q tarozida tortilib aniqlanadi. Agar q bilan q_t orasidagi farq $\pm 10\%$ dan ortiq bo‘lsa, sozlash takrorlanadi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga berilgan o‘g‘it sepish me’yori Q_m ning turli miqdorlari uchun lohida variantlar bo‘yicha miqdorlagichning bir minutdagi ish unumi q ni aniqlash va rostlash ishini bajarish topshiriladi.

2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan NRU-0,5 bilan jihozlangan agregat oldida o‘tkaziladi. Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: agregat tarkibi _____, qamrov kengligi _____m , traktorni texnologiq tezliklarga mos keladigan tezligi _____km/soat yozib olinadi.

3. Toshiriqqa asosan o‘g‘it sochgichning diskiga bunkerdan bir minutda tushishi lozim bo‘lgan o‘g‘it miqdori q topiladi.

4. O‘g‘it sochkichning diskiga bunkerdan bir minutda tushgan o‘g‘it miqdori q aniqlanadi va talab etilayotgan me’yor q_t bilan taqqoslanadi. Olingan natijalarga ko‘ra hulosa beriladi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarga asosan 9-rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishda o‘g‘it miqdorlagich ko‘rinishi chiziladi hamda bajarilgan hisoblar va olingan ma’lumotlarga ko‘ra xulosa beriladi.

Nazorat savollari:

1. Qanday maqsadda o‘g‘it sochgichning ishchi qamrov kengligini bilish kerak?
2. Bir gektar maydonga sepiladigan o‘g‘it miqdori mashinaning qanday ko‘rsatkichlariga bog‘liq?
3. Bunker tubidagi to‘kish darchasiga o‘g‘it uzliksiz tushib turishi qanday ta’milanadi?
4. O‘g‘it sochgichning ishchi qamrov kengligi qanday omillarga bog‘liq bo‘ladi?


5-LABORATORIYA mashg‘uloti

Mavzu: Tishli va disksimon tirmanning tuproqqa ishlov berish sifatini baholash

Ishning maqsadi: Tishli va disksimon tirmalarning tuproqqa ishlov berish sifatini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: BZSS-1,0, BDT-3 rusumli tishli va disksimon tirma; ruletka; lineyka; plakatlar.

Tishli tirmalar dalani ekin ekishga tayyorlash uchun eng ko‘p ishlatiladigan quroq hisoblanadi. Ular tuproq yuzasining ustki qismini sayoz yumshatish, kesaklarni maydalash, o‘simlik qoldiqlarini haskashlab chiqarib tashlash, qatqaloqni buzish kabi ishlarni bajarishda yaxshi natija beradi. Tirma tishlari turli shaklda yasalib, ular ma’lum tartibda joylashtiriladi (7-rasm).




7-rasm. Tirma tishlarining o‘rnatish sxemasi (A) va ularning ko‘ndalang kesimlariga qarab turlanishi (B):

t-vintlar qadami; s-izlar qadami; a-kvadrat; b-romb; v-yulduzcha; g-ellips; d-doira;

Ma’lumki, tishi erga a chuqurlikka botirilgan tirma V yo‘nalishda sudralsa (10A-rasm), tuproq cho‘qqisi $\alpha=40\dots50^{\circ}$ bo‘lgan uchburchak shaklida (8-rasm) yumshatiladi. Uning balandligi a ga teng, yumshatish kengligi (asosi) v esa tishning yo‘G‘onligidan bir necha marta keng bo‘ladi.

O‘zaro S masofadagi yonma-yon izlar orasida uchburchak PNM shaklidagi yumshatilmagan do‘ngchaqoladi. Ushbu yumshatilmagan do‘ngcha maydonining umumiyl ishlov berilgan maydonga nisbati tirma ishining sifat ko‘rsatgichini belgilaydi.

Tirma ishining sifat ko'rsatkichini eng maqbul miqdori quyidagi holatda bo'lishi talab etiladi. Agrotexnik talabalarga ko'ra yumshatilmagan do'ngchaning balandligi **h** tirmanning ishlov berish chuqurligi **a** ga nisbatan quyidagicha aniqlannadi, ya'ni $h \leq 0,5a$.



8 – rasm. Tish ta'sirida tuproqning deformatsiyalanishi

Berilgan variantlardagi chuqurlik **a** va hamma variant uchun bir xil kattalikka ega bo'lgan **S** oraliqdagi uchburchaklarni chizib, do'ngcha balandligi **h** va **F_{NPM}** maydoni topiladi.

So'ngra h/a va F_{NPM}/F_{ABCD} nisbatlarining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash uchun $h = f(a)$ va $\eta = f(a)$ grafiklari chizilib, tegishli xulosalar yoziladi.

Ishning bajarish tatibi:

1. Talabalar guruhlarga bo'linib, ularga ishni alohida variantlar (3-jadval) bo'yicha bajarish topshiriladi.
2. Laboratoriya ishi tishli tirmanning oldida o'tkaziladi. Uning quyidagi ko'rsatgichlari: tirma rusumi _____, tirma tishining uzunligi _____ mm, vint qadami _____ mm; izlar qadami _____ mm o'lchab yozib olinadi.
3. Topshiriqda berilgan tirma tishlarining va ishlov berish o'lchamlariga asosan talaba tomonidan qabul qilingan masshtabga asosan tuproqning deformatsiyalash sxemasi (8-rasm) chiziladi.
4. Har bir variant uchun deformatsiyalash sxemasidan yumshatilmagan do'ngchaning balandligi **h** o'lchab olinadi.
5. Qo'shni izlar orasida yumshatilmagan do'ngcha bo'lgan **NPM** uchburchagini(10 – rasm) hamda ikki tish yumshatishi lozim bo'lgan **ABCD** to'rburchagini maydonlari **F_{NPM}** va **F_{ABCD}** laraniqlanadi.
6. Tuproqqa ishlov berish sifat ko'rsatkichi $\eta = (F_{AVSD} - F_{NPM})/F_{ABCD}$ topiladi.

7. Olingan ma'lumotlar 4-jadvalga kiritiladi va ularga asosan $\eta = f(a)$ grafiklari chizilib, tegishli xulosalar yoziladi.

3-jadval

Agrotexnik ko'rsatgichlar

Guruhi tartibi	Variantlar	Ishlov berish chuqurligi (a), mm	Tish izlari oralig'i (S), mm	Tuproq yorilishi deformatsiy asining tarqlish burchagi (Θ), grad	Tishning uzunligi, mm
I	1	40	40	40	150
	2	60			
	3	80			
	4	100			

4-jadval

Hisoblash natijalari


Guruhi tartibi	Variantlar	berish chuqurligi (a), mm	magan do'ngchanin g balandligi, $\frac{c}{NPM}$, mm	uchburchag yuzasi, mm ²	AVSD to'rtburchak yuzasi, mm ²	$\eta q (F_{AVSD} - F_{NPM})/F_{ABCD}$
I	1	40	$\frac{c}{NPM}$	uchburchag yuzasi, mm ²	AVSD to'rtburchak yuzasi, mm ²	$\eta q (F_{AVSD} - F_{NPM})/F_{ABCD}$
	2	60				
	3	80				
	4	100				

1-ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, topshiriqda berilgan tirma tishlarining va ishlov berish o'lchamlariga asosan chizilgan tuproqning deformatsiyalash sxemasi (8-rasm) chiziladi. Olingan ma'lumotlarga (4-jadval) asosan chizilgan $\eta q f(a) van \eta = f(a)$ grafiklari keltiriladi va olingan natijalar bo'yicha xulosalar beriladi.

Disksimon tirma kesaklarni maydalab, tuproqni sifatli yumshatadi, begona o'tlar va ularning qoldiqlarini oson kesib maydalaydi, tuproq qatlamini aG'darmasdan qisman aralashtiradi. Eng muhim, zinch va qattiq yerlarga ishlov berishda yaxshi natija beradi. TiG'i tezda o'tmas bo'lib qolmaydi.

Ma'lumki, disksimon tirmanning erga botish chuqurligi **a** (ballast yuk o'zgarmagan holda) va tuproqni maydalab aralashtirish darajasi, uning xujum burchagi **a** ga bog'liqdir. **a** burchagi ortishi bilan tuproq ostida yumshatilmasdan qoladigan do'ngchalar balandligi **h** yoki aniqroG'i – do'ngcha ko'ndalang kesim yuzasi kamayib, yumshatish



9 – rasm. Disksimon tirmanning tuproqqa ta'siri.

chuqurligi **a** ning o'zgaruvchanligi kamayadi, ishlov berish sifati ortadi. Ammo diskning sudrashga qarshiligi (9-rasm) keskin ortib ketadi.

Dala sharoitida ishlayotgan tirma disklari qoldirgan do'ngchalar maydonini aniqlash qiyindir. Shu sababli, amalda disk ishini sifat ko'rsatkichi deb do'ngcha balandligi **h** qabul qilingan bo'lib, uning mumkin bo'lgan maksimal qiymati cheklangan ($h \leq 0,5a$).

Bu talabni qondirish uchun $\alpha=10^0...25^0$ bo'lishi maqbul hisoblanadi.

Do'ngcha balandligi **h** quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$h = \frac{D}{2} - \frac{\sqrt{D^2 - b^2 \operatorname{ctg} \alpha}}{2}$$

Bu erda **D** – diskning diametri, mm.

b - disklar orasidagi masofa, mm

α – disklarni hujum burchagi, grad.

Ammo, yumshatilmagan do'ngchani tasavvur qilish uchun **h** ni **a** burchakning bir necha miqdorlariga boqliq holda aniqlqnib **h** ni grafik usulda aniqlash maqbul hisoblanadi.

Ishning bajarish tatibi:

1. Talabalar guruhlarga bo'linib, ularga ishni alohida variantlar bo'yicha bajarish topshiriladi. (5-jadval)

5-jadval

Agrotexnik ko‘rsatgichlar

2. Laboratoriya ishi diskli tirmanning oldida o'tkaziladi. Uning quyidagi ko'rsatgichlari: tirma rusumi _____, diskning diametri _____mm, disklar oralig'i _____mm o'lchab yozib olinadi.

3. Topshiriqda berilgan tirma disklari va tuproqqa ishlov berish o‘lchamlariga asosan tuproqning deformatsiyalash sxemasi (9-rasm) chiziladi.

4. Har bir variant uchun deformatsiyalash sxemasidan yumshatilmagan do'ngchaning balandligi **h** hisoblanadi.

5. Olingan ma'lumotlar 6-jadvalga kiritiladi va ularga asosan $\eta = f(a)$ va $f(a)$ grafiklari chizilib, tegishli xulosalar yoziladi.

6-jadval

Hisoblash natijalari

2-ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, topshiriqda berilgan tirma tishlarining va ishlov berish o‘lchamlariga asosan chizilgan tuproqning deformatsiyalash sxemasi (12-rasm) chiziladi. Olingan ma’lumotlarga (6-jadval) asosan chizilgan $\mathbf{h} = \mathbf{f}(a)$ va $\boldsymbol{\eta} = \mathbf{f}(\boldsymbol{\alpha})$ grafiklari keltiriladi va olingan natijalar bo‘yicha xulosalar beriladi.

Nazorat savollari:

1. Qanday sabablarga ko‘ra bir plankadagi tishlar oralig‘i izlar qadamidan katta qo‘yiladi?
2. Nima uchun tishning uchi qiyiq kesilgan bo‘ladi?
3. Qanday maqsadda tirma tishlari ko‘p kirimli vintsimon maydon bo‘ylab joylashtiriladi?
4. Qanday sabablarga ko‘ra disksimon tirma bilan serkesak shudgorga ishlov berish ma’qul bo‘ladi?
5. Disksimon tirmanning xujum burchagi qanday maqsadda o‘zgartiladigan qilinadi?
6. Qo‘sni disklar oralig‘ida yumshatilmasdan qoldirilgan do‘ngcha balandligi qanday omilga bog‘liq?
7. Yumshatilmasdan qoldirilgan do‘ngchalar maydoni qanday omilga bog‘liq?

6-LOBARATORIYa mashg‘uloti

Mavzu:Chigit seyalkasi miqdorlagichini ekish me’yori va uyalar soniga rostlash

Ishning maqsadi: Chigit seyalkasi urug‘ miqdorlagichini uyalar oralig‘iga nisbatan rostlash va ishini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: SChX-4 seyalkasi yoki laboratoriya ishiga moslangan seyalka moslamasi, urug‘lik chigit , paket (xaltacha), tarozi.

Ma’lumki, bir gektar maydonga ekilgan chigit soni, keyinchalik olinadigan G‘o‘za tuplari soni, tuplari oralig‘i to‘g‘ri belgilansa o‘simliklar avj olib o‘sishi, ularning hosili yuqori va sifatli bo‘lishini olim va mutaxassislar tomonidan aniqlangan.

Shu bilan birga ekilgan chigitning asosiy qismidan unib chiqqan G‘o‘za nihollarini yaganalashda, kultivatsiyalashda, ob–havoning, zararkunanda va kasalliklarning salbiy ta’siri, chopiq o‘tkazishda, egat olishda o‘simliklarning shikastlanishi hisobiga bиринчи hosil terilgunga qadar bo‘lgan davr ichida gektariga 10 – 15 ming va undan ko‘proq G‘o‘za tupi nobud bo‘ladi.

Agar tuproqqa agrotexnik talabga mos darajada ishlov berilmasa, chigit tuproq holatiga to‘g‘ri keladigan kerakli chuqurlikda ko‘milmasa, suG‘orish sifatsiz bajarilsa, gektariga 20 – 25 ming tup G‘o‘za ko‘chati tabiiy ravishda kamayib ketadi. Shu sababli, chigitning unuvchanlik darajasi va yuqoridagi holatlar e’tiborga olinib, amalda belgilangan ko‘chat soniga nisbatan 30% gacha ortiq chigitni tuproqqa ekadigan qilib seyalkani sozlash kerak.

SChX-4 rusumli seyalka tuksizlantirilgan chigitni to‘rt qatorli uyalab ekishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning ishlash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi.

Agregatlanayotgan seyalka (13-rasm) G‘ildiragi aylanib, tishlar soni Z_1 bo‘lgan yulduzcha 2 va zanjir 3 orqali Z_2, Z_3, Z_4, Z_5 yulduzchalar bloki 4 kiydirilgan etaklanuvchi val 5 ni aylantiradi.

Val 5 ning aylanma harakati Z_6 va Z_7 konussimon shesternyalar orqali teleskopik val 7 yordamida miqdorlash apparatiga uzatiladi.


Val 7 ga bikr o‘rnatilgan Z_8 shesternyasi va bloklar $Z_9 – Z_{10}$ orqali Z_{11} va unga mahkamlangan urug‘ ajratuvchi uyachali disk 9 aylantiradi.

Aylanayotgan disk gardishidagi uyachalarga tushgan chigit urug‘ qutisi 8 tubidagi darcha orqali to‘dalovchi disk 11 ustiga tashlanadi. Val 7 bilan birgalikda aylanayotgan to‘dalovchi disk kurakchalari chigitlarni to‘plab ekkich 12 ning ichiga tushiradi. Seyalkaning ikkita G‘ildirakni har biri er bilan ilashishi hisobiga aylanma harakat qilib, har biri ikkitadan ekish apparatini ishga tushiradi.

Bir gektar maydonga belgilangan miqdordagi chigit ekish uchun uyalar soni har xil bo‘lgan ajratuvchi disk o‘rnatish yoki uning aylanish tezligini o‘zgartish kerak bo‘ladi.

Ajratuvchi disk (u bilan birga to‘dalovchi disk) tezligini o‘zgartirish uchun harakat yuritmasidagi zanjir 3 ni $Z_2 \dots Z_5$ larning biriga ulash kerak. Ammo, disk tezligi iloji bo‘lsa, kamroq bo‘lgani ma’qul, aks holda, uyalarga chigit tushib ulgurmasligi mumkin. Uyalar orasi va ularda ko‘milgan chigitning miqdori kurakchalar soni har xil bo‘lgan to‘dalovchi disk o‘rnatish bilan o‘zgartiriladi.

Misol uchun, ajratuvchi diskda 12 ta uyacha bo‘lsa, u to‘liq bir aylanganida 12 dona chigit ajratib oladi. Shu vaqtda ikki kurakchali to‘dalovchi disk ishlatsilsa, har bir uyaga 6 dona chigit, uchta kurakcha bo‘lsa 4 dona, to‘rtta kurakcha bo‘lsa 3 dona, 6 ta kurakcha bo‘lsa 2 dona chigit tashlanadi.



10 – rasm. Chigit seyalkasi disksimon miqdorlagichiga

harakat uzatish sxemasi.

1 – G‘ildirak; 2 – $Z_1 = 45$ yulduzchasi; 3 – zanjirli uzatma; 4 – almashtirila-digan yulduzchalar ($Z_2 = 12$; $Z_3 = 16$; $Z_4 = 18$; $Z_5 = 25$) bloki; 5 – val; 6 – konusimon shesternyalar ($Z_6 = 22$; $Z_7 = 22$); 7 – teleskopik val; 8 – urug‘ qutisi; 9 – uyachali ajratuvchi disk; 10 – shesternyalar blogi ($Z_8 = 12$; $Z_9 = 24$; $Z_{10} = 12$; $Z_{11} = 24$); 11 – to‘dalovchi disk; 12 – ekkich; 13 – ekkich sirpanG‘ichi.

Quyidagi 7-jadvalda 90 sm qator oralig‘iga chigit ekadigan seyalka bilan bir uyaga ma’lum miqdordagi chigitni ekib, har xil uyalar oralig‘ini hosil qilish uchun, zanjirni $Z_2 \dots Z_5$ blokdagi yulduzchaga ulash tavsiyalari keltirilgan.

Uyalar oralig‘ini ta’minlash uchun tavsiyalar

Chigit ekilgan uyalar oralig‘i, sm	Bir uyaga ekiladigan chigit soni, sm	To‘dalovchi disk kurakchalarini soni	Zanjir ulanadigan yulduzchalar	
30	3	4	$Z_1 = 45$	$Z_5 = 25$
30	4	3	$Z_1 = 45$	$Z_4 = 18$
20	3	4	$Z_1 = 45$	$Z_3 = 16$
20	4	3	$Z_1 = 45$	$Z_2 = 12$
15	3	4	$Z_1 = 45$	$Z_2 = 12$

Labaratoriya ishida bir gektar erga belgilangan N dona chigit urug‘ini ekishni ta’minlash uchun harakat yuritmasidagi Z_2 , Z_3 , Z_4 , Z_5 yulduzchalarining qaysi biriga zanjir ulash lozimligi aniqlanadi.

Agar qatorlar oralig‘i V ma’lum bo‘lsa (0,9 m), qatorning bir metr uzunligiga M dona chigit ekilishini ta’minlash kerak, ya’ni:

$$M = NB/10000$$

bu erda: N – bir gektarga belgilangan urug‘ me’yori, dona

B – qator oralig‘i, m

G‘ildirak bir aylanganida quyidagi dona chigit ekilishi kerak.

$$Q = 2\pi RM / 10000 \eta$$

bu erda R – G‘ildirak radiusi, m.

η - G‘ildirakni sirpanish darajasi, $\eta = 0, 85...0,95$.

Agar chigit ajratib beradigan miqdorlovchi diskdagi uyachalar soni K bo‘lsa, Q dona chigit ajratib ulgurishi uchun (G‘ildirak bir aylanganida) miqdorlovchi disk $\alpha = 2\pi Q/K$ burchagiga burilib ulgurishi kerak. Miqdorlovchi disk harakatni to‘dalovchi diskning teleskopik validagi uzatish soni $i_t = 4$ bo‘lgan shesternyalardan olishini eslab, apparatlarga G‘ildirakdan harakat uzatadigan Z_2 , Z_3 , Z_4 , Z_5 yulduzchalar kiydirilgan val $\beta q i_t \alpha$ burchagiga burilishi kerak. Buning uchun G‘ildirakdan valga uzatish soni $i_n = \beta / 2\pi$ ni ta’minlaydigan yulduzchani o‘rnatish kerak bo‘ladi.

Seyalka miqdorlagichi harakat yuritmasini sozlashda yulduzchalarning uzatmasi soni quyidagilardan iborat bo‘lib, buning uchun yuritma zanjiri $Z_2 = 12$ yulduzchasiga kiydirilsa, amalda, $i_{a2} = 3,75$; $Z_3 = 16$ ga o‘rnatilsa $i_{a3} = 2,31$; $Z_4 = 18$ ga qo‘yilsa $i_{a4} = 2,50$ va $Z_5 = 25$ bo‘lsa $i_{a5} = 1,8$ uzatish soni ta’minlanadi.

Hisoblab topilgan i_n ga eng yaqin bo‘lgan i_a ni beradigan yulduzchaga zanjir kiydiriladi va tavsiyaning to‘g‘riligi tekshiriladi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga bir gektar erga ekiladigan chigit soni N _____ dona uchun kerakli i_n uzatish sonini aniqlash va yuritma zanjirini $Z_2 \dots Z_5$ blokiga to‘g‘ri ulash bo‘yicha tavsija berish topshiriG‘i beriladi.
2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan SChX-4 seyalkasi yoki laboratoriya ishiga moslangan seyalka moslamasi oldida o‘tkaziladi. Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: seyalka rusumi _____, qamrov kengligi _____ m , qatorlar orasi _____ m yozib olinadi.
3. Seyalkaning texnologik jarayoni sxemasi (10-rasm) chiziladi.
4. G‘ildirak bir aylangandagi urug‘ soni Q topiladi.
5. Miqdorlovchi diskning burilish burchagi α aniqlanadi.
6. Yulduzchalar kiydirilgan valning burilish burchagi β topiladi.
7. G‘ildirakdan valga uzatish soni i_n ni ta’minlaydigan yulduzcha tanlanadi.
8. Hisoblab topilgan i_n ga eng yaqin bo‘lgan i_a ni beradigan yulduzchaga zanjir kiydiriladi va tavsyaning to‘g‘riliги tekishriladi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarga asosan 13-rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishda o‘g‘it miqdorlagich ko‘rinishi chiziladi hamda bajarilgan hisoblar va olingan natijalar bo‘yicha xulosa beriladi.

Nazorat savollari:

1. Bir uyaga ekilayotgan chigit soni qanday o‘zgartiriladi?
2. Chigit ekilgan uyalar oralig‘i qanday o‘zgartiriladi?
3. Bir gektar maydonga ekiladigan chigit soni qanday belgilanadi?
4. Bir gektar maydonga ekiladigan chigit soni qanday o‘zgartiriladi?
5. Qanday vaziyatda seyalka G‘ildiragining sirpanish darajasi ortib ketadi?

7-LOBARATORIYa mashg‘uloti

Mavzu:Don seyalkasi miqdorlagichini don ekish me'yoriga rostlash


Ishning maqsadi: Don seyalkasi urug‘ miqdorlagichini don ekish me'yoriga nisbatan rostlash va ishini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: DEM-3,6 don seyalkasi yoki laboratoriya ishiga moslangan don seyalkasi, urug‘lik buG‘doy, paket (xaltacha), tarozi.

Boshoqli o‘simliklar urug‘larini ekishda SZ-3,6, SZT-3,6, DEM-3,6 rusumli don seyalkalaridan foydalaniladi.

Bu seyalkalarning texnologik ish jarayoni 11-rasmida ko‘rsatilgan. Bunker 1 ga solingan urug‘ uning tubidagi tirkish 2 orqali chiqayotib, aylanayotgan G‘altak 3 ta’sirida urug‘ o‘tkazgich 5 ning ichiga tushadi. Urug‘ o‘tkazgich esa, urug‘ni ekkich 6 ga uzatadi. Ekkich 6 urug‘ni tuproqqa ma’lum chuqurlikda tashlaydi va uni qisman ko‘mib ketadi. Urug‘ni to‘liq ko‘mish uchun turli ko‘rinishdagi ko‘mgich 7 lar xizmat qiladi.

Don seyalkalariga asosan G‘altaksimon miqdorlagichlar qo‘yilgan.



11 – rasm. Don seyalkasini texnologik ish jarayoni:

a – ish jarayon; v – G‘altaksimon miqdorlagichning tuzilishi:

1-bunker; 2-tirkish; 3-G‘altak; 4-tub; 5-urug‘ o‘tkazgich; 6-ekkich; 7-ko‘mgich; 8-qopqoq; 9-to‘plagich;

Bunker tubidagi urug‘ chiqadigan tirkish kattaligini o‘zgartirish urug‘lik don sirtining silliqligi, shakli, to‘kiluvchanligi va yirikligiga moslanib, tub 4 ni surib qo‘yish hisobiga sozlanadi. Bunda to‘kiluvchanligi yuqori bo‘lgan urug‘ bunkerdan betartib

to‘kilib chiqmasligi yoki past bo‘lgan urug‘ esa tirqishga tiqilib qolmasligi talab qilinadi.

G‘altaklarning bir xil miqdorda urug‘ o‘tkazish darajasini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Bir necha G‘altaklar (K dona) belgilangan holatga keltiriladi, ya’ni, ularning sirti bir xil kenglik l_u da ochiladi.

2. Bunkerga urug‘ solinib, G‘altak novlari, urug‘ o‘tadigan tirqishlar urug‘ bilan to‘liq to‘lishi uchun, G‘altaklar 4...5 marta aylantiriladi.

3. Urug‘ o‘tkazgichlarga xaltachalar kiydirilib, G‘altaklar 10 marotaba aylantiriladi.

4. Har bir xaltachaga tushgan urug‘lar massasi tarozida alohida tortilib, ularning m_1 , m_2 , m_3 ... lar miqdorlari yozib olinadi. So‘ngra, xaltachalardagi donlar qo‘silib, umumiyoq oG‘irligi **G** topiladi.

5. Urug‘larni umumiyoq oG‘irligi xaltachalar soni **K** ga bo‘linib, ularning o‘rtacha miqdori m_{ypt} aniqlanadi.

6. Har bir G‘altakdan tushayotgan urug‘ miqdorining o‘rtacha miqdorga nisbatan farqi (**F**) topiladi.

$$F = \frac{m_1 - m_{\text{ypt}}}{m_{\text{ypt}}} \cdot 100\%$$

Agar $F > 3\%$ bo‘lsa, miqdorlagichlar takroran sozlanib, $F < 3\%$ gacha kamayishiga erishiladi.

Seyalka G‘ildiragining 10 marta aylangandagi ekilgan maydon yuzasi topiladi.

$$F = 10\pi D B, \text{ m}^2$$

Bu erda: D – seyalka G‘ildiragining diametri, m.

B - seyalkani qamrash kengligi, m.

Seyalka G‘ildiragining 10 marta aylangandagi ekilgan urug‘ miqdori topiladi.

$$G_a = 10 m_{\text{ypt}} N, \text{ kg}$$

Bu erda: N – seyalkadagi G‘altakli miqdorlagichlar soni, dona.

9. Seyalka bilan bir gektarga ekadigan urug‘ miqdori topiladi:

$$Q_a = \frac{10000 G_a}{F}, \text{ kg/ga}$$

Aniqlangan bir gektarga ekiladigan urug‘ miqdori Q_a talab etilayotgan me’yor Q_T bilan taqqoslanadi va xulosa qilinadi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga don ekish me’yori Q_M ning turli mio‘dorlari uchun lohida variantlar bo‘yicha Q_a ni aniqlash va rostlash ishini bajarish topshiriladi.

2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan DEM-3,6 rusumli don seyalkalaridan jihozlangan agregat oldida o‘tkaziladi.

Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: agregat tarkibi _____, qamrov kengligi _____ m³, traktorni texnologiq tezliklarga mos keladigan tezligi _____ km/soat yozib olinadi.

3. Seyalka texnologik jarayoni sxemasi (11-rasm) chiziladi.

4. Laboratoriya ishiga moslangan seyalka bunkeriga urug‘ solinadi.

5. Bunkerning urug‘ solingan qismidagi G‘altaklarni aylantirib, har bir G‘altak bir marta aylanganida ajratilgan urug‘ miqdorlari (m_1, m_2, \dots) aniqlanadi.

6. $m_1, m_2, m_3 \dots$ lar orasidagi farq darajasi F aniqlanadi. Agar $F > 3\%$ bo‘lib chiqsa, tegishli sozlanishlarni bajarib, $F < 3\%$ bo‘lishi ta’minlanadi.

7. Seyalka bilan bir gektarga ekadigan urug‘ miqdori topiladi. Aniqlangan urug‘ miqdori talab etilayotgan me’yor bilan taqqoslanadi va xulosa qilinadi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarga asosan 14-rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishda o‘g‘it miqdorlagich ko‘rinishi chiziladi hamda bajarilgan hisoblar va olingan natijalarga asosan xulosa beriladi.

Nazorat savollar:

1. Urug‘ning to‘kiluvchanligini qanday maqsadda e’tiborga olish lozim?
2. G‘altaksimon miqdorlagich qanday vaziyatda urug‘ni shikastlantirishi mumkin?
3. Qanday maqsadda seyalkadagi hamma miqdorlagichlar deyarli bir xil urug‘ ajratishiga erishish kerak?

8-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu: Kultivator ishchi qismlarini ekinlar qator orasiga moslash

Ishning maqsadi: Ekinlar qator orasiga ishlov berishda qo‘llaniladigan turli texnologiq jarayonlarni bajarish uchun kultivator ishchi qismlarini tortqichlarda (gryadillarda) joylashtirish bo‘yicha ko‘nikmalar berish.


Kerakli jihozlar: KXM-4 kultivatori, ishchi qismlarini turli ishlarni bajarish uchun joylashtirish shablonlari, chilangarlik asboblari.

Kultivator o‘simliklar qatorlari himoya yo‘lagidagi qatqaloqni yumshatish; qatorlar orasidagi tuproqni yumshatish; begona o‘t ildizlarini kesib-yo‘qotish; sug‘orilgandan keyin qatorlar orasini yumshatish; qatorlar orasidagi tuproqqa mineral o‘g‘it solish; suG‘orish uchun egatlar ochish ishlarini bajaradi.

Paxtachilikda qo‘llaniladigan KXM-4 kultivator–oziqrantirgichlar to‘rt qatorli 60 va 90 sm sxemada ekilgan g‘o‘za va boshka chopiq talab etiladigan ekinlar qator oralarini ishlashga mo‘ljallangan.

Kultivatorlar kutilgan samara keltirishi uchun 7 turdagি ishchi qismlar (12-rasm) bilan to‘liq jixozlangan bo‘lishi zarur.

Bajaradigan ishlov berish turiga qarab kultivatorga ekinlar qatorlari orasi 60-70 sm bo‘lganda, har qatorga ko‘pi bilan 7 ta, jami 28 ta, 90 sm bo‘lganda har qatorga 9 ta, jami 36 tagacha ishchi qismlar o‘rnataladi.




12-rasm. Kultivatorning ishchi qismlari va ularni ishlov berish chuqurligi :

1-lappak (disk); 2-yulduzcha; 3-pichoq; 4-chuqur yumshatgich;

5- yumshatgich panja; 6-o‘g‘it solgich; 7-egat olgich



Kultivatorning ishchi qismlarini o‘rnatish va sozlash ishlari ip tortilgan yoki sxema chizilgan maxsus tekis, yuzasi qattiq maydonchada bajariladi (13-rasm).



13-rasm. Kultivatorni ip tortilgan yoki rostlash sxemasi chizilgan maxsus maydonchani ko‘rinishi.

Buning uchun birinchi navbatda barcha sektsiyalarning tortqichlari gorizontal holga keltiriladi. Ishchi qismlarni kerakli chuqurlikda yuradigan qilib sozlash uchun kultivator sektsiyalarining har bir tayanch g‘ildiraki tagiga taxtachalar qo‘yiladi. Ularning qalinligi kerakli ishlov berish chuqurligidan 1-2 sm ga, ya’ni, g‘ildiraklarning tuproqqa botish chuqurligiga teng qiymatiga kam bo‘lishi kerak.

So‘ngra berilgan topshiriqqa asosan (qator orasiga ishlov berish turiga qarab 3-ilova bo‘yicha) kultivatorning ishchi qismlari ishlov berish chuqurligi va kengligi bo‘yicha o‘rnatish sxemasi (14-rasm) tayyorlanadi.



14-rasm. Begona o‘tlarni yo‘qotish va himoya yo‘lagini yumshatishda ishchi qismlarni o‘rnatish sxemasi:

1-lappakli yumshatgich; 2-yassi pichoq; 3-chuqur yumshatgich; 4- yumshatgich panjalar.

Shundan so‘ng kultivator sektsiyalariga ishchi qismlar sxemada ko‘rsatilgan o‘lchamlar asosan o‘rnatiladi va mahkamlanadi, bunda pichoq, o‘qyoysimon va chuqur yumshatkich panjalarning qirquvchi qirralari maydoncha yuzasiga to‘liq tegib turishi, yumshatkich panjalar esa tumshuG‘i bilan tayanib turishi lozim.

So‘ngra quyidagi tartibda xulosa yoziladi.

Xulosa: G‘o‘za qator orasidagi begona o‘tlarni yo‘qotish va himoya yo‘lagini yumshatib ketishda (14- rasm) o‘simglik qator oralariga (60-70 sm) ishlov berish uchun har bir qator oralig‘iga 2 juft rotatsion yulduzcha va 2 ta pichoq G‘o‘za niholidan 6-8 sm masofada 6-8 sm chiqurlikda hamda 1 ta chuqur yumshatkich yoki o‘qyoysimon panja qator o‘rtasiga 12-14 sm chuqurlikda o‘rnatilib sozlanishi kerak.

Ishni bajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga alohida variantlar bo‘yicha ishni bajarish topshiriladi. (8-jadval)
2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan kultivator oldida o‘tkaziladi. Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: rusumi _____, sektsiyalar oralig‘i _____ mm o‘lchab yozib olinadi.

Ekinlar qator orasiga ishlov berish agrotexnik ko‘rsatgichlari

Variantla r	Ekinlar turi	Bajariladigan ish turi	Qator orasi, mm	Himoya yo‘lagini kengligi, mm
1	Paxta	1-kultivatsiya qatqaloq va tuproqni yumshatish	600	160-200
2	Paxta	3-kultivatsiya tuproqni yumshatish	900	240-300
3	Makkajo‘xori	1-kultivatsiya begona o‘tlarni yo‘qotish	700	200-240
4	Makkajo‘xori	2-kultivatsiya tuproqni yumshatish	700	300-400

3. Toshiriqqa asosan kultivator ishchi qismlari tanlanadi va ularning ishlov berish ko‘rsatgichlari (ishlov berish chuqurligi va o‘rnatish kengligi) aniqlanadi.

4. Qabul qilingan ma’lumotlarga asosan (14-rasm ko‘rinishida) ekin qator oralariiga ishlov berishda qo‘llaniladigan ishchi qismlarni o‘rnatish sxemasi chiziladi.

5. Sxemaga asosan ishchi qismlarni kultivator sektsiyalariga o‘rnatish ishlari bajariladi.

4. Ish bo‘yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarga asosan ekin qator oralariiga ishlov berish uchun ishchi qismlarni o‘rnatish (16-rasmida ko‘rsatilgan ko‘rinishda) sxemasi chiziladi va xulosa yoziladi.

Nazorat savollari:

1. Kultivatsiyalashda himoya yo‘lagini kengligi qanday ko‘rsatkichlarga qarab o‘rnatiladi?
2. Tuproq yumshatuvchi tishlarni chuqurligi bo‘yicha joylashtirishda qanday omillar e’tiborga olinadi?
3. Kultivatsiya vaqtida tuproqni yumshatish darajasi qanday omillarga bog‘liq bo‘ladi?
4. Kultivatsiyalashda qanday maqsadda tutash qatorlar oralig‘ini e’tiborga olish talab etiladi.

9-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Kultivator o‘g‘it miqdorlagichini o‘g‘it solish me’origa rostlash


Ishning maqsadi:QXM-65 o‘g‘it miqdorlagichini rostlash va uning ishini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar:KXM-65 o‘g‘it miqdorlagichi bilan jihozlangan KXU-4 va ChKU-4A kultivatori yoki alohida o‘rnatilgan KXM-65 o‘g‘it miqdorlagichi, paket, besh grammgacha aniqlikda ishlaydigan tarozi, gigroskopik bo‘limgan mineral o‘g‘it (kamida 5kg).

KMX-65 o‘g‘it miqdorlagichi KXU-4 G‘o‘za kultivatori va ChKU-4A chizel-kultivatorlarida o‘rnatilgan bo‘lib, mineral o‘G‘itlarni tuproqqa qatorlab solishda foydalaniladi.

Agregat xarakatlanganda miqdorlagichning bunkeri 1 (15 – rasm), ichiga solingan o‘G‘itning bir qismi konus 2 tagida aylanib turadigan tushirgich 3 likop 4 ning chetiga surib, o‘g‘it o‘tkazgich 5 ga tashlab turadi. O‘g‘it o‘tkazgich bo‘ylab tushayotgan o‘g‘it esa erga belgilangan chuqurlikka botib harakatlanayotgan o‘g‘it solgich yordamida tuproqqa ko‘miladi.

Tirqishkengligi o‘g‘it xossalariiga moslab(9-jadval) qabul qilinadi.



15 – rasm. Miqdorlagichning

ishlash jarayoni:

1–bunker; 2–konussimon yo‘naltirgich;
3 – tushirgich; 4–likop; 5–o‘g‘it o‘tkazgich

O‘g‘it solish me’ori quyidagicha tekshiriladi. Solinadigan o‘g‘it turiga qarab (9-jadval) o‘G‘itlagichlardagi shkalalardan foydalanib barcha apparatlar tirqish kengligi taxminan bir xil me’orga keltiriladi

Keyin o‘G‘ito‘tkazgichlar olib qo‘yilib, apparatlar tagiga qopchalar osiladi va agregat 100 m masofani bosib o‘tadi yoki turgan joyida G‘ildiraklar ko‘tarib qo‘yilib, 100 metr masofaga teng sonda aylantiriladi.

Qopchalarga tushgan o‘g‘it miqdori tarozida tortilgach, o‘G‘itlash me’yoriquyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A = \frac{a \cdot 10000}{B \cdot L}, \quad \text{kg/ga}$$

Bunda a – barcha apparatlarsolgan (kopchalardagi) o‘g‘it miqdori, kg;

V – agregatningqamrov kengligi, m;

L – agregatning bosib o‘tgan yo‘li, m.

9-jadval

KMX-65 miqdorlagichini o‘g‘it solish ko‘rsatgichlari

Guruhlar tartibi	Variantlar	Birgektarg abelgilan- gano‘g‘it miqdori, Q_M kg	Fiksatorni apparat shkalasidagi o‘rni (2 apparat 4 ta o‘g‘it solgichga)	Birgektargab elgilangano‘ G‘itmiqdori, kg	Fiksatorni apparat shkalasidagi o‘rni (4 apparat 4 ta o‘g‘it solgichga)
Mochevina					
I	1	60	2/4	100	1/3
	2	80	3/6	120	2/4
	3	100	5/8	150	3/5
	4	120	6/10	200	5/8
	5	140	7/12	250	6/10
	6			300	8/13
Ammiak selitrasи					
II	1	80	2/4	120	1/3
	2	100	3/6	160	2/4

	3	120	4/7	200	3/6
	4	140	5/9	240	4/7
	5	160	6/11	280	5/9
	6			320	6/11
Xlorli kaly					
III	1	60	2/4	150	3/5
	2	80	3/6	200	5/8
	3	100	5/8	250	7/11
	4	120	7/10	300	9/13
Donador ammofos, superfosfat					
IV	1	60	2/3	100	1/2
	2	80	3/5	120	2/3
	3	100	4/7	150	3/5
	4	120	5/9	200	4/7
	5	140	6/11	250	5/9

Eslatma: suratda – 60 sm va mahrajda-90 sm li qator oralari *uchun*

Hisoblangan me'yor talab qilinayotgan me'yor bilan taqqoslanadi. Agarda farq 8% dan ortiq bo'lsa, apparatlarning tirkishlari kengligi o'zgartiriladi va tegishli me'yorga erishilguncha o'lchovlar takrorlanadi.

Ishni bajarish tartibi:

1.Talabalar guruhlarga bo'linib, ularga berilgan o'g'it sepish me'yori Q_M ning turli miqdorlari uchun alohida variantlar bo'yicha miqdorlagichning ish unumi A ni aniqlash va rostlash ishini bajarish topshiriladi.

2. Laboratoriya ishi qishloq xo'jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan kultivator oldida o'tkaziladi. Uning quyidagi ko'rsatgichlari: rusumi _____, qatorlar oralig'i _____mm , apparatlar soni_____dona, o'g'it solgichlar soni _____donao'lchab yozib olinadi.

3. Toshiriqqa asosan m'yorlagich fiksatorini o'rni aniqlanadi.
4. Qabul qilingan ma'lumotlarga asosan 15-rasm ko'rinishida me'yorlagichning o'rnatish sxemasi chiziladi.
5. Amalda bir gektarga solinayotgan o'g'it me'yorlari aniqlanadi va talab etilayotgan me'yor bilan taqqoslanadi.

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo'yicha aniqlangan ma'lumotlarga asosan 21-rasmda ko'rsatilgan ko'rinishda o'g'it miqdorlagich ko'rinishi chiziladi hamda bajarilgan hisoblar va olingan natijalarga ko'ra xulosa beriladi.

Nazorat savollari

1. Qanday sabablarga ko'ra o'G'itning xossalarni e'tiborga olgan holda miqdorlagichni sozlash lozim?
2. Miqdorlagich 2 apparat 4 o'G'itsolgichga sxemasida ishlatilganda bir apparatda necha dona o'g'it tushirgich bo'ladi?
3. Miqdorlagich 4 apparat 4 o'G'itsolgichga sxemasida ishlatilganda bir apparatda necha dona o'g'it tushirgich bo'ladi?
4. Kultivatorni agregatlovchi traktor o'zgartirilganida harakat uzatmasining uzatish soni ham o'zgartiriladimi?

10-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Purkagich miqdorlagichini dori eritmasime'yoriga rostlash


Ishning maqsadi: Kimyoviy ishlov berish mashinalari miqdorlagichining ishini tekshirish va rostlash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: OVX-600 ventilyatorli purkagich, uni agregatlaydigan chopiq traktori; nomogrammalar chizilgan plakatlar; sekundomer; 10 litrlik o‘lchov idishi; chilangularlik asboblar; purkash uchliklari komplekti.

Ventilyatorli purkagichlardan G‘o‘za kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashishda, G‘o‘za bargini tushirishda (defoliatsiya o‘tkazishda) keng foydalaniladi.

Ma’lumki, ventilyatorli purkagichlar katta ish unumiga ega bo‘lganligi sababli, bu turdagи purkagichlar keng tarqalgan.

Paxtachilikda keng qo‘llaniladigan OVX-600 rusumli purkagichning asosiy qismlari quyidagilardan: suyuqlik idishi 1(16-rasm), ta’minalash tizimi 2, harakat uzatish mexanizmi 3, ventilyator 4, soplo 5, sozlagich 6, reduktor 7, miqdorlagich 8 va uchliklar 9 dan iborat.



16-rasm. OVX-600 purkagichining umumiyl tuzilishi:

1-suyuqlik idishi; 2-ta’minlash tizimi; 3- xarakat uzatish mexanizmi; 4-ventilyator; 5-soplo; 6-sozlagich; 7- reduktor; 8-rostlagich; 9-uchliklar.

Turli vaziyatlarda maqbul purkash sifatini ta’minalash maqsadida, bunday purkagich ko‘p variantlarda ishlataladigan uchliklar 9 to‘plami bilan jihozlangan. Uchliklar (10-jadval) bir-biridan ko‘zining diametrini katta-kichikligi bilan farqlanadi.

Purkagich miqdorlagichini rostlashdan asosiy maqsad har gektar maydonga belgilagan me’yordagi dori eritmasini bir tekis purkashga erishish hisoblanadi.

Purkagich uchligini tuzish variantlari

Variantlar	Ko‘z teshigining kirish va chiqish diametri, mm	Uchliklar soni, dona
I	Kirish va chiqish - 2,5	2
II	Kirish va chiqish - 2,5	3
III	Kirish va chiqish - 2,5	4
IV	Kirish va chiqish - 2,5	8
V	Kirish- 2,5 va chiqish-6,0	6
VI	Kirish- 2,5 va chiqish-6,0	8

Purkagichni har gektarga belgilangan Q_a me'yordagi eritmani purkashga mashinani rostlash uchun bir dona uchlikdan sepilishi lozim bo'lgan suyuqlik miqdori q aniqlanadi:

$$q = \frac{Q_a B_a V_a}{600Z}, \text{ kg/min}$$

bu erda: Q_a -bir gektarga belgilangan suyuqlik miqdori, l/ga;

B_a – purkagichning ishchi qamrash kengligi, m;

V_a - purkagichning xarakat tezligi, km/soat;


Z - purkagichga o'rnatilgan uchliklar soni, dona: $Z= 1$ dona

Agar aniqlangan $q > 50 \text{ l/min}$ bo'lib chiqsa, bir uchlikli ventilyatorli purkash qurilmasi ishlataladi. Bu miqdorni nomogramma (17 a-rasm) yordamida ham topish mumkin.


Agar $q < 50 \text{ l/min}$ bo'lib chiqsa, pnevmodiskli purkash qurilmasi ishlataladi. Bu qurilma turli o'lchamlarga ega bo'lgan uchliklar to'plami bilan jihozlanadi. To'plamdagi uchliklardan oltita variant (10-jadval) tuzib, kerakli purkash sifatiga erishish mumkin.

Aniqlangan q ni ta'minlash uchun 17 b-rasmda keltirilgan nomogramma yordamida uchliklar soni Z va purkagich magistrali quvurchasidagi kerakli suyuqlik bosim R aniqlanadi. Keyin esa, magistral quvurchasida belgilangan R bosimi sozlagich yordamida o'rnatiladi va manometr yordamida doimiy nazorat qilinadi.

Nomogramma yordamida hisoblanib aniqlangan q ni ta'minlash uchun uchliklar qanday o'rnatilishi aniqlanadi. Pnevmodiskli purkash qurilmasi uchun ham magistral quvurchasida bosimning miqdori nomogramma yordamida aniqlanadi.



a)



b)

17–rasm. Purkagichning sepiladigan suyuqlik miqdori (a) va bosimini (b) aniqlash nomogrammasi.

Aniqlangan q va R ni ta'minlaydigandek qilib sozlangan mashina bir gektar maydonga belgilagan Q_a miqdordagi (l/ga) suyuqlikni purkay olishi dala sharoitida tekshiriladi.

Shu maqsadda:

1. Purkagichga rangli bo'yoq aralashtirilgan suyuqlik quyiladi va ochiq dalada 30...50m masofaga purkaladi. Rangli tomchilar tushgan arning kengligi mashinaning ishchi qamrov kengligi V_i (m) deb qabul qilinadi. Shu vaqt ichida agregatning ishchi tezligi V_i (mG^{-1}min) ham aniqlanadi.

2. Purkash qurilmasini tebranma harakatga va ventilyatorni ishga tushiradigan yuritma ishchi holatdan chiqarilib, hamma uchliklar polietilen plyonka bilan o'raladi va uning ichiga purkalgan suyuqlikni to'plash uchun uning etagi maxsus idish (chelak)ga solinadi.

3. Purkagich rezervuaridagi suyuqlik sathi belgilab qo'yiladi va u erga miqdori aniq o'lchanigan ($5...10 \text{ l}$) Q_o hajmdagi suyuqlik qo'shimcha quyiladi, eritmaning o'zgargan sathi belgilanadi.

4. Qo'zG'almasdan joyida turgan purkagichning purkash qurilmasiga R bosimi ostida suyuqlik yuborilib, rezervuardagi eritma sathi avvalgi belgigacha tushganda, to'xtatiladi. Sekundomer bilan ushbu ish necha minut (t_i min) davom etgani o'lchanadi. t_i vaqt, Q_o ni ta'minlash uchun Q_o sarflanishi lozim bo'lgan vaqt $t = \frac{10000 Q_o}{V_u B_u Q_u}$ (min) bilan

solishtiriladi. Agar t_i bilan t ning farqi $\pm 10\%$ dan ortiq bo'lsa, tajriba yangi rejimda takrorlanadi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo'linib, ularga purkagich yordamida bir gektar sepiladigan suyuqlik miqdori Q_a _____ l/ga miqdorda sepishni ta'minlash va tekshirib ko'rish bo'yicha tavsiya berish topshiriG'i beriladi.
2. Laboratoriya ishi qishloq xo'jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan OVX-600 ventilchtorli purkagichda o'tkaziladi. Uning quyidagi ko'rsatgichlari: agregat tarkibi _____, qamrash kengligi _____ m, uchliklar soni _____ dona va ularning kirish va chiqish teshiklarining diametri _____ mm va ishchi xarakat tezligi _____ km/soat yozib olinadi.
3. Nomogrammadan (17 a-rasm) foydalanib purkagichning qabul qilingan Q_a , B_a va V_a ni hisobga olgan holda bir dona uchlikdan sepilishi lozim bo'lgan suyuqlik miqdori q aniqlanadi.
4. Aniqlangan suyuqlik miqdori q va uchliklar sonini Zhisobga olgan holda (20b-rasm) magistraldagi suyuqlik bosimi R aniqlanadi.
5. Aniqlangan bosimda purkagichni ishlashi dala sharoitida tekshiriladi va xulosa beriladi.

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo'yicha aniqlangan ma'lumotlarga asosan 17-rasmda ko'rsatilgan nomogrammalar chiziladi hamda bajarilgan hisoblar va olingan natijalarga ko'ra xulosa beriladi.

Nazoratsavollari:

1. Agregatning ekinzorga ishlov berishdagi qamrov kengligi qanday omillarga bog'liq?
2. Qanday maqsadda rezervuar ichiga gidroaralashtirgich o'rnatiladi?
3. Qanday maqsadda kimyoviy modda eritmasini ekinzorga maydarоq zarrachalarga parchalab purkash ma'qul hisoblanadi?
4. Purkagichni rostlashda nima uchun aggregatning ishchi tezligi e'tiborga olinadi?
5. Nima sababdan issiq havo va kuchli shamol esib turgan vaqtida eritmani purkash tavsiya qilinmaydi?

11-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Paxta terish apparatining agrotexnik ko‘rsatgichlarini aniqlash

Ishning maqsadi: Vertikal shpindelli paxta terish apparatining texnologik jarayonini baholaydigan agrotexnik qo‘rsatkichlarni aniqlash va ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini berish.

Kerakli jihozlar: Vertikal shpindelli paxta terish apparati o‘rnatilgan elektr yuritmali laboratoriya qurilmasi; paxtasi terilmasdan o‘rib olingan g‘o‘zapoyalar, tarozi, paketlar, chilangarlik asboblari.

Paxta terish mashinasining ish sifatini yuqori bo‘lishi birinchi navbatda terish apparatini agrotexnik ko‘rsatgichlarini yuqori bo‘lishiga bog‘liq.


Paxta terish apparati texnologik ish jarayonining agrotexnik ko‘rsatgichlari maxsus laboratoriya qurilmasida (18-rasm) aniqlanadi.

Qurilmaga vertikal shpindelli paxta terish apparati o‘rnatiladi va uning barcha ishchi qismlari ishlab chiqaruvchi zavodning ko‘rsatmasi asosida sozlanadi.

Apparat barabarlari orasidagi terish kamerasi ostidagi yerga uzunligi 5,7...6,0 metr bo‘lgan nov 1 joylashgan. Apparat old, ya’ni A tomonidagi nov ichiga uzunligi $l_r=1,6...1,8$ m bo‘lgan yog‘och reyka 2 qo‘yilgan. Reyka 2 da har 15 sm oraliqda teshik (uya)lar yasalgan, ularga tayyorlab qo‘yilgan paxta tublari bandi tiqib qo‘yiladi. Nov 1 ning ikkinchi, V uchiga elektrdvigatel 14 yordamida aylantiriladigan tortgichning tros o‘ragich barabani 13 qo‘yilgan bo‘lib, tros 19 uni apparat old A tomoniga qo‘yilgan reyka bilan ulaydi.

Apparatni ishga tushirish uchun elektrodvigatel va ikki pog‘onali reduktor qo‘yilgan bo‘lib, reduktorning birinchi pog‘onasi ishlatilsa, shpindelli baraban $n_b=105...110$ ayl/min, ikkinchi pog‘onasi ishlatilsa, baraban $n_b =75...80$ ayl/min tezligi bilan aylanadi. Reduktor va tortgichni ishga tushiradigan elektrdvigatellar bir-biriga bog‘liq bo‘laman holda alohida boshqariladi.

G‘o‘zapoyalar apparat barabarlari o‘rtasidagi terish kamerasi (TK) dan o‘tayotganida, ulardagi paxtani boshqa tasma 4 yordamida baraban 6 ga teskari yo‘nalishda aylanayotgan shpindellar o‘z sirtiga o‘rab, ya’ni terib oladi. Terilgan paxtani shpindellar (baraban bilan birgalikda aylanishi hisobiga) ajratish zonasiga keltiradi.



18 – rasm. Paxta terish apparati agrotexnik ko‘rsatkichlarini aniqlash laboratoriya qurilmasi:

1 – nov; 2 – reyka; 3 – hosili terilmagan G‘o‘za tupi; 4 – tashqi tasma; 5 va 17 – oldingi baraban qutisi; 6,11,15 va 18 – shpindelli barabanlar; 7 va 9 – ajratkich; 8 – ichki tasmalar; 10 va 16 – orqadagi barabanlar qutisi; 12 – hosili terilgan G‘o‘zapoya; 13 – baraban; 14 – elektrodvigatel; 19 – tros.

U erda shpindel roligi ichki tasma 8 ga tegib, katta burchak tezlanishi bilan tormozlanib, o‘ta qisqa vaqtga to‘xtab, keyin teskari, ya’ni baraban aylanayotgan yo‘nalishda aylana boshlaydi. Shpindel tormozlanganida unga o‘ralgan paxta piltalarining ko‘p qismi (80% gacha) inertsiya kuchlari ta’sirida echilib, shpindeldan ajralib, quti 9 ga tushadi. Qolgan qismi ajratgich 7 va 9 lar yordamida shpindeldan urib olinadi va bungyerga uzatiladi.

Apparat texnologik jarayonini baholaydigan ko‘rsatkichlardan eng muhimlariga quyidagilar: G‘o‘zapoyadagi ochilgan hosilni terib olish ($T, \%$.), chanoqlarda qolgan hosil ($I, \%$), paxtani yerga to‘kilish ($E, \%$) va shpindelga o‘ralgan paxtani ajratib olish ($S, \%$) kiradi.

Paxtasi terilmagan g‘o‘zapoyalar reyka teshiklariga o‘rnataladi. Reyka esa stendning old A tomonida novning ichiga tushirilib, trosga ulanadi. To‘liq ochilmagan ko‘saklar, paxtasi qisman to‘kilgan chanoqlar, singan shohlar olib tashlanadi.

Apparat elektrodvigateli ishga tushiriladi, reduktorning birinchi poG‘onasi ulanadi. Shpindelli barabanlar bir tekis aylanganidan so‘ng, tortgich elektrodvigateli 14 ishga tushiriladi, reyka 2 siljiy boshlaydi. Reykadagi oxirgi g‘o‘zapoya orqa barabanlar jufti terish kamerasidan chiqib ulgurganida tortgich hamda terish apparat avtomatik ravishda o‘chiriladi. Ehtiyyotkorlik bilan oldingi barabanlar juftidan 9 va 17 qutilarga tushgan paxta

terib olinadi va ularning Q_{11} va Q_{12} miqdorlari tarozida aniqlanadi. Orqadagi barabanlarda terilgan paxta 10 va 16 qutilardan olinib, Q_{21} va Q_{22} massasi tarozida tortilib topiladi. Hamma barabanlardan yerga to‘kilgan paxta E , G ‘o‘zapoyalarda qoldirilgan paxta U hamda shpindellardan ajratilib olinmagan paxta S miqdorlari aniqlanadi.

Reykaga o‘rnatilgan g‘o‘zapoya chanoqlaridagi hosil $X=Q_{11}QQ_{12}QQ_{21}QQ_{22}QEQUQS$ topiladi. Keyin esa X ga nisbatan $Q_{11}QQ_{12}$ necha foiz bo‘lishi, ya’ni oldingi shpindelli barabanlar jufti hosilning qanday qismini terish darajasi T_1 aniqlanadi (amalda oldingi barabanlar jufti hosolning 80% gacha terishi aniqlangan) va tegishli xulosa qabul qilinadi.

$Q_{11}QQ_{12}QQ_{21}QQ_{22}$ yig‘indisining X ga nisbatan foizi apparatning umumiy T_a terish darajasini ko‘rsatadi. T_a ning miqdori stend sharoitida vertikal shpindelli apparat uchun 92....94% tashkil etishi kerak.

Muhim ko‘rsatkichlar sifatida terilmasdan chanoqlarda qoldirilgan paxta U , yerga to‘kilgan paxta E va shpindeldan ajratilmasdan, uning sirtida qoldirilgan paxta S miqdorlari ham X ga nisbatan foiz ko‘rinishida baholanadi.

Mashinaning ish jarayonida tasmalarning yejilishi, tasmani tortib turadigan prujinaning cho‘zilib ketishi natijasida shpindelning aylanish tezligi o‘zgarishini terib olingan paxta miqdoriga ta’sirini o‘rganish ham muhim hisoblanadi.

Buning uchun birinchi navbatda tashqi tasma 4 lar o‘rniga tarangligi kam bo‘lgan (yoki ishlatilgan) tasmalar o‘rnatilib, so‘ngra ichki tasma 8 larning shpindel roligiga siqilish kuchini o‘zgartirib (yoki ishlatilgan prujina qo‘yib) tajribalar o‘tkaziladi, mos ravishda T_a , U , E va S ko‘rsatkichlarning ham o‘zgarishlari aniqlanadi.

Mashg‘ulot natijalari ishonarliroq bo‘lishi uchun, yuqoridagi tajribalar 3...5 marotaba takrorlashnib, topilgan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik miqdori topiladi va olingan natijalar bo‘yicha xulosalar beriladi.

Ishni bajarish tartibi.

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga qurilmada paxta terish apparatining ishini o‘rganish va uning ko‘rsatgichlarini aniqlash bo‘yicha bittadan tajriba o‘tkazish va bajarilgan ish natijasi bo‘yicha berish topshiriG‘i beriladi.

2. Terish apparatining texnologik sozlanishlari to‘g‘ri bajarilganligi tekshiriladi va qurilma tayyor holatga keltiriladi..

3. Ishchi qismlari to‘liq va sifatli sozlangan terish apparatida tajriba o‘tkaziladi va T_a , U , E va S ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

4. Shpindel aylanish tezligining kamayishini (tasmalarni eyilishi natijasida) terib olingan paxta miqdoriga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkaziladi va mos holda T_a , U , E va S ko'rsatkichlar aniqlanadi.

5. Olingan natijalar bo'yicha xulosa beriladi.

Ish bo'yicha hisobotda: Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo'yicha aniqlangan ma'lumot va hisoblarga asosan xulosalar beriladi.

Nazorat savollari:

1. Apparatning paxtani terish darajasi qanday omillarga bog'liq?
2. Apparatning paxtani chala terish va yerga to'kish darajasi nimalarga bog'liq?
3. Shpindellarni aylantiruvchi tashqi tasmaning taranglik kuchi terish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
4. Terish apparatidagi ajratkich qanday ishni bajaradi?
5. Nega shpindel roligini aylantirish uchun bir necha ponasimon tasmalar qo'yiladi?
6. Barabanlar jufti oralig'idagi terish kamerasining (ish tirqishi) kengligi qanday ahamiyatga ega?


12-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu: G‘alla kombayni don yanchgichi va tozalagichining ish rejimlarini ekin turiga qarab tanlash

Ishning maqsadi: G‘alla kombaynini turli ekinlar urug‘larini o‘rib-yanchishga rostlash va ish sifatini baholash tartibini o‘rganish.

Kerakli jihoz: “Dominator-130” rusumli g‘alla kombayni; chilangularlik asboblari; ichki maydoni 1 m. kv bo‘lgan ramka; ruletka; tarozi; g‘allasi pishgan 0,2 ga maydon.

Respublikamizda boshoqli don ekinlarini o‘rib-yig‘ib olish ishlari "Klaas" firmasining Dominator-130 rusumli kombayni yordamida bajarilmoqda. U klassik ko‘rinishdagi ko‘ndalang baraban-savatli yanchish qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lib, uning texnologik ishlash jarayoni 19-rasmida ko‘rsatilgan.



19-rasm. Kombaynning texnologik ishlash jarayoni:

- I - G‘allani o‘rib olish;
- II – G‘allani yanchish;
- III – somonni ajratish;
- IV – donni tozalash

Bu kombaynning asosiy afzalliklaridan biri unda turli ekinlarning (bug‘doy, makkajo‘hori, sholi, kungaboqar va boshqalar) donlarini o‘rib-yanchib olish imkonini beradi.

Kombaynni yuqori unum bilan ishlashi va turli ekinlar hosilini nobudgarchiliksiz yig‘ib-yanchib olish uchun quyidagilarga alohida ahamiyat berish kerak.

Kombaynning ish tezligi o‘rib olinayotgan g‘allaning hosildorligi va uning yotib qolganligi, maydonning tekis-notekisligi hamda boshqa omillarga qarab tanlanadi.

Dala o‘t bosmagan, hosildorlik 40-50 ts/ga va poyalar yotib qolmagan tekis dalalarda 4,6-5 km/soat ish tezligida ishlashi maqbul hisoblanadi. Jatka kombaynga oson va tez taqib olinish imkoniyatiga ega. Jatkani kombaynga taqishda uning to‘g‘ri o‘rnatalishi va ish vaqtida dala relefiga bir tekisda tushishi rostlanadi.

Kombayn yanchgichini rostlash. Boshoqli don ekinlarini o‘rib-yig‘ib olishda ekinning holatiga qarab yanchish barabanining aylanishlar chastotasi $1150 \div 1250$ ayl/min oralig‘ida bo‘lishi kerak. Baraban va savat orasidagi tirqish kengligi ham ekin turiga qarab rostlash dastagi yordamida mos ravishda rostlanadi (11-jadval).

Bug'doy va shunga o'xshash boshoqli don ekinlarini yanchishda tortqi N asosan 2-va 3- xolatga qo'yiladi va yanchish apparatining kirish qismidagi tirkish 13-15 mm, chiqish qismidagi esa 3-4 mm kattalikga o'rnatiladi.

11-jadval

Ekinlar donlarini yanchishda tortqi N o'rnatish holatlari

Боев сават										
	Сим Н19 **	Сим Н19 ***	Сим Н19 **	Букума (19 x 48) ***		Штрафтер**				
Размер Н (диаметр)	A	B	A	B	A	B	A	B	A	B
	1**	18**	2	9	1	2	2	1	1	3
1	10	1	10	2	24	9	19	4	14	7
2	11	2	11	4	28	10	21	5	15*	8*
3	13*	3*	13*	5*	28	11	23	7	17	9
4	15	4	15	6	30	12	25	9	19	11
5	17	6	17	8	33	14	27	11	21	13
6	19	8	19	10	35	16	29	13	23	15
7	21	10	21	12	37	18	31	15	25	17
8	23	12	23	14	40*	20*	33*	17*	27	19
9	25	14	25	16	42	22	35	19	29	21
10	28	16	28	18	44	24	37	21	31	23
11	30	18	30	20	47	26	40	24	33	26

I-simli savat; II – rostlash dastagi; III – shtifli savat;
1-yanchish barabani; 2- simli savat; 3-shtiftli baraban; 4-shtiftli savat

Beda va boshqa mayda urug‘li ekinlarni yanchishda esa kichikroq tirqishlar, makkajo‘xori so‘tasi, kungaboqar kabi yirik donli ekinlarni yanchishda birmuncha kattaroq tirqishlar (12-jadval) tanlanadi.

12-jadval

G‘allani yanchish jarayonining asosiy ko‘rsatgichlari

Ekinlar turi	mm	Ta’minlovchi val bilan o‘rgich muftasi orasidagi masofa		Ta’minlovchi barmoqlar holati		Qiltiriq ajratadigan plankalar mavjudligi		Yanchish barabanining aylanishlari soni	Yanchish savati masofasini o‘rnatish holati (rostlash dastagi (N))	Havo yo‘naltiruvchi tunuka holati
		teshik	pastdan	0-echilgan	1-o‘rnatilgan	0-bug‘doy	1-jo‘xori			
Bug‘doy	15	3	0	0	0	0	1-jo‘xori	1200	3	2
Arpa	15	3	1	0	0	0	2-sholi	1400	2	2
Suli	20	3	0	0	0	0		1250	4	2
Sholi	15	3	0	0	2	0		850	6	2
No‘xat	15	3	0	0	0	0		650	0	2
Soya	15	3	0	0	1	1		650	4	2
Kungaboqar	15	3	0	0	1	1		650	4	2
Makkajo‘xori	25	-	0	0	1	1		650	0	2
Tariq	15	3	0	0	0	0		725	6	2
Beda	15	3	1	0	0	0		1200	2	2

Kombaynning don tozalash qismini rostlash. Kombayning tozalash qismi ish jarayonida somon va qipiqdagi donni ajratib olishga mo‘ljallangan bo‘lib, yanchish apparatidan keyinda o‘rnatilgan somonsilkitkich va havo-G‘alvirli ajratkichlardan iborat.

Yanchilgan don somondan to‘rt o‘rkachli somonsilkitgich yordamida ajratib olinadi. Somonsilkitgich uzunligi 3,90 m bo‘lib, yuzasi $4,13 \text{ m}^2$ ni, ajratish yuzasi esa $4,8 \text{ m}^2$ ni tashkil etadi. Somonsilkitgich tirsakli valining maqbul aylanishlar soni 195-205 ayl/min dan iborat.

Somondan donning ajralishini jadallashtirish uchun sidiruvchi-tishli mexanizm o‘rnatilgan bo‘lib, u donning somonga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Donni tozalash jarayonining asosiy ko‘rsatgichlari

Ekinlar turi	Ventilyatorning aylanishlar soni 1G‘daq.	Yuqori va plastinkali elaklar orasidagi masofa mm	Pastki va plastinkali elak orasidagi masofa mm	Litrlik oG‘irligi g/l	Saqlash namligi %	Somon qirgichning aylanishlar soni teshik past-dan
BuG‘doy	800	12	7	750	14	3270
Arpa	750	12	7	620	14	3270
Suli	550	12	7	420	14	3270
Sholi	750	12	10	550	14	3270
No‘xat	750	15	10	750	14	3270
Soya	750	12	9	750	14	3270
Kungaboqar	750	12	9	340	14	-
Makkajo‘xori	900	13	-	700	14	-
Tariq	750	12	7	700	14	3270
Beda	500	9	4	500	14	3270

Sidiruvchi-tishli mexanizm harakatni somonsilkigichning harakatlantirgich shkividan ponasimon tasma orqali oladi. Tasmaning tarangligi esa taranglash roligi orqali rostlanib, sozlash prujinasining tarangligi 70-73 mm qilib qo‘yiladi. Kombaynning don tozalash qismi G‘alvirli bo‘lib tebramma harakat qiladi va $3,0 \text{ m}^2$ ishchi yuzada yuqori bosimli ventilyator havo oqimi ta’sirida donni qipiqtan sifatlari tozalab oladi.

Ekinlar turlariga qarab don tozalash jarayonining asosiy ko‘rsatgichlari 13-jadval bo‘yicha qabul qilinadi.

Kabul qilingan ko‘rsatgichlar o‘rnatilgandan keyin kombaynning o‘rib-yanchish sifatining ko‘rsatgichlari dala sharoitida quyidagicha aniqlanadi.

1. Kombaynni dalaga kiritishdan oldin G‘allazorning kamida uchta joyiga chiviqdan yasalgan (ichki maydoni 1 kv.m) ramka tik turgan buG‘doy poyalariga kiydirilib, yerga tushiriladi. Ohista harakat bilan ramka ichidagi boshoqlar kesib olinadi va ulardagi don massasi m_v aniqlanadi. Ramka ichidagi yerga tabiiy omillar (shamol, pishgan G‘allani o‘rmasdan uzoq vaqt saqlash...) ta’sirida to‘kilgan don terib olinadi va uning massasi m_t aniqlanadi.

$$m_v Q m_t = x - \text{etishtirilgan hosil deb qabul qilinadi.}$$

Tabiiy nobudgarchilik

N_t = 100 m_t/x, % ko‘rinishida topiladi.

2. Keyin kombayn bilan 30...40 m joyni o‘rib, u to‘xtatiladi. So‘ngra u orqasiga 2...3 m masofaga yurgizilib to‘xtatiladi va dvigateli o‘chiriladi.

Kombaynning ishchi qamrov kengligi V_t aniqlanib, $K=I/V_t$ metr bo‘lgan (ichki maydoni 1 kv.m bo‘lgan) ramka tayyorlanib, orqa tomonga chekingan kombayn o‘rgichi bo‘shatgan anG‘izga yotqiziladi. Uning ichki chegarasidagi don va boshqolar terib olinadi. Terilgan don massasi m_e o‘lchab aniqlanadi. Bevosita o‘rgich qismlari ta’sirida yerga to‘kilgan don massasi, ya’ni $m_e \cdot m_t$ farqi topiladi.

O‘rgich qismlarining mexanik ta’sirida sodir bo‘lgan nobudgarchilik

N_o=100 (m_e-m_t) /m_v, % ko‘rinishida topiladi.

3. Kombayn orqasidagi hosili to‘liq yig‘ishtirilib olingan yerga ham mazkur ramka yotqizilib, yerga to‘kilgan don yotqizilgan ramka ichidan terib olinadi va uning massasi m_k aniqlanadi. Butun kombayn (o‘rgich, yanchish apparati, somon elagich, G‘alvirlar, ventilyator va mahsulot yuritiladigan joylardagi tirkishlar...) ta’sirida paydo bo‘lgan umumiy nobudgarchilik $N_k=100 (m_k-m_t)/m_v, %$ topiladi.

Agar N_o va N_k agrotexnik talablar joiz xisoblaydigan miqdordan ko‘p bo‘lsa, ularni kamaytirish uchun tegishli chora ko‘riladi. Agar yerga ko‘p boshqoq to‘kilayotganligi aniqlansa, unga o‘rish balandligi me’yordan ortiq, o‘rish apparatining segmentlari singan yoki o‘tmas bo‘lgani; motovilo noto‘g‘ri sozlanganligi; o‘rgichdagi shnek va uning barmoqli mexanizmidagi nosozliklarni izlash kerak.

Agar yerga to‘kib qo‘yilgan somonda chala yanchilgan boshqolar uchratilsa, yanchish apparati yoki somon elagich yanchilayotgan G‘alla xossalariغا mos sozlanmagan bo‘ladi. Agar somonga aralashib me’yordan ko‘proq don chiqib ketayotgan bo‘lsa, somonelagich, G‘alvir yoki ventilyator mahalliy sharoitlarga mos sozlanmagan bo‘lishi mumkin.

Bunday holda kombaynni o‘rib-yanchish ko‘rsatgichlari qayta sozlanadi va uning sifati baholanadi.

Ishningbajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga ekin turi _____, hosildorligi _____ ts/ga qarab kombaynning o‘rib-yanchish ko‘rsatgichlarini tanlash, ularga asosan yanchish va tozalash qismlarini sozlash va kombaynning ishlashi davomida yo‘l qo‘yilgan nobudgarchilagini tekshirib ko‘rish bo‘yicha tavsiya berish topshiriG‘i beriladi.

2. Laboratoriya ishi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun tayyorlangan “Dominator-130” o‘tkaziladi. Uning quyidagi ko‘rsatgichlari: agregat tarkibi _____, qamrash kengligi _____ m, ishchi xarakat tezligi _____ km/soat yozib olinadi.

3. Berilgan topshiriqqa hamda 11, 12 va 13-jadvallarga asosan kombaynning yanchish va tozalash jarayonining ko‘rsatgichlari tanlanadi.

4. Aniqlangan ko‘rsatgichlar bo‘yicha kombayn qismlari sozlanadi.

5. Kombaynning ishi dala sharoitida tekshiriladi va aniqlangan don nobudgarchiligi bo‘yicha xulosa beriladi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan va tanlangan ma’lumotlar 11-, 12- va 13 –jadvallar ko‘rinishida yoziladi hamda don nobudgarchiligi bo‘yicha bajarilgan hisoblar va olingan natijalarga ko‘ra xulosa beriladi.

Nazorat savollari:

1. Kombayn o‘rgichi qismlarining ta’sirida sodir bo‘lgan don nobudgarchiligi qanday aniqlanadi?
2. Nima maqsadda yerga to‘kilgan somon ostini nazorat qilish kerak bo‘ladi?
3. Qanday maqsadda kombayn somon elagichi bo‘ylab yanchilgan G‘allani sekinroq siljitishga intilish kerak?
4. Nima sababli yanchish barabanini iloji boricha sekinroq aylantirishga intilish kerak?


13-LOBARATORIYA mashg‘uloti

Mavzu:Don tozalash mashinasiga ekinlar turiga qarab g‘alvirlar tanlash

Ishning maqsadi: Turli xil ekinlar donini dastlabki tozalashla don tozalash mashinasiga g‘alvirlar tanlash tartibini o‘rganish

Kerakli jihozlar: Elektrlashtirilgan yuritmasi bilan jihozlangan don tozalash mashinasi; laboratoriya g‘alvirlarining to‘plami; tarozi; 60 kg arpa, buG‘doy va boshqalar doni; chilangularlik asboblari.

Etishtirilgan boshoqli don hosili yig‘ib-terib olingandan so‘ng uni don tayyorlash punktlariga topshirishdan oldin don tozalash mashinasida (20-rasm) dastlabki tozalash talab etiladi. Bunda toza don havo yordamida yengil (chang, chorii va b.) va oG‘ir (kesak, tosh va b.) qo‘shindilar hamda G‘ilvirlar yordamida esa o‘lchami kichik (singan, puch don va b.) va uzun (mayda somon va b.) qo‘shindilardan ajratib olinadi.



- ➡ Ишлов бериладиган дон оқими
- ➡ Тозаланган дон оқими
- ➡ Майда дон
- ➡ Йирик ва ёнгил күшинмалар
- ➡ Майда күшинмали хаво оқими
- ➡ Хаво оқими

**20-rasm. Don tozalash mashinasini
ish jarayoni:**

- 1- qabul kamerasi; 2-tarqatgich;
- 3-taqsimlagich; 4-havo quvuri;
- 5-yuqorigi sirpang‘ich; 6-pastki sirpang‘ich; 7-chiqarish shnigi;
- 8-pastki g‘alvir o‘rnatgich;
- 9-ustki g‘alvir o‘rnatgich;
- 10-havo transportyori; 11-chang ajratgich; 12-berkitgich;
- 13-tindirgich; 14-deraza.

Don tozalagich mashinaning transportyor-ta’minalgichi hirmondagi mahsulotni yuqoriga ko‘tarib, qabul kamerasi 1 dagi taqsimlagich 3 ga tushiradi. Taqsimlagich 3 ensiz oqim ko‘rinishida keltirilgan donni mashina eni bo‘ylab bir tekis yoyib-taqsimlab,

havo quvuri 5 ga tashlab beradi. Ventilyator hosil qilgan havo oqimi havo quvuridan o'tayotib chang – to'zon va yengil qo'shindilarni iloji boricha to'liq uchirib, tindirgich 13 ga keltiradi. U erda havo oqimining tezligi keskin kamayishi tufayli, qo'shindilar pastka cho'kib, chiqarish shnigi orqali tashqariga chiqariladi.


Mashinaning don o'lchamlari bo'yicha tozalash qismi ikkita g'alvirlar to'plamidan iborat bo'lib, ularning har biri ustki va pastki g'alvirlardan tuzilgan. g'alvirlar qiya o'rnatilganligi va ilgarilanma – qaytma harakatga keltirilishi sababli, don aralashmasi asta – sekin g'alvirning oxiriga siljib boradi.

Asosiy tozalash materiali ustki g'alvirlar to'plamining B_1 g'ilviri ustiga tushadi va yuqorigi g'alvir o'rnatgich 9 ning tebranishi natijasida bir tekis qalinlikda yoyilib, B_2 G'alvir tomon suriladi.

B_1 va B_2 G'alviridan elanib pastga tushgan don V va G g'alvirlar bilan mayda, singan va puch donlar hamda boshqa qo'shindilardan ajratib olinadi.

B_1 G'alvirni tanlashda don oqimini deyarli o'zaro teng ikki qismga ajratishni ta'minlashiga alohida e'tibor berish kerak. Eng yirik don va unga aralashgan katta jismlar B_2 g'alvirda elanadi. B_2 g'alvirni tanlashda pastka don va undan maydaroq qo'shindilar elanib o'tishiga erishish lozim. Yirik qo'shindilar esa B_2 g'alviridan pastka o'tmasdan, uning sirti bo'ylab siljishi kerak.

V G'alvirini tanlashda pastka kerakli dondan maydaroq og'ir qo'shindilar tushadigan qilish kerak. Kerakli don esa V G'alviridan G ga siljib tushishi kerak. G g'alviri ko'zlarining shakli (21-rasm) V dagidan farqlanishi (ko'zları dumaloq emas, to'trburchak shaklida) bo'lishi lozim.



21-rasm. Donni G'alvida ajratish o'lchamlari:

a-urug'ning asosiy o'lchamlari; b va v- urug'larni qalinligi va eni bo'yicha ajratish; 1, 2 va 3-urug'ning teshikdan o'tishi; 4-teshikdan o'tmagan urug'.

G g‘alviri ko‘zlarining kattaligi B₂ va V g‘alvirlaridan kelgan mahsulotdagi mayda qo‘shindi (singan don...) ni asosiy don to‘liq qoladigandek elab pastga tushiradigan, ammo g‘alvir ustida asosiy don to‘liq qoladigandek tanlanishi kerak.

Mashina 30 ta cho‘zinchoq (to‘rtburchakli) va 6 ta aylana teshikli maxsus G‘alvirlar bilan jihozlangan. Turli xildagi ekinlar donini dastlabki tozalashda qo‘llaniladigan G‘alvirlarni birlamchi tanlashda mashinaga qo‘shib beriladigan maxsus qo‘llanmalardan (14-jadval) foydalaniladi.

14-jadval

G‘alvir tanlash uchun ma’lumotlar

Ekin turi	G‘alvir teshikining o‘lchami, mm			
	B ₁	B ₂	V	G
Bug‘doy	Ø4,0...6,0	Ø5,0...7,0	Ø2,0...2,5	Ø2,5...3,0
	□2,2...3,0	□3,0...6,0	□1,7...2,2	□2,0...2,4
Arpa	Ø4,0...5,0	Ø5,0...8,0	Ø2,5	Ø3,0
	□2,4...3,0	□3,6...5,0	□2,0...2,4	□2,2...2,6
Makkajo‘xori	Ø8,0...9,0	Ø10,0	Ø5,0	Ø6,0
	-	□6,0	□3,0...5,0	□4,0...5,0
Kungaboqar	Ø7,0...9,0	Ø8,0...10,0	Ø5,0	Ø3,2...3,6
	□4,0...5,0	-	□1,7...2,2	□4,0
Suli	Ø5,5	Ø6,0	Ø2,5	-
	□2,2...2,4	□2,6...3,6	□1,7...2,0	□2,0...2,2
No‘xot	Ø5,0...8,0	Ø8,0...9,0	Ø4,0...5,0	Ø5,0...6,0
	□5,0...6,0	□7,0	□2,4...3,6	□4,0...5,0

Don turiga qarab g‘alvirlarni tanlashda kerakli o‘lcham va teshiklarga ega bo‘lgan maxsus laboratoriya moslamasidagi g‘alvirlardan ham foydalanish mumkin.

Tozalanmagan don olib (mayda urug‘li ekinlar uchun 200...300 g va yirik urug‘li ekinlar uchun 1000...1500 g) 1...2 minut davomida laboratoriya moslamasi yoki qo‘lda

elaklab tanlangan B_1 g‘alviridan o‘tkaziladi. Agar g‘alvir to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, g‘alvirdan barcha mayda qo‘shindilar va o‘rtacha o‘lchamdagи 50% donlar o‘tishi kerak. B_1 g‘alvirda qolgan massa tanlangan B_2 g‘alvirdan o‘tkaziladi. Bunda barcha donlar G‘alvirdan o‘tishi, G‘alvirda esa katta qo‘shindilar qolishi kerak.

B_1 G‘alvirdan o‘tkazilgan material oldin V va keyin G g‘alvirlarndan o‘tkazilganda G G‘alvirda toza don qolishi, mayda qo‘shindilar esa to‘liq o‘tishi zarur.

Tanlangan g‘alvirlar mashinaga o‘rnatiladi va unga tozalanishi kerak bo‘lgan 60 kg don solinadi va ishlatib ko‘riladi. Tozalangan donning sifat ko‘rsatgichlari aniqlanadi. Agar ko‘rsatgichlar agrotexnik talablarga mos kelmasa, u holda mashina g‘alvirlari qayta tanlanadi. So‘ngra ishlatib ko‘riladi va donni tozalash sifati baholanadi.

Ishningbajarish tartibi:

1. Talabalar guruhlarga bo‘linib, ularga don turi_____ga qarab don tozalash mashinasini G‘alvirlarini tanlash, ularni o‘rnatish va mashinaning tozalash qismlarini sozlash va tozalangan donning sifat ko‘rsatgichlarini aniqlash topshiriG‘i beriladi.
2. Laboratoriya ishi elektrlashtirilgan yuritmasi bilan jihozlangan don tozalash mashinasi yoki laboratoriya G‘alvirlarining to‘plamida o‘tkaziladi.
3. Berilgan topshiriqqa asosan birlamchi ma’lumotlar va olingan natijalarga ko‘ra mashinaning B_1 , B_2 , V va G G‘alvirlari tanlanadi.
4. Tanlangan G‘alvirlar mashinaga o‘rnatilib, uning ishi tekshiriladi va tozalangan donning sifati bo‘yicha xulosa beriladi.

Ish bo‘yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, kerakli jihozlar, berilgan topshiriqlar, ishning bajarish tartibi bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarga asosan 14- jadval ko‘rinishida natijalar yoziladi hamda tozalangan donning sifat ko‘rsatgichlari bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra xulosa beriladi.

Nazorat savollari:

1. Qanday sababga ko‘ra don tozalashda G‘alvir ko‘zlarining shakli va o‘lchamlari turlicha bo‘lganlaridan foydalaniladi?
2. Havo quvurining asosiy vazifasi nimadan iborat deb hisoblaysiz?
3. Havo quvuridan olib chiqarilgan yengil aralashmalar qanday tindirilib, cho‘ktiriladi?
4. G‘alvir ko‘zlariga don tiqilib qolishini oldini olish uchun qanday chora ko‘riladi

14-LOBARATORIYa mashg‘uloti

Mavzu: Agregat tarkibini traktor tortish kuchidan foydalanish koeffitsienti bo‘yicha baholash

Ishning maqsadi:

Berilgan ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun traktorning tortish kuchidan unumli foydalanish darajasiga (koeffitsientiga) qo‘ra tirkama va osma haydov aggregatining maqbul tarkibini asoslash tartibini o‘rganish.

Yer haydash jarayonining sharoitlari (topshiriq):

Dalaning o‘lchamlari:

Yuzasi _____ ga; uzunligi _____ m; qiyaligi i q_____;
tuproqning solishtirma qarshiligi _____ kN/m², haydash chuqurligi _____ m

Agregat tarkibini asoslash uchun traktor va pluglarning tanlashda birinchi navbatda fermer xo‘jaligining alohida joylashish xususiyatlari, ya’ni: yer relefi, tuproq-iqlim sharoiti, dalaning yuzasi va uzunligi hamda bajariladigan asosiy va yordamchi ishlarning turi hamda ularning xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Ko‘p energiya talab etiladigan yer haydash ishlarni bajarishda yuzasi 5 gektargacha bo‘lgan maydonlarda 60-100 kVt quvvatga ega bo‘lgan DT-75M, VT-100 va T-401S rusumli zanjarli va Axsos-340S, TS-6070, MX-140 rusumli G‘ildirakli traktorlarni, 5-10 hektarli maydonlarda quvvati 100-130 kVt quvvatga ega bo‘lgan VT-150 va XTZ-181 rusumli zanjirli va Arion-640S, K-701, T-150K rusumli G‘ildirakli hamda 10 gektardan yuqori bo‘lgan maydonlarni haydashda quvvati 130 kVt dan yuqori bo‘lgan Axion-850, MX-250, Magnum rusumli traktorlardan va ularga mos keladigan osma, to‘ntarma pluglar bilan birga foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Er haydash jarayonini sifatli qilib bajarilishini ta’minalash uchun joyning tuproq-iqlim sharoitiga mos bo‘lgan traktor va plug turini tanlash.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda 4, 5 va 6-ilovalardan dalaning berilgan sharoitlariga mos keladigan _____ rusumli traktor va osma yoki tirkama _____ rusumli plug qabul qilinadi.

2. Qabul qilingan traktor va plugning quyidagi ko‘rsatgichlari:

Traktorning quvvati _____ kVt; oG‘irligi _____ kN.

Plug korpusining oG‘irligi _____ kN, traktorga ulash turi, qamrash kengligi, _____ m;

3. Traktorning ilgakdagisi tortish kuchini aniqlash. Yer haydash ishining bajarilishi uchun 1 va 2- ilovaga asosan tavsiya etilgan agrotexnik tezliklar chegarasiga

Vatt kmG'soat mos keladigan traktorning tezlik uzatmasi _____, xarakat tezligi Vt_____, km/soat va ilgakdag'i tortish kuchi Pmk_____, kN qabul qilinadi.

4. Plug korpusining soni topiladi:

- tirkalma plug uchun $N_{tp} = \frac{P_{mk.h} - G_{mp}i}{B_{mk}}$, dona;

- osma plug uchun $N_{op} = \frac{P_{mk.h} - G_{mp}i}{B_{ok}}$, dona.

Bu yerda G_{mk} – traktorning og'irligi, kN; i – dalaning qiyaligi; B_{mk} – tirkalma plug korpusining qarshiligi, kN; B_{ok} – osma plug korpusining qarshiligi, kN.

5. Plug korpusining qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

- tirkama pluglar uchun $B_{mk} = k_nhb + g_n(1+i)$, kN;

- osma pluglar uchun $B_{ok} = k_nhb + g_n(\lambda_n + i)$, kN.

Bu yerda:

k_n - tuproqning solishtirma qarshiligi, kN/m² ;

h – haydash chuqurligi, m;

b – bitta korpusning qamrash kengligi, m;

g_n - bir korpusning oG'irligi, kN,

$g_n = 2,7-3,1$ kN;

λ_p - osma plug bilan ishlaganda traktorga tushadigan qo'shimcha yukni hisobga oluvchi koeffitsient, $\lambda_p = 0,5-1,0$.

Korpuslar sonining aniqlangan qiymati eng kichik butun songa yaxlitlanadi. Masalan, N_{tp} va $N_{op} = 2,6 \approx 2$ dona.

6. Traktorning tortish kuchidan foydalanish koeffitsienti

tirkalma plug uchun $q = \frac{P_{mk.h}}{N_{mk} B_{mk}}$;

osma pluglar uchun $q = \frac{P_{mk.h}}{N_{ok} B_{ok}}$

formulalar bilan topiladi.

Traktorning tortish kuchidan foydalanish koeffitsienti $q = 0,80....0,95$ bo'lishi kerak.

Hisoblangan ko'rsatgichlarning natijalariga asosan xulosa yoziladi.

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, berilgan jarayonning sharoitlari (topshiriq);ishning bajarish tartibi bo'yicha hisob-kitoblar va aniqlangan ma'lumotlar yoziladi hamda olingan natijalarga ko'ra xulosa yoziladi.

Nazorat savollari

1. Agregatning ish jarayonining sharoitlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tanlangan traktorning ilgakdagi tortish kuchi qanday aniqlanadi?
3. Traktorning tortish kuchidan foydalanish koeffitsienti haqida tushuncha bering.

15-LOBARATORIYa mashg‘uloti

Mavzu: Agregatning haqiqiy ish unumini foydalanish koeffitsientlari bo‘yicha baholash

Ishning maqsadi:

Berilgan ishlab chiqarish jarayoni va agregat tarkibi uchun uning smenadagi ish unumini hisoblashdan iborat.

Ishlab chiqarish jarayonining sharoitlari (topshiriq):

Ishlab chiqarish jarayoni _____

Ma’lumki, ish vaqtida agregat to‘g‘ri chiziq bo‘ylab aniq xarakatlanmasligi, ishlov berilgan joyni qayta qisman qo‘sib ishlashi, traktorning shataksirashi, salt yurishlari, texnologik va texnik xizmat ko‘rsatishda to‘xtab turishi va boshqa sabablarga ko‘ra uning haqiqiy ish unumi nazariy ish unumiga nisbatan farq qiladi.

Topshiriqda berilgan ishlab chiqarish jarayonining amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan agregat tarkibi, ya’ni, traktor rusumi _____ va mashina rusumi _____ 4-ilovaga asosan olinadi va uning qamrash kengligi _____ m, konstruktiv kengligi _____ m, xarakat tezligi _____ km/soat yozib olinadi.

Ishning bajarish tartibi.

1. Agregatning nazariy ish unumi quyidagicha topiladi:

$$W_n = 0,1 V_k V_n T_{sm}, \text{ ga/smena}$$

Bu erda: V_k – agregatning konstruktiv qamrash kengligi, m; (3-ilova).

V_n - traktorning ma’lum uzatmadagi tezligi, km/soat;

T_{sm} – smena vaqtisi, soat: $T_{sm} = 7$ soat

Agregatning haqiqiy ish unumi bevosita ish sharoitlarida aniqlanadi va u ko‘pgina omillarga, birinchi navbatda mexanizatorning malakasiga, ishlarni to‘g‘ri tashkil qilinishiga, agregatning texnik tayyoragarligiga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun agregatning haqiqiy ish unumini aniqlashda uning haqiqiy qamrash kengligini nazariy qamrash kengligiga (β), haqiqiy tezligini nazariy tezligiga (ε) va toza ishga ketgan vaqtni smena vaqtiga nisbati (τ) bilan aniqlanadigan foydalanish koeffitsientlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

2. Agregatning haqiqiy ish unumi quyidagicha topiladi:

$$W_h = 0,1 V_i V_i T_i q 0,1 \beta V_k \varepsilon V_n \tau T_{sm}, \text{ ga/smena}$$

Bu erda:

V_i - agregatning ishchi qamrash kengligi, m: $V_i = \beta V_k$;

V_i - agregatning ishchi tezligi, km/soat: $V_i = \varepsilon V_n$;

T_i - agregatning ish vaqtisi, soat: $T_i = \tau T_{sm}$

β - agregatning konstruktiv kengligidan foydalanish koeffitsienti;

ε – agregatning nazariy tezligidan foydalanish koeffitsienti;

τ – smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti

3. Koeffitsientlarning miqdorlari quyidagicha qabul qilinadi:

β - koeffitsientning miqdorlari turli agregatlarning ish unumini hisoblashda quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi:

tirkalma pluglar uchun -1,10,
osma pluglar uchun -1,03-1,07,
tishli tirmalar uchun -0,98,
disksimon tirmalar uchun -0,96,
yoppasiga ishlov berish kultivatorlari uchun - 0,98,
barcha turdag'i seyalkalar, qator orasiga ishlov beradigan kultivatorlar uchun – 1,0,
yoppasiga mineral va mahalliy o'g'it sepgichlar uchun - 0,96.

ε – koeffitsienti asosan traktorning shataksirashiga bog'lik bo'lib, uning miqdori G'ildirakli traktorlar uchun 0,6...0,9, zanjirli traktorlar uchun 0,85...0,98 tashkil etadi.

τ – smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti miqdori 7 – ilovaga asosan olinadi.

Hisoblangan ko'rsatgichlarning natijalari 16- jadvalga kiritiladi va olingan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslab xulosa yoziladi.

6-jadval

Aggregatning bir smenadagi ish unumini ko'rsatgichlari

№	Ko'rsatgichlar nomi	O'chov birligi	Ko'rsatgichlar miqdori	
			nazariy	haqiqiy
1	Qamrash kengligi	m		
2	Texnologik tezligi	Km/soat		
3	Smena vaqtি	soat		
4	Koeffitsient β	-		
5	Koeffitsient ε	-		
6	Koeffitsient τ	-		
7	Smenadagi ish unumi	ga /smena		

Ish bo'yicha hisobotda:

Ishning maqsadi, berilgan jarayonining sharoitlari (topshiriq); ishning bajarish tartibi bo'yicha hisob-kitoblar va aniqlangan ma'lumotlar 16-jadval ko'rinishida yoziladi hamda olingan natijalarga ko'ra xulosa beriladi.

Nazorat savollari.

1. Aggregatning nazariy ish unumi qanday aniqlanadi?
2. Aggregatning haqiqiy ish unumi qanday topiladi?
3. Koeffitsientlarning miqdorlari qanday qabul qilinadi?

ILOVALAR

1-ilova

G‘ildirakli traktorlarni faydalananish ko‘rsatgichlari

t/r	Ko‘rsatgichlar turi	TTZ-60.10	TTZ-80.10	MTZ-80A	MTZ-82	TTZ-60.11	TTZ-80.11	MTZ-80X
1	G‘ildirak sxemasi	4K2	4K2	4K2	4K4	3K2	3K2	3K2
2	Xarakat tezligi, km/soat/ Tortish kuchi, kN							
	1-uzatma	4,89/1 2.6	5,37/1 4.0	8.40/1 4.0	8.40/1 4.0	2,75/1 3.2	3,06/1 4.0	2.38/1 3.8
	2-uzatma	6,76/1 2.6	7,41/1 4.0	10.3/1 1.8	10.3/1 1.8	3,79/1 3.2	4,23/1 4.0	4.04/1 3.8
	3-uzatma	9,55/1 2.6	9,00/1 4.0	12.5/1 1.5	12.5/1 1.5	5,36/1 3.2	5,13/1 4.0	6.88/1 3.8
	4-uzatma	13,2/8 .28	10,5/1 1.1	15.2/9 .0	15.2/9 .0	7,41/1 3.2	6,00/1 4.0	8.45/1 3.8
	5-uzatma	14,1/7 .55	12,42/ 7.2	19.0/7 .0	19.0/7 .0	7,93/1 3.2	7,02/1 4.0	10.0/1 1.3
	6-uzatma	27,5/2 .50	14,45/ 6.3	23.3/5 .3	23.3/5 .3	15,4/6 .34	8,24/1 2.2	11.7/9 .3
	7-uzatma	-	15,51/ 5.0	28.9/5 .0	28.9/5 .0	-	8,84/1 2.2	14.4/7 .4
	8-uzatma	-	26,0/3 .32	34.3/3 .0	34.3/3 .0	-	14,82/ 6.1	17.0/5 .9
3	Orqa G‘ildiraklar orasi,mm	1800-2400	1800-2400	1900	1900	1800-2400	1800-2400	1900
4	Agrotexnika masofasi, mm	540	650	465	465	825	830	830
5	Old shina rusumi	9,00-15	9,00-16	9-20	13.6-20	9,00-15	9,00-16	12-16
6	Old shina kengligi,mm	228	228	228	345	228	228	304
7	Orqa shinalar rusumi	9,5-42 13,6R -38 15,5R -38	9,5-42 13,6R -38 15,5R -38	15.5R -38	15.5R -38	9,5-42 13,6R -38 15,5R -38	9,5-42 13,6R -38 15,5R -38	18.4/L 30
8	Orqa shinalar kengligi, mm	241 345 394	241 345 394	394	394	241 345 394	241 345 394	467
9	Orqa shina tuproqilgichini balandligi, mm	25	25	25	25	25	25	25

Tavsiya etilgan agrotexnikatezliliklari chegarasi (Vi.ch)
va agregatlarning smena vaqtidan foydalanish koeffitsientlari (τ)

T/ r	Ish turi	Xarakat tezligi (Vaat),k m/soat	Smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti (τ)		
			Dalaning uzunligi, m		
			≤ 150	500	$1000 \leq$
1	2	3	4	5	6
1	Oddiy 3-4 korpusli pluglar bilan er haydash	7-8	0.64	0.80	0.86
2	Tezkor 5-6 korpusli pluglar bilan er haydash	8-12	0.51	0.84	0.86
3	Tishli tirmalar bilan tirmalash	8-13	0.67	0.81	0.89
4	Dalani yoppa kultivatsiya qilish, disklash	5-11	0.68	0.72	0.77
5	G'altakmola bostirish	6-15	0.67	0.66	0.80
6	Mineral o'g'it solish:				
	o'g'it seyalkalari bilan	6-12	0.41	0.50	0.55
	o'g'it sochgichlar bilan	10-13	0.49	0.53	0.62
7	Organik o'g'it sepish	6-10	0.26	0.29	0.31
8	Suyuq organik o'G'itlarni sepish	4-8	0.51	0.62	0.65
9	Don va dukkakli donlar ekish	7-14	0.62	0.65	0.71
10	Makkajo'xori va kungaboqarni ekish	4.5-12	0.62	0.66	0.69
11	Kartoshka ekish	4-10	0.45	0.48	0.51
12	Ko'chatlar ekish	0.6-3.5	0.48	0.51	0.56
13	CHigit ekish (oddiy seyalkalarda)	6-8	0.54	0.57	0.58
	CHigit ekish (pnevmatik va keng qamrovli)	6-8	0.41	0.52	0.71
14	G'o'za qator orasiga ishlov berish:				
	birinchi	4-6	0.67	0.72	0.76
	navbatdagi	8-9	0.67	0.72	0.75
	oxirgi	4-6	0.67	0.72	0.76
15	Makkajo'xorini kultivatsiya qilish	6-12	0.56	0.60	0.63
16	Kartoshkani kultivatsiya qilish	5-7	0.57	0.60	0.62
17	Pichan o'rish	6-12	0.76	0.82	0.84
18	O'tni ko'k em uchun o'rish	6-8	0.71	0.75	0.78
19	Paxtani mashinada terish	4-5	0.59	0.63	0.65
20	G'allani o'rib-yig'ish	6-7	0.61	0.68	0.71
21	Makkajo'xori o'rish: silosga	5-12	0.51	0.56	0.60
	don uchun	4-10	0.46	0.50	0.58
22	Kartoshka yig'ish: kombayn bilan	1-5	0.32	0.36	0.42
	kavlagichlar bilan	2-8	0.42	0.46	0.53
23	CHizellash	6-10	0.51	0.58	0.62
24	Molalash va tekislash	4-7	0.69	0.72	0.74
25	CHanglatish-purkash (shtangali purkagichlar)	5-6	0.36	0.42	0.46
	CHanglatish-purkash(ventilyatorli purkagichlar)	6-7	0.68	0.72	0.77
26	G'o'zapoya yulish-uyumlash	3.5-6	0.76	0.82	0.85
27	Ariq qazish va tekislash	4.3-7	0.69	0.71	0.77
28	Egat olish	6-8	0.66	0.72	0.78

Traktorlar va o‘ziyurar mashinalarning asosiy ko‘rsatgichlari

T/r	Traktorlar va o‘ziyurar mashinalar rusumi	Ko‘rsatgichlar				
		Nominal quvvati (Nen),kV T	Massasi (G), kN	Bazasi (Lm), m	Kinematik uzunligi (Lk), m	Burilish radiusi (Rt), m
1	AXION-850 (G‘ildirakli)	195	90	3.72	2.95	5.19
2	MX-240,250(G‘ildirakli)	181	138	3.51	2.71	5.62
3	Magnum7240(G‘ildirakli)	167	124	3.12	2.32	5.23
4	Arion 630S(G‘ildirakli)	114	58	2.82	2.23	4.80
5	K-701,744R1(G‘ildirakli)	220	149	3.05	2.43	4.86
6	XTZ-181 (zanjirli)	132	95	2.31	2.35	2.35
7	VT-150D (zanjirli)	110	82	1.86	2.24	3.20
8	TS-130(G‘ildirakli)	96	56	2.73	2.35	4.51
9	Axsos 340S(G‘ildirakli)	75	42	2.49	2.23	4.40
10	MXM-140(G‘ildirakli)	110	54	2.71	2.40	4.56
11	MX-135(G‘ildirakli)	100	57	2.50	2.36	4.42
12	T-401,T-4A(zanjirli)	96	81	2.41	1.95	2.40
13	VT-100D(zanjirli)	96	81	2.33	2.21	3.11
14	MTZ-82(G‘ildirakli)	59	34	2.45	1.97	4.90
15	MTZ-80(G‘ildirakli)	59	32	2.37	1.97	4.90
16	MTZ-80X(G‘ildirakli)	59	36	2.30	1.97	2.51
17	TTZ-80.10(G‘ildirakli)	60	39	2.26	2.17	3.80
18	TTZ-80.11(G‘ildirakli)	60	31	2.26	2.03	2.62
19	TTZ-60.10(G‘ildirakli)	44	29	2.17	2.10	3.73
20	TTZ-60.11(G‘ildirakli)	44	28	2.17	2.15	2.51
21	Keys-2022 (o‘rnatma, g/sh)	118	107	4.2	2.11	6.30
22	DjonDir 7260 (tirkama,g/sh)	60	47	7.56	4.31	6.31
23	MX-1,8 (osma, v/sh)	60	78	3.87	3.40	7.90
24	Dominator-130	104	73	3.47	4.26	6.52
25	Tukano-430	177	142	3.86	5.01	7.41
26	Keys-2388	210	124	4.1	6.03	8.43
27	TS-5060	128	100	3.43	5.01	7.14

Qishloq xo‘jaligi mashinalarining asosiy ko‘rsatgichlari

T/ r	Tavsiya etiladigan traktorlar rusumi	Qishloq xo‘jaligi mashinalari turi va rusumlari	Qamras h kengligi (Vm),m	Kine- matik uzun- ligi (Lm), m	Mas- sasi (Gm) kN	Kons- trukti v kengl i-gi (dk), m	Nisbiy qarshi- ligi Kp (kN/m ²), Km(kH/ m)
1	Oddiy korpusli pluglar bilan er haydash						
	VT-100, T-4A, TS-130, MX-135, MXM-140, Axsos-340S	PDN-3-30 (osma,yar.3k)	0,9	3,0	10,8	2,2 2,5 1,85 1,65	TuproG‘i engil:21 - 35,oG‘ir :36-55, juda oG‘ir 56-90 kN/m ²
		PDO-4-45(osma, yar.4k)	1,8	3,24	12,0		
		PYA-3-35(tirkama yar.3k)	1,05	2,65	7,1		
		14R-2/3-45 (osma, 3 k.)	1,35	3,6	10,2		
2	Tezkor korpusli pluglar bilan er haydash						
	VT-150, VT-100, T-4A, TS-130, MXM-140,	O‘PZ-3/4-45 (osma, 4 k.)	1,8	3,3	10,0	2,24 1,88	TuproG‘i engil – 21-35, oG‘ir – 36-55, juda oG‘ir 56-90 kN/m ²
		O‘P-3/4-40 (osma, 4 k)	1,60	4,0	11,5		
	K-701, XTZ-181, Magnum 7240, Arion 640S, MX-240, 250AXIO N-850	PRUN-5(4) (osma, 5k.)	2.10	5,2	10,8	2,35 2,61	
		PNYA-4+1-45 (osma, 5k)	2,15	5,52	15,9	2,45 2,78	
		EurOpal 9 (osma,ayl.5 k)	2,0	5,95	15.1		
		LD-85 (osma,ayl.5k)	2,1	5,4	19,2		
3	Tishli tirmalar bilan tirmalash						
	TTZ-80.10, MTZ-80,82, VT-100, T-4A	BZSS-1,0 (24 ta,2qator) ZBTU-1,0 (24 ta,2 qator)	0,93 0,93	1,35 1,35	0,35 0,38	11.7 11.7	0,3-0,6 0,4-0,7
4	Dalani disklash						
	MTZ-80,82, VT-100, T-4A	TDB-3/5(tirkama)	5,0	3,0	32,0	4.7	4,0-6,7
5	Mineral o‘g‘it solish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	RMU-0,5 (osma)	12,0	1,0	3,0	1.64	0,3-0,6

6	Organik o‘g‘it sepish						
	TTZ-80.10, MTZ-80,82	RTP-5-OU (yarim tirkama)	3,6	6,6	23,0	2.1	1,2-1,4
7	Boshoqli va dukkakli donlar ekish						
	TTZ-60, 80.10, MTZ-80,82	DEM-3,6, SZT-3,6	3,6	1,8	8,5	3.77	1,0-1,4
8	Makkajo‘xori ekish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	SXM-4 (osma,pnev.)	2,8	2,17	6,5	3.7	1,2-1,4
9	Kartoshka ekish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	KS-2 (osma) KS-4 (osma)	2,8 2,8	0,22 0,20	6,5 11,0	1.90 4.22	3,5-4,0
10	CHigit ekish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	SMX-4 (osma,pnev.) SCHX-4B (osma, mex.)	2.4; 3,6 2.4; 3,6	2,17 1,63	6,5 5,1	3.1- 4.3 2.8-	1,2-1,4
	MX-135, MXM-140, TS-6070	Keys-1200 (8 qatorli)	7,2	2,38	20,1	3.7 8.2	1,3-1,5
11	G‘o‘za qator orasiga ishlov berish						
	TTZ-80.11, MTZ-80X	KXM-4A(o‘rnatma)	3,6	5.6	16,0	3.96	3,1-3,2
	TTZ-60.11	KXU-4A(o‘rnatma)	2,4	5.6	16,0	4.4	3,0-3,1
12	Makkajo‘xorini kultivatsiya qilish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	KXM-4A(o‘rnatma)	2,8	5.6	16,0	4.4	3,2-3,3
13	Kartoshkani kultivatsiya qilish						
	TTZ-60.11 TTZ-80.11, MTZ-80X	KXM-4A(o‘rnatma),	2,8	5.6	16,0	4.4	3,2-3,3
14	Paxtani mashinada terish						
		Keys-2022(o‘rnatma, g/sh)	1.8	7.46	106, 8	4.1 4.26	1,3-1,7
	TTZ-80.11, MTZ-80X	DjonDir 7260 (tirkama, g/sh)	1,8	11,0	47,0	3.8	
		MX-1,8(osma, v/sh)	1,8	7,68	78,0		1,45-1,5
15	G‘allani o‘rib-yig‘ish						
	Klaas	Dominator-130	4,2	9,1	77,6	4.5	
		Tukano-430	5,0	10,1	141, 7	5.6 7.2	1,7-1,9
	Keys	Keys-2388	6,0	10,6	124,	6.2	

				0		
	TS-5060	5,0	9,86	100, 0		
	KPK-2,4M (tirkama)	2,4	2,1	7,0		
16	Kartoshkani kavlagichlar bilan yig‘ish					
	TTZ-80.11, MTZ-80X	KN-2 (osma)	1.4	3,28	8,4	2.3
17	CHizellash					
	VT-100, T-4A	CHKU-4A(tirkama)	4,0	5,5	17,6	4.5
18	Molalash va tekislash					
	MTZ-80,82 TTZ-80.10, VT-100	P-2,8 (tirkama)	2,8	1,7	4,4	4.1
19	CHanglatish-purkash					
	TTZ-60.11, TTZ-80.11, MTZ-80X	OVX-600 (o‘rnatma)	30	5,9	5,0	3.6
		OVP-1200(tirkama)	40	4,0	10,0	3.2
		OPSHX-12/15 (osma)	12	6,5	7,75	13.5
		VP-1 (osma)	13	5,3	3,45	14.2
		OSHU-150 (tirkama)	40	1,0	1,5	2.4
20	Erlarni chuqur yumshatish					
	Magnum, VT- 150, Arion 640S	GNU-1M (osma)	1,85	1,5	6,3	2.5
21	Egat olish					
	TTZ- 60.11, TTZ- 80.11, MTZ- 80X	GX-4 (osma)	2.4; 3,6	1.96	8.6	4.2

5-ilova

Universal tirkagichlarning qisqacha texnik tasniflari

T/r	Ko‘rsatgichlar	Tirkagichlar rusumi				
		SP-16	SP-11	SP-15	SG-21	S-11U
1	Qamrash kengligi, m	13,5	7,0	8,0	21,0	11,0
2	Ishchi tezligi, km/soat	10-13	15	10	15	10
3	Umumiy massasi, kN	18,0	8,4	12,5	16,0	7,8
4	Nisbiy oG‘irlik kuchi, kN/m	1,1	0,77	1,4	0,77	0,68
5	Qarshilik kuchi, kN:					
	anG‘izda	1,2-1,8	0,6-0,8	0,9-1,2	1,4-1,7	0,7-0,9
	yangi haydalgan er	3,0-4,5	1,5-2,1	2,1-3,1	3,6-4,2	1,7-2,0
6	Kinematik uzunligi, m	6.0	6.6	5.0	7.9	6.9

Transport vositalarining asosiy ko‘rsatgichlari

t/r	Ishning nomi	Transport vositasining ko‘rsatgichlari				Vaqt sarfi, soat		
		traktor rusumi	tirkama rusumi	yuk ko‘ta-rishi, t.	Xarakat tezligi, km/soat	or-tish	tushi-rish	ku-tish
1	Organik (mahalliy) o‘g‘it tashish va erga sochish	MTZ-80,82 TTZ-60, 80.10	RTP-5-OU 2PTS-4-793	4	20	15	0,3	0,3
2	Mineral o‘G‘it tashish			4	30	25	0,3	0,5
3	Maydalangan ko‘k o‘t tashish			4	30	20	0,5	0,1
4	Silos uchun maydalangan makkani tashish			4	30	20	0,3	0,1
5	Kavlangan kartoshkani tashish			4	30	15	1,0	0,2
6	Mashinada terilgan paxtani tashish			4	20	15	0,1	0,3
7	Don tashish			4	30	20	0,1	0,2

**Qishloq xo‘jaligi mashinalari ishchi qismlarini
xarakatlantirishga sarflanadigan quvvat**

T/r	Ish turi	Rusumi	Quvvat sarfi, kVT
1	Mineral o‘g‘it solish:	RMU-0,5	18,0-20,0
2	Organik o‘g‘it sepish	ROU-5	33,0-35,0
3	Pichan o‘rish	KOS-2,1	3,7-4,0
4	O‘tni ko‘k em uchun o‘rish	KIR-1,5	22,0-24,5
5	Paxtani mashinada terish	MX-1,8	24,0-25,6
6	G‘allani o‘rib-yig‘ish	Keys, Klaas	38,2-46,5
7	Makkajo‘xorinisilosga o‘rish	KKU-2, KPK-2	12,0-15,0
8	Kartoshka ekish	KS-2, KS-4	5,0-8,0
9	Kartoshka yig‘ish	KN-2	11,0-12,0
10	CHanglatish-purkash	OVX-600 (o‘rnatma)	26,0-30,0
		OPSHX-12/15 (osma)	7,8-9,6
		VP-1 (osma)	13,0-16,0
		OSHU-150 (tirkama)	12,0-15,0


**Mashina-traktor agregatlarining
xarakatlanish va burilish ko‘rsatgichlari**

t/r	Agregatlar turi	Xarakatlanish usuli	Burilish usuli	Burilishdagi salt yurish uzunligi(Lc), m	Paykalning aqbul eni (Cmaq),m
1	Oddiy (osma, tirkama) pluglar bilan er haydash	O‘rtaga va chetga aG‘darib haydash (A)	Sirtmoqsiz to‘g‘ri iziqqli burilish bilan qayrilish (a)	$L_c = (1,4...2,0)R_0 + X_{m4} + 2e$ $X_{m4} = \text{Smaq}$	$\text{Smaq} = \sqrt{16R_0^2 + 2B_u L_u}$
2	Aylanma pluglar bilan er haydash, 8 qatorli seyalka bilan chigit ekish	Mokkisimon xarakatlanish (B)	Sirtmoqli orqaga yurish bilan qayrilish (b)	$L_c = (5,0...5,5)R_0 + 2e$	-
3	Tirmalash, disklash, molalash, tekislash,	Dioganal mokkisimon xarakatlanish (V)	Sirtmoqli bir tomonlama burilish bilan qayrilish (v)	$L_c = (6,0...7,5)R_0 + 2e$	-
4	G‘alla o‘rish, tirkamali mashinada paxta terish, o‘t va pichan o‘rish	Ikki paykalli xarakatlanish (G)	Sirtmoqsiz to‘g‘ri chiziqli burilish bilan qayrilish (g)	$L_c = (1,4...2,0)R_0 + X_{m4} + 2e$ $X_{m4} = \text{Smaq}$	$\text{Smaq} = \sqrt{2(B_u L_u - 2R_0^2)}$
5	G‘o‘zani defolia-siya qilish va kimyoviy ishlov berish, ariq olish va tekislash	Mokkisimon xarakatlanish (D)	Sirtmoqsiz to‘g‘ri chiziqli burilish bilan qayrilish (d)	$L_c = (1,4...2,0)R_0 + X_{m4} + 2e$ $X_{m4} = V_a$	-
6	Boshqa barcha ishlar	Mokkisimon xarakatlanish (Z)	Sirtmoqsiz aylana bo‘ylab birilish bilan qayrilish (z)	$L_c = (3,2...4,0)R_0 + 2e$	-


Agregatlarning asosiy harakatlanish va qayrilish usullari

Harakatlanish usullari		Qayrilish usullari	
nomi	chizmasi	nomi	chizmasi
O‘rtaga va chetga aG‘darib haydash (A)		Sirtmoqsiz to‘g‘ri chiziqli burilish bilan qayrilish (a)	
Mokkisimon xarakatlanish (B)		Sirtmoqli orqaga yurish bilan qayrilish (b)	
Diogonal mokkisimon xarakatlanish (V)		Sirtmoqli bir tomonlama burilish bilan qayrilish (v)	
Ikki paykalli xarakatlanish (G)		Sirtmoqsiz to‘g‘ri chiziqli burilish bilan qayrilish (g)	
Mokkisimon xarakatlanish (D)		Sirtmoqsiz to‘g‘ri chiziqli burilish bilan qayrilish (d)	
Mokkisimon xarakatlanish (Z)		Sirtmoqsiz aylana bo‘ylab birilish bilan qayrilish (z)	

**O'simliklar qator orasiga ishlov berishda
kultivator ishchi qismlarini joylashtirish**




a)




b)

90 sm qator oralig'ida qatqaloqni yumshatish-begona o'tlarni yo'qotish (a) va tuproqni yumshatishda (b) ishchi qismlarni joylashtirish sxemasi



v)



g)

60 sm qator oralig'ida begona o'tlarni yo'qotish (v) va tuproqni yumshatishda ishchi qismlarni joylashtirish sxemasi

Adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Xalilov, A.Obidov, M.Djiyanov va boshqalar Qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish, Toshkent, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyati» -2018 (darslik)
2. I. Solihov Traktorlar va avtomobillar, Toshkent «CHo‘lpon nomidagi nashriyomatbaa uyi» - 2012.(lotin alifbosida)
3. SHoumarova M., Abdillaev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Toshkent, O‘qituvchi 2002y. (darslik)
4. M.Toshboltaev Paxtachilik va G‘allachilik mashinalarini rostlash va samarali ishlatish «Fan nashriyoti», 2012 (qo‘llanma)
5. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar 2016-20202 yillar uchun.
6. A. Obidov Mashina-traktor parkidan foydalanish. Toshkent, “Tafakkur qanoti”, 2013. (darslik)
7. A.X.Vaxidov va bosh. Avtomatikaning asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish. – T.: «ToshDAU », 2014 - 260 b.
8. D.A.Abdullaeva. Avtomatikaning texnik vositalari. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2012 - 192 b.
- 9.Thompson S. Control Systems Engineering & Design Longman & Technical, Essex, UK, 2009.
- 10.Lewis R.W. Programming industrial control systems using IEC, 113-3 UK, 2009).
11. Internet ma’lumotlari